

OTBIRISTON RESPUBLIKASI O'QUV VA O'QUVA TATLIM VAZIRLIGI
OTBIRISTON RESPUBLIKASI SOG'UQM SAQLASH VAZIRLIGI



**CENTRAL
ASIAN
MEDICAL
UNIVERSITY**



A.A. Abdumanonov

TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI



o'quv qo'llanma

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

Abdumanonov A.A.

**TIBBIYOTDA AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI**

O‘quv qo‘llanma

Ta’lim sohasi: 60910200 – Davolash ishi

60910300 – Pediatriya ishi

60910400 – Tibbiy profilaktika ishi

*(Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil
25 avgustdagi №391-son buyrug‘i)*

**«O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI»
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 616.441-008.61-07-08

KBK: 133.05(uzb)185.

Tuzuvchi:

Abdumanonov A.A. - Central Asian Medical University tibbiyot universiteti dotsenti.

Taqrizchilar:

Zokirov S.I. - Central Asian Medical University tibbiyot universiteti dotsenti, PhD.

Xalilov D.A. - TATUFF Axbrot texnologiyalari kafedrası professori

Annotatsiya: “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma tibbiyot kollejlari va tibbiyot yo‘nalishidagi oliy ta‘lim talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib unda tibbiyot sohasida axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini qo‘lanilishi, tibbiy axborotlar bilan ishlash ularni tartibga solinish tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimida axborotlarning avtomatlashtirilgan almashinuviga erishish, tibbiy axborotlarga ishlov berish usullari va vositalari bilan tanishish, axborot oqimlari bilan ishlash, axborotlarni qayta ishlash jarayonlarini amalga oshiradigan hisoblash texnikalari va aloqa kommunikatsiya vositalaridan foydalanish, tibbiy axborot tizimlarida ishlash, tibbiyot muassasalarini boshqarish va sog‘liqni saqlash tizimida axborotni boshqarish va axborot almashinuvini ta‘minlash, tibbiy axborotlar xafsizligini ta‘minlash usullari va daturiy ta‘minotlarini urgatishdan iboratdir. O‘quv qo‘llanmadan 60910200 – Davolash ishi, 60910300 - Pediatriya ishi va 60910400 - Tibbiy profilaktika ishi yo‘nalishi talabalari uchun tibbiyotda axborot texnologiyalarini qo‘llash va sog‘liqni saqlash sohasida axborot texnologiyalari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganadigan fanlar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

ISBN 978-9910-9962-5-2

MUNDARIJA

SO‘Z BOSHI.....	7
I BOB. AXBOROT HAQIDA TUSHUNCHA. AXBOROT TEKNOLOGIYALARI HAQIDA MA’LUMOT.	8
1.1-§. Axborot tushunchasi.....	8
1.2-§. Axborot va uning turlari.....	10
1.3-§. Axborot xossalari.....	13
1.4-§. Axborot texnologiyalarining turlari.....	16
Nazorat savollari:.....	18
II BOB. SANOQ SISTEMALARI. AXBOROT TURLARI. TEXNIKA XAVFSIZLIGI.	20
2.1-§. Sanoq tizimlari.....	20
2.2-§. Axborot haqida tushuncha va xususiyatlari.....	26
2.3-§. Axborotni uzatish. Axborotni saqlash.....	29
2.4-§. Axborotning tasniflanishi.....	31
2.5-§. Texnika havfsizligi.....	34
Nazorat savollari:.....	38
III-BOB. TIBBIYOT MASALALARINI YECHISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI.	40
3.1-§. Tibbiyotda axborot texnologiyalarini asoslari.....	40
3.3-§. Tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlar.....	46
3.4-§. Tibbiy diagnostika.....	47
3.5-§. Shaxsiy kompyuterlarning tarixi.....	50
3.6-§. Shaxsiy kompyuterlarning arxitekturasini.....	54
3.7-§. Shaxsiy kompyuterlarning qo‘shimcha qurilmalari.....	61
Nazorat savollari:.....	66
IV BOB. TIBBIYOT MASALALARINI YECHISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALAR DASTURIY TA’MINOTI.....	68
4.1-§. Dasturiy ta’minot va uni turlari.....	68
4.2-§. Kompyuter amaliy dasturiy ta’minotining vazifasi, tarkibi va strukturasini.....	73
4.3-§. Kompyuter uskunaviy dasturiy ta’minotining vazifasi, tarkibi va strukturasini.....	78
4.4-§. Uskunaviy dasturiy vositalar paketi.....	82
4.5-§. Operatsion tizimlar, ularning turlari va vazifalari.....	84
Nazorat savollari:.....	92

V BOB. WINDOWS OPERATSION TIZIMI TARIXI VA UNDA ISHLASH ASOSLARI. AXBOROTLARNI ARXIVLASH VA FAYLLAR BILAN ISHLASH DASTURLARI.	93
5.1-§. WINDOWS operatsion tizimi tarixi va versiyalari.	93
5.2-§. Windows operatsion tizimi imkonoyatlari.	100
5.3-§. WINDOWS dasturning ishchi stoli ПУСК menyusi. ПРОГРАММЫ bo‘limining СТАНДАРТНЫЕ guruxi dasturlari.	107
5.4-§. WINDOWS Ish stoli elementlari ular ustida amalar bajarish. ..	122
5.5-§. Fayllarni arxivlash va WinRar dasturi.	125
5.6-§. Faylar bilan ishlash dasturlari.	132
5.7-§. Total Commander dasturi.	139
Nazorat savolari.	143
VI BOB. TIBBIYOTDA MATNLI AXBOROTLARNI QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI. MICROSOFT WORD MATN MUHARRIRINING KENG IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.	145
6.1-§. Matn muharrirlari.	145
6.2-§. Word matn muharriri.	150
6.3-§. Word matn muharriri menyusi bilan tanishish.	153
Nazorat savollar.	182
VII BOB. SONLI MA’LUMOT QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI. MICROSOFT EXCEL JADVAL MUHARRIRINING KENG IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH.	184
7.1-§. Elektrton jadval.	184
7.2-§. Excel elektron jadval dasturi tarixi va versiyalari.	186
7.3-§. Excel elektron jadval dasturi da ishlash.	192
7.4-§. Excel jadval muharriri tezkor tugmalar bilan tanishish.	196
7.5-§. Excel formulalar va formulalar yordamchisi bilan ishlash.	199
7.6-§. Excelda formula va funksiyalar bilan ishlash.	202
7.7-§. Excel diagrammalar va uning yordamchisi bilan tanishish.	216
Nazorat savollar.	221
VIII BOB. TIBBIYOT MA’LUMOTLARINI TAQDIM ETISH UCHUN TAQDIMOTLAR YARATISH DASTURI, GRAFIK MA’LUMOTLAR VA MULTIMEDIYA ILOVALARINI YARATISHDAGI DASTURIY VOSITALARI.	223

8.1-§. Tibbiyotda multimediya ilovalarini yaratishdagi dasturiy vositalar.....	223
8.2-§. Microsoft Power Point taqdimotlar yaratish dasturi.	230
8.3-§. Microsoft Power Point dasturida ishlash.	233
8.4-§. Microsoft Power Point dasturi asosiy menyusi bo'limlari bilan tanishish.	235
8.5-§. Microsoft Power Point tezkor tugmalari. Taqdimotni sozlash.	244
8.6-§. PowerPoint-da taqdimot yaratish.	246
8.7-§. Tibbiyot tizimida multimedia texnologiyasidan foydalanish.	269
8.8-§. Tibbiy rasmlarni qayta ishlash dasturlari.	272
Nazorat savollari.	290

IX BOB. TIBBIYOTDA MA'LUMOTLAR BAZASI

LOYIHALASHTIRISH. MS ACCESS DASTURIY

TA'MINOTIDAN FOYDALANISH.292

9.1-§. Axborotni saqlash, saralash va qidirish texnologiyasi.....	292
9.2-§. MBBT va uning tarkibiy qismlari.....	293
9.3-§. MB ni mantiqiy va fizik tasvirlash.....	294
9.4-§. Ma'lumotlarbazasi va MBBT ni fizik tashkil etish.	297
9.5-§. Zamonaviy MBBT.....	300
9.6-§. MBBT dasturiy ta'minotlari (Oracle, MySQL).....	318
9.7-§. MS ACCESS MBBT.....	322
9.8-§. Access MBBTda ishlash texnologiyasi.	331
Nazorat uchun savollar:.....	335

X BOB. KOMPYUTER TARMOQLARI. GLOBAL TARMOQ.

TELEKOMMUNIKATSION TIZIMLAR.336

10.1-§. Kompyuter tarmoqlari turlari.	336
10.2-§. Kompyuter tarmoqlarini asoslari.	342
10.3-§. Tarmoq topologiyasi.	345
10.4-§. Internet.....	348
10.5-§. Internetdagi asosiy protokollar va ularning qo'llanilishi.....	350
10.6-§. Internetning asosiy tushunchalari.....	356
Nazorat savollari:.....	361

XI BOB. WEB SAYTLAR YARATISHGA YO'NALTIRILGAN

DASTURIY TA'MINOTLAR.362

11.1-§. HTML (HyperText Markup Language).....	362
11.2-§. Web sayt yaratish texnologiyasi.....	367
11.3-§. HTML muharrirlari.	373

11.4-§. HTML sahifalar yaratish.....	376
Nazorat savollari:.....	399
XII BOB. TIBBIYOTDA ELEKTRON VA MASOFAVIY O‘QITISH.....	401
12.1-§. Masofaviy o‘qitish.....	401
12.2-§. Masofadan o‘qitish tizimlari.....	404
12.3-§. Masofadan o‘qitish modellari.....	415
12.4-§. Forumlar – ta’lim metodi.....	417
12.5-§. Ta’limni boshqarish tizimi (LMS).....	419
Nazorat savollari.....	436
XIII BOB. TIBBIYOT TIZIMLARINING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH ASOSLARI.....	437
13.1-§. Axborot xavfsizligi.....	437
13.2-§. Axborot xavfsizligi asosiy tushunchalari va maqsadi.....	438
13.3-§. Axborotni himoyalash tizimi.....	443
13.4-§. Kompyuter viruslari.....	447
13.5-§. Antivirus dasturlari.....	455
13.6-§. Axborotlarni stenografik himoyalash usullari.....	457
13.7-§. Axborotlarni kriptografik himoyalash usullari.....	462
Nazorat savollari:.....	482
XIV BOB. TELETIBBIYOT. TIBBIYOT AXBOROT TIZIMLARI. TELETIBBIYOTGA YO‘NALTIRILGAN DASTURIY TA‘MINOTLAR.....	484
14.1-§. Tibbiyotda aborot texnologiyalari.....	484
14.2-§. Tibbiyot axborot tizimlarining zamonaviy holati tahlili.....	491
14.3-§. Elektron kasallik tarixi.....	494
14.4-§. Teletibbiyot.....	499
Nazorat savollari:.....	505
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	506

SO‘Z BOSHI

Axborot tizimlari tibbiyot va sog‘liqni saqlashning barcha sohalarida mavjuddir. Tibbiyot sohasida axborot almashishning turli ko‘rinishlaridan foydalanish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir. Ularning tartibga solinishi tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimida axborotlarning avtomatlashtirilgan almashinuviga erishish, bu soha xodimlarining ish faoliyati unumdorligini oshirib, bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi. Axborot oqimlari bilan ishlash uchun sog‘liqni saqlash tizimida axborot tizimlari yaratilgan. Axborot tizimi tashkiliy tartibga solingan hujjatlar va axborot texnologiyalari yordamida, Shu jumladan axborotni qayta ishlash jarayonlarini amalga oshiradigan hisoblash texnikalari va aloqa kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning umumlashtirilgan yig‘indisidir. Tibbiy axborot tizimlarining maqsadi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishning turli vazifalarini qo‘llab quvvatlash, tibbiyot muassasalarini boshqarish va sog‘liqni saqlash tizimining o‘zini axborot boshqaruvida axborot almashinuvini ta’minlashdan iboratdir.

I BOB. AXBOROT HAQIDA TUSHUNCHA. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI HAQIDA MA'LUMOT.

1.1-§. Axborot tushunchasi.

Axborotlashtirish faoliyatining rivojlanishida ularni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va jamiyatda ilmiy axborotlarni tarqalishi natijasida yangi ilmiy yo'nalish — informatika vujudga keldi. XX asrning 50- yillarida yangi fan – informatikaga asos solindi. Informatika termini franso'z so'zlari information (axborot) va automatique (avtomatika) negizida hosil bo'lgan. Informatika kompyuter texnikasini qo'llashga asoslanib inson faoliyatining turli sohalarida axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish masalalari bilan Shug'ullanuvchi fandir. Qisqa qilib aytganda, informatika kompyuter texnikasi asosida axborotlar ustida bajariladigan amallar va ularni qo'llash usullarini o'rganadigan fandir. Demak, informatika uchun asosiy ashyo – axborot. Axborot informatika fanida asos tushuncha sifatida qabul qilingan.

Informatika tavsifi. Axborot iste'molchisi - axborotni qayerda va qaysi aniq masala uchun ishlatilishi, foydalanish turi va vazifasiga qarab unga baho beradi. Shunga ko'ra informatikani pragmatik, semantik va sintaktik jabhalarga ajratish mumkin.

Informatika o'rganadigan va o'zaro bog'langan uchta asosiy tushuncha bor. Bular axborot, algoritm va EHM dir.

Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanining maqsadi zamonaviy texnologiyalarni o'qish jarayoniga oilb qilib, bugungi kunda tibbiyot masalarini yechishda hamda davolash va ilmiy - amaliy faoliyatni sifatli olib borishda, axborot texnologiyasidan to'g'ri foydalana oladigan mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Informatika sohasining asosiy resursi bu – axborotdir. **Axborot** atrof-muhit ob'ektlari va hodisalari, ularning o'lchamlari, xosiyatlari va holatlari to'g'risidagi ma'lumotlardir. Keng ma'noda axborot insonlar o'rtasida ma'lumotlar ayriboshlash, odamlar va qurilmalar o'rtasida signallar ayriboshlashni o'ziga mujassamlashtirgan umummilliy tushunchadir. Informatikada axborot bilan

bir qatorda ma'lumotlar tushunchasi ham keng qo'llaniladi.

Ma'lumotlarga u yoki bu sabablarga ko'ra foydalanilmaydigan, balki faqat saqlanadigan belgilar yoki yozib olingan ko'zativlar sifatida qarash mumkin. Agar bu ma'lumotlardan biror narsa tug'risidagi mavhumlikni kamaytirish uchun foydalanish imkoniyati tug'ilsa, ma'lumotlar axborotga aylanadi. Shuning uchun axborotni foydalanadigan ma'lumotlar deb atasa ham bo'ladi.

Masalan, qog'ozga telefon raqamlarini ma'lum tartibda yozib, uni boshqa kimsaga ko'rsatsangiz, u buni biror axborot bermaydigan ma'lumot sifatida qabul qiladi. Biroq ana Shu har bir telefon raqami to'g'risiga muayyan korxona yoki tashkilot nomi, uning faoliyat turi yozib olinsa, avvalgi ma'lumot axborotga aylanadi.

Iqtisodiy axborot - axborotning eng muhim turlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy axborot ishlab chiqarish jarayonlari, moddiy resurslar, bozorlar, bank va moliya muasasalari faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Sivilizatsiya rivojlanishi tarixida bir necha axborot inqiloblari ro'y berdi - axborotni qayta ishlash sohasida tub o'zgarishlar ro'y bergani tufayli ijtimoiy munosabatlarda o'zgarishlar yo'zaga keldi. Bunday o'zgarishlar oqibati sifatida insoniyat jamiyati yangi sifatga ega bo'ladi, ya'ni:

1 – bosqich. XIX asirning 2 – yarmigacha davom etgan. Bu bosqichda «qo'llik» axborot texnologiyalari taraqqiy yetgan. Uning vositasi pero, siyoxdon, kitob. Kommunikatsiya, ya'ni aloqa odamdan – odamga yoki pochta orqali xat vositasida amalga oshirilgan.

2 - bosqich. XIX asirning oxiri, unda «mexanik» texnologiya rivoj topgan. Uning asosiy vositasi yozuv mashinkasi, arifmometr kabilardan iborat.

3 – bosqich. XX asirning boshlariga mansub bo'lib, «elektromexanik» texnologiyalar bilan farq qiladi. Uning asosiy vositasi sifatida telegraf va telefonlardan foydalanilgan. Bu bosqichda axborot texnologiyasining maqsadi ham o'zgardi. Unda

asosiy urg'u axborotni tasvirlash shaklidan uning mazmunini shakllantirishga ko'chiriladi.

4 – bosqich. XX asir o'rtalariga to'g'ri kelib, «elektron» texnologiyalar qo'llanilishi bilan belgilanadi. Bu texnologiyaning asosiy vositasi EHM lar va ularning asosida tashkil etiladigan avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot izlash tizimlaridir.

5 – bosqich. XX asirning oxiriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda kompyuter texnologiyalari taraqqiy etdi. Ularning asosiy vositasi turli maqsadlarga mo'ljallangan turli dasturiy vositalarga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlardir. Bu bosqichda kundalik turmush, madaniyat va boshqa sohalarga mo'ljallangan texnik vositalarning o'zgarishi ro'y berdi. Lokal va global kompyuter tarmoqlari ishlatila boshlandi.

1.2-§. Axborot va uning turlari.

Axborot manbalari va iste'molchilarning har xilligi axborot shaklining turli ko'rinishda bo'lishiga olib keladi:

Belgili – turli ishoraviy belgilardan iborat axborotlar. Bular biror voqea- hodisalar haqidagi axborotlarni o'zlatishda foydalaniladi.

Matnli – harf, raqam va belgilar to'plamidan tarkib topgan ma'lum ma'noni anglatuvchi so'zlardan iborat axborot.

Grafik – tasvirlardan iborat bo'lgan tasavvur ko'rinishidagi axborotlar.

Video va audio ko'rinishdagi ma'lumotlar

Axborot nima? Ma'lumki, axborot (lotincha informatio - tuShuntirish, xabar olish bayon etish,) - biror hodisa, kishi faoliyati yoki muayyan bilim haqidagi ma'lumotlar to'plamini ifodalaydigan fanning umumiy tushunchalaridan biridir. Axborot inson sezgi organlari orqali tashqi dunyodan oladigan xabarlar mazmuni va ma'nosidir.

Kundalik hayotda kimningdir manfaatiga mos keluvchi ixtiyoriy ma'lumot yoki xabarni axborot deb atashadi. Masalan,

qandaydir muhim hodisa yoki kimningdir faoliyatiga doir ma'lumotlar. «Xabar bermoq» iborasining ma'nosi «avval noma'lum bo'lgan biror xabarni yetkazishdir.

Axborot — atrof-muhitdagi ob'ektlar, voqealar, ularning parametrlari, xususiyatlari va holati haqidagi ma'lumotlar bo'lib, ularni axborot tizimlari (tirik organizmlar, boshqaruvchi mashinalar va Shu kabilar) qabul qilib, foydalanadilar.

Biror ob'ekt yoki voqea haqidagi bitta axborot ma'lumoti (gazetadagi maqola, e'lon, xat, telegramma, hikoya, chizma, radioeshittirish va Shu kabilar) uni tuShunish, unga qiziqish nuqtai-nazaridan turli toifadagi kishilar uchun turlicha axborot miqdorida yetkaziladi.

Masalan, yapon tilida o'zatilgan ma'lumotning ushbu tilni bilmagan insonga hech qanday qizig'i yo'q. Biroq yapon tilini biladigan kishiga u qimmatli, muhim ma'lumot bo'lishi mumkin. Maxsus belgilar orqali ifodalangan ma'lumot ham bu belgilardan foydalanish qoidalarini bilmagan kishiga yangi ma'lumot bo'la olmaydi. Belgilar qoidasidan foydalanish ma'lum bo'lgandagina, ushbu ma'lumot ma'nosini anglash mumkin.

Axborot ma'lumotning tavsifi emas, u ma'lumot va uning iste'molchisi o'rtasidagi o'zaro munosabatni bildiradi. Iste'molchisiz ma'lumot ma'noga ega emas. Ma'lumot iste'molchi tomonidan o'zlashtirilgandagina axborotga aylanadi.

Axborot turli shakllar va ko'rinishlarda mavjud bo'lishi mumkin:

- Matnlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar ko'rinishida;
- Yorug'lik nuri va tovush signallari ko'rinishida;
- Radioto'lqinlar ko'rinishida;
- Elektr va nerv impulslari ko'rinishida;
- Magnit yozuvlari ko'rinishida;
- Imo-ishora va mimika orqali;
- Hid va ta'm ko'rinishida;
- Avloddan avlodga o'tuvchi irsiy xromosomalar va Shu kabilar ko'rinishida.

Axborot xossalari nuqtai nazaridan qaralayotgan moddiy va

nomoddiy dunyoning predmetlari, jarayonlari, voqealari informatsion ob'ektlar deyiladi.

Axborot qandaydir manbadan qabul qiluvchiga xabar yoki ma'lumot ko'rinishida ular o'rtasidagi aloqa kanali orqali o'zatiladi. Manba xabarni o'zatishtiradi. Ushbu signal aloqa kanali orqali o'zatiladi. Natijada qabul qiluvchida qabul qilingan signal hosil qilinib, u qabul qilingan ma'lumotga aylantirilishi uchun signaldan asliga qaytarish maqsadida dekodlashtiriladi.

Misollar: *Ob-havo prognozi ma'lumotlari axborot qabul qiluvchiga (teletomoshabinga) manbadan - meteorolog-mutaxassisdan aloqa kanali - televideniye signallarini o'zatuvchi apparatura orqali televizorga o'zatiladi.*

Jonli mavjudot o'zining sezgi organlari (ko'zlari, quloqlari, burni, terisi, tili va Shu kabilar) orqali tashqi dunyodan axborot oladi, uni muayyan ketma-ketlikdagi nerv impulslariga aylantiradi, nerv tolalari orqali o'zatishtirib, o'z xotirasida miyaning neyron strukturalari ko'rinishida saqlaydi, impulsni qayta ishlash yoki tahlil qilish natijasida o'z harakatlarini boshqaradi yoki tovush signallari beradi, ya'ni o'z faoliyatda foydalanadi.

Axborotni qayta ishlash - bir xil informatsion ob'ektlarni ba'zi algoritmlarni bajarish asosida boshqa informatsion ob'ektlardan olishdir. Axborotni qayta ishlash axborot ustida bajariladigan asosiy amallardan biri va axborot turli-tuman bo'lishi va uning ko'lamini (hajmini) oshirishning asosiy vositasidir.

Axborot ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- yaratish;
- o'zatishtirish;
- qabul qilish;
- tarqatish;
- qayta ishlash;
- ixchamlashtirish;
- saqlash;
- va boshqalar.

Axborot ustida muayyan amallar bajarishga oid barcha jarayonlar informatsion jarayonlar deyiladi.

Axborotni qayta ishlash vositalari - insoniyat tomonidan yaratilgan turli qurilmalar va tizimlardir, birinchi navbatda axborotni qayta ishlovchi universal mashina - kompyuterdir.

Kompyuterlar axborotni ba'zi algoritmlarni bajarish asosida qayta ishlaydilar. Tirik organizmlar va o'simliklar axborotni o'z sezgi organlari va tizimlari orqali qayta ishlaydilar.

1.3-§. Axborot xossalari.

Informatika sohasining asosiy resursi bu – axborotdir. Axborotning asosiy xossalari quyidagilar:

- ishonchlilik;
- to'liqlik;
- yaroqlilik;
- dolzarblik;
- tuShunarlilik.

Agar axborot ob'ekt haqidagi ma'lumotlarni yoki voqelikni real akslantirsa bunday axborot ishonchli deyiladi Ko'pincha axborot ishonligi axborotning muvofiqligi bilan xarakterlanadi. Axborotning muvofiqligi - ob'ekt, hodisa yoki jarayon haqidagi olingan ma'lumotning ma'lum ma'noda real haqiqatga mosligidir. Ishonchli bo'lmagan axborot uning noto'g'ri talqin qilinishiga yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi.

Ishonchli axborot vaqt o'tishi bilan ishonchli bo'lmagan axborotga aylanishi mumkin, ya'ni vaqt o'tishi bilan u eskirib, voqelikni to'g'ri, ro'yi-rost akslantirmasligi ham mumkin.

Agar axborot tuShunish yoki uning asosida to'g'ri qaror qabul qilish uchun yetarli darajada bo'lsa axborot to'liq deyiladi. To'liq bo'lmagan va haddan ziyod ortiqcha axborot qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi yoki xatoliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Semantik (ma'noli) adekvatlik – ob'ektning uning obraziga (qiyofasiga) muvofiqlik darajasini aniqlaydi. Semantik nuqtai nazar axborotning ma'noli mazmunini hisoblashni ko'zlaydi. Bunda axborot aks ettirgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, ma'nolar bog'liqligi ko'riladi.. Masalan, axborotni kodlar orqali ifodalashni ko'rsatish mumkin.

Sintaktik adekvatlik – axborotning mazmuniga tegmagan holda, uning rasmiy-strukturaviy xarakteristikalarini ifodalaydi. Sintaktik darajadagi axborotni ifodalash usulida axborot elituvchi turi, o‘zlash va qayta ishlash tezligi, ifodalash kodining o‘lchamlari, bu kodlarni o‘zgartirish aniqliligi va ishonchliligi hisobga olinadi. Axborotning mazmuniga ahamiyat berilmaganligi sabali, bunday axborot ma’lumot deb ataladi.

Pragmatik (foydalanuvchanlik) adekvatlik – axborot bilan foydalanuvchining munosabatlarini aks ettiradi, axborotni uning asosida amalga oshiriladigan boshqarish sistemasi maqsadiga muvofiqqligini ifodalaydi. Axborotning pragmatik xususiyatlari faqat axborot (ob’ekt), foydalanuvchi va boshqarish maqsadlarining umumiyligida namoyon bo‘ladi. Adekvatlikning ushbu shakli axborotdan amaliy foylanish bilan bevosita bog‘langan.

Faqat dolzarb axborotgina ahamiyatga ega va u kutilgan natijaga erishish imkonini beradi. Biroq axborotni shoshilib, to‘liq shakllanmagan holda yoki kechiktirilib o‘zlashishi undan unumli foydalanish imkonini bermaydi.

Axborotning qimmatliligi uning qanchalik muhimligi va inson faoliyatgda qo‘llanilib, ijobiy natija olishnishi bilan baholanadi.

Agar qimmatli va dolzarb axborot tuShunarsiz ifodalgan bo‘lsa, u foyda keltirmasligi va qimmatlilik ahamiyatini yo‘qotishi mumkin.

Axborot uning iste’molchisiga tuShunarli bo‘lgan tarzda ifodalanishi kerak.

Axborot iste’molchi tomonidan qulay tarzda tuShunilib, mohiyati anglanishi va undan oqilona foydalanish imkoniga ega bo‘lishi kerak. Biroq, manbalarda, o‘quv darsliklari va qo‘llanmalarda ba’zi axborotlar murakkab tarzda, tuShunib yetish qiyinchilik tug‘diradigan holda, ba’zilarida esa lo‘nda va ravon tilda bayon etiladi.

Biror ob’ekt haqidagi axborot qisqa (ortiqcha belgilarsiz, lo‘nda) yoki keng (ortiqcha belgilar bilan, ko‘p jumlati holda)

bayon etilishi mumkin. Qisqa axborot kam xotira sig'imi talab qilib, undan foydalanish qulay.

Umuman axborotning ikki to'rini alohida ajratib o'tish mumkin: o'zluksiz va o'zluqli (diskret) O'zluksiz axborot - fazo, vaqt; o'zluqli axborot - ma'ro'za, teledastur va hokazolar. Axborot o'lchovlari:

- 1 Kilobayt (Kbayt) = 1024 bayt
- 1 Megabayt (Mbayt) = 1024 Kbayt
- 1 Gigabayt (Gbayt) = 1024 Mbayt

Keyingi paytlarda qayta ishlanadigan axborot hajmi ortib borishi munosabati bilan axborotning katta o'lchov birliklari ham kiritildi: 1 Terabayt (Tbayt) = 1024 Gbayt = 240 bayt,

- 1 Petabayt (Pbayt) = 1024 Tbayt
- 1 Eksabayt (Ebayt) = 1024 Pbayt
- 1 Zettabayt (Zbayt) = 1024 Ebayt
- 1 Yottabayt (Ybayt) = 1024 Zbayt

Belgilar pozitsiyasi sonini bildirsa, uning tarkibi koddagi belgilarning ma'lum bir alomatga ko'ra joylashish tartibini belgilaydi. Ob'yekt uchun uning kodli belgisini berib almashtirish jarayoni kodlashtirish deyiladi.

Kodlashtirish tizimida ikki usuldan foydalaniladi:

- tasnifli kodlashtirish tizimi;
- qayd qiluvchi kodlashtirish tizimi.

Tasnifli kodlashtirish tizimida ob'yektlar avvaldan sinflarga yoki iyerarxik (daraxtsimon) ob'yektlar tizimiga ajratilib belgilab chiqiladi. Qayd qiluvchi kodlashtirish tizimida ob'yektlar avvaldan sinflarga ajratilmaydilar.

Masalan: *Fakultetning barcha talabalari o'quv guruhlariga ajratilib, ularga tartib nomeri beriladi. Har bir guruh ichida har bir talaba alfavit tartibi bo'yicha o'z qayd nomeri beriladi.*

1.4-§. Axborot texnologiyalarining turlari.

Texnologiya soʻzi yunonchadan tarjima qilinganda sanʼat, ustalik, malaka maʼnosini anglatadi. Texnikada texnologiya deganda maʼlum kerakli material mahsulotni hosil qilish uchun usullar, metodlar va vositalar yigʻindisidan foydalanadigan jarayon tushuniladi. Texnologiya obʼyektining dastlabki, boshlangʻich holatini oʻzgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan holatga keltiradi. Agar boshlangʻich homashyo sifatida axborot olinsa, ushbu axborotga ishlov berish natijasida axborot mahsulotinigina olish mumkin. Ushbu holda ham "texnologiya" tushunchasining maʼnosi saqlanib qolinadi. Faqat unga "axborot" soʻzini qoʻshish mumkin. Bu narsa axborotni qayta ishlash natijasida moddiy mahsulotni emas, balki axborotnigina olish mumkinligini aniqlab turadi.

Texnologiyani quyidagicha taʼriflash mumkin. Texnologiya - bu sunʼiy obʼyektlarni yaratishga yoʻnaltirilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerakli jarayonlarni kerakli yoʻnalishda borishini taʼminlash uchun yaratilgan shart sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi. Bu erda tabiiy jarayonlar nafaqat moddaning tarkibi, toʻzilishi va shaklini oʻzgartirish maqsadida, balki axborotni qayta ishlash va yangi axborot hosil qilish maqsadida ham boshqariladi. Shuning uchun axborot texnologiyasini quyidagicha taʼriflash mumkin.

Axborot texnologiyasi - bu axboriy maʼlumotni bir koʻrinishdan ikkinchi, sifat jihatidan yangi koʻrinishga keltirish, axborotni yigʻish, qayta ishlash va oʻzlashning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.

Axborot texnologiyalari axborotlarni yigʻish, saqlash, oʻzlash, qayta ishlash usul va vositalari majmuidir. Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud boʻlib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ichki omillar — bu axborotlarning paydo boʻlishi (yarati-

lishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, o'zlash, saqlash va h.k.

Tashqi omillar — bu axborot texnologiyasining texnik-uskunaviy vositalar orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyasi o'zi uchun asosiy muhit bo'lgan axborot tizimlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki axborot texnologiyasi axborot tizimlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar ustida bajariladigan turli xil murakkablikdagi operatsiyalar, amallar va algoritmlarni bajarishdan iborat bo'lgan tartiblashtirilgan jarayondir.

Hozirda zamonaviy elektron hisoblash qurilmalar va uni dasturiy ta'minotini rivojlanishi bilan bo'g'liq holda axborot texnologiyalari quyidagi turlarga ajratiladi:

Video texnologiya - ma'lumotlarni turli tasvirlash ko'rinishida ifodalaydi.

Multimedia texnologiya - ixtiyoriy ma'lumotlarni kompleks ko'rinishda tasvirlashga asoslangan. Bu texnologiya matnlar, grafiklar, chizmalar, tasvirlar, tovushlar va harakatlarni yagona bir tizimga birlashtirib namoish etadi.

Neyrokompyuterli texnologiyalar - mikroprosessorlar bazasida bir-biriga o'zaro bog'langan maxsus neyrokompontlardan foydalanadi. Bu texnologiya asab katakchalarining hatti-harakatlarini modellashtirishga asoslangan. Neyrotexnologiyalar murakkab masalalarni yechishda sun'iy intellekt metodlarini qo'llashga tayanadi: kredit tavakkalchiliklarini boshqarish, bilimlarni aniqlash, fondlar holatini bashoratlash va boshqalar.

Obyektga yo'naltirilgan texnologiyalar - bir nechta ob'ektlarning hamkorlikda ishlashini ta'minlaydi va loyihalash va dasturlash jarayonlarida kompyuter tizimlarini to'zishda qo'llaniladi. Bu yerda ob'ektlar sifatida foydalanuvchilar, dasturlar, mijozlar, hujjatlar, fayllar, jadvallar va ma'lumotlar bazalarini kiritilish mumkin. Ob'ektga yo'naltirilgan texnologiyalardan

foydalanish natijasida boshqaruv tizimida o'ta tezkor samarali qararlarni qabul qilishga olib keladi.

Bilimlarni boshqarish texnologiyasi - ekspert tizimlarini misol qilib keltirish mumkin.

Internet texnologiyasi - barcha axborot tizimlarini global axborot strukturasiga birlashtirish texnologiyasi.

Bundan tashqari vazifalariga qarab ham axborot texnologiyalarini bir nechta turlarga ajratish mumkin:

Ma'lumotlarga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari. Ular ma'lum algoritmlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov beruvchi masalalarni yechishga mo'ljallangan. Masalan, har bir firmada o'zining xodimlari haqidagi axborotga ishlov beruvchi axborot texnologiyasi albatta bo'lishi kerak.

Boshqarishning axborot texnologiyalari. Ularning maqsadi ish faoliyati qaror qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan insonlarning axborotga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Boshqarishning axborot tizimlari tashkilotning o'tmishi, hozirgi holati va kelajagi haqidagi axborotni ham o'z ichiga oladi.

Ofis (idora) ning axborot texnologiyasi. Avtomatlashtirilgan ofisning yangi zamonaviy axborot texnologiyalari bu - tashkilot ichidagi va tashqi muhit bilan kommunikasion jarayonlarni kompyuter tarmoqlari va axborotlar bilan ishlovchi boshqa yangi zamonaviy vositalar asosida tashkil etish va qo'llab-quvvatlashdan iborat. Buning uchun maxsus dasturiy vositalar ham ishlab chiqilgan. Ulardan biri Microsoft Office dasturlar paketidir. Uning tarkibiga Word matn muharriri, Excel elektron jadvali, PowerPoint taqdimot uchun grafikani tayyorlash dasturi, Microsoft Access ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari kiradi.

Nazorat savollari:

1. Axborot xossalarini tuShuntiring.
2. Axborotning qanday turlari mavjud?
3. Axborotni turlarini sanab bering?
4. Axborotlar ustida qanday amallar bajarish mumkin?

5. Axborotlarni o'lchash uchun qaysi birliklardan foydalaniladi?
6. Axborotlarni kodlashtirish tizimi nima?
7. Haqiqiy sonlarni kompyuter xotirasida tasvirlanishi qanday?
8. Axborot texnologiyasi nima?
9. Axborot texnologiyalarini turlarini izohlab bering?

II BOB. SANOQ SISTEMALARI. AXBOROT TURLARI. TEXNIKA XAVFSIZLIGI.

2.1-§. Sanoq tizimlari.

Sanoq sistemasi berilgan maxsus belgilar (raqamlar) yordamida sonlarni yozish usulidir. Insoniyat faoliyatida **pozitsion** va **nopozitsion** sistemalaridan foydalaniladi.

Odatda kod harflar, raqamlar va ba'zi maxsus belgilardan iborat alfavit asosida yaratiladi. Har bir kod o'zining o'zunligi va tarkibi bilan xarakterlanadi.

Nopozitsion sanoq sistemalarida sondagi raqamning hissasi (ya'ni, uning sonni ifodalash uchun ahamiyati) uning pozitsiyasiga bog'liq emas. Masalan, Rim sanoq sistemasida XXXII (o'ttiz ikki) sonida X raqamining ixtiyoriy pozitsiyadagi hissasi o'nga teng.

Pozitsion sanoq sistemasida sondagi har bir raqam hissasi o'zining pozitsiyasi, ya'ni o'rni bilan bog'liq. Pozitsiyali sanoq tizimidagi har qanday A soni ushbu tizim alifbosidagi a_i koeffitsientlari yig'indisi sifatida hisoblash tizimining S bazasi darajalariga ko'paytirilishi mumkin:

$$\begin{aligned} A_S &= a_n a_{n-1} a_{n-2} \dots a_2 a_1 a_0, a_{-1} a_{-2} \dots a_{-m} = \\ &= a_n * S^n + a_{n-1} * S^{n-1} + a_{n-2} * S^{n-2} + \dots a_2 * S^2 + a_1 * S^1 + a_0 * S^0 + a_{-1} * S^{-1} + a_{-2} * S^{-2} + \dots + a_{-m} * S^{-m}. \end{aligned}$$

Masalan, 757,7 sonida birinchi 7 raqami yo'zliklar soni, ikkinchi 7 raqami birliklar soni va uchinchi 7 raqami 1 ning o'ndan bir hissalarini anglatadi.

757,7 sonining o'zini esa quyidagi hisoblanadigan ifoda orqali belgilash mumkin: $700 + 50 + 7 + 0,7 = 7*10^2 + 7*10^1 + 7*10^0 + 7*10^{-1} = 757,7$.

Pozitsion sanoq sistemasining asosi ushbu sistemada sonlarni ifodalash uchun ishlatiladigan raqamlar va belgilar sonidir.

Kompyuterlarda boshqa sanoq sistemalaridan quyidagi imkoniyatlari bilan farqlanuvchi ikkilik sanoq sistemasidan foydalaniladi:

- uni ishlashini tashkil etish uchun ikki turg'un holatli qurilmalar zarur (tok bor – tok yo'q, magnitlangan yoki magnitlanmagan);
- axborotni ikki holat orqali tasvirlash ishonchli va ta'sirlarga chidamli;
- ikkilikdagi arifmetika boshqalaridan sodda.

Ikkilik sanoq sistemasining asosiy kamchiligi – sonlardagi xona (razryad) larning juda tez ortib ketishidir. O'nlik sanoq sistemasidan ikkilikka va teskari o'tkazishlarni kompyuterning o'zi bajaradi. Lekin kompyuterning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun uning tilini tushunish zarur bo'ladi. Shular sababli sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalari ishlab chiqilgan.

Bu sistemalardagi sonlar o'nlik sanoq sistemasida kabi oson o'qiladi, lekin ikkilik sanoq sistemasidagi sonlardan 3 (sakkizlikda) va 4 (o'n oltilikda) marta kam razryad talab qiladi, chunki $8 = 2^3$ va $16 = 2^4$.

Ikkilik sanoq sistemasida ifodalangan sonlar ustida ham barcha arifmetik amallarni bajarish mumkin. EHM da saqlanadigan eng kichik axborot o'lchov birligi bit deb qabul qilingan bo'lib, bit ikkilik sanoq sistemasidagi 0 va 1 raqami bo'lishi mumkin. Sakkiz bitdan iborat ketma - ketlik bayt deyiladi. Ikki bitlik ketma - ketlikdan foydalanib nechta sonni ifodalash mumkin? Bu sonlar quyidagilar: 00 - 0, 01 - 1, 10 - 2, 11 - 3.

Demak ikki bitdan foydalanib to'rtta sonni ifodalash mumkin. Umuman, n bitdan foydalanib 2ning n darajasidagi sonni ifodalash mumkin.

"Bayt" birligi uchun quyidagi hosilot birliklari mavjud:

$1024 \text{ bayt} = 2 \text{ kb} = 1 \text{ kb (kilobayt)}$

$1024 \text{ kb} = 2 \text{ mb} = 1048576 \text{ bayt} = 1 \text{ mb (megobayt)}$

Matn ko'rinishidagi axborotlarning tashkil etuvchilari harflar, tinish belgilari, riyoziyot belgilari turli maxsus belgilardir.

Keyingi paytlarda axborotlarning xaddan tashqari ko'payishi sababli, ularni insonning jismoniy imkoniyatlari doirasida hal etilishi mumkin bo'lmay qoldi. Bunday muammolarni hal etish maqsadida yaratilgan zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlari, ayniqsa shaxsiy komp'yuterlar insonning eng yaqin yordamchisiga aylandi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va tizimlaridan foydalanish orqali axborotlarni qayta ishlash Mehnat unumdorligini oshirishning muxim omillaridan biri bo'lib qoldi.

«Axborot» so'zi kutilayotgan yoki bo'lib o'tgan voqea, xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bildiradi.

Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil axborotlar bilan ish yuritadi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlangan. Masalan: falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, ob'ektiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi.

Kibernetika, informatika fanida axborot voqea - xodisa to'g'risidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezoni sifatida qo'llaniladi.

Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo'lavermaydi. Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - xodisa to'g'risidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim. Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- texnik axborot;
- agrobiologik axborot;
- siyosiy axborot;
- xuquqiy axborot;
- iqtisodiy axborot va boshqalar.

Axborotning turlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib

boradi. Bu axborotlar ichida iqtisodiy axborot asosiy hisoblanib, ular xajmining 80% ni tashkil qiladi. Barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Uzluksiz xosil bo'lishi.
- Diskret harakterdaligi.

Yig'ish, uzatish, qayta ishlash va boshqa amallarni bajarish mumkinligi. Xozirgi paytda axborotni qanday tushunish haqida quyidagicha nuqtai nazarlar yuzaga kelgan:

Axborot - halq xujaligining barcha tarmoqlari iste'mol etuvchi zahira bo'lib, energetika yoki foydali qazilmalar zahiralarini kabi ahamiyatga ega. Jamiyat rivojlangani sari iqtisodiyot, fan, texnika, texnologiya, madaniyat, san'at, tibbiyot kabilarning turli masalalari haqidagi mavjud ma'lumotlar, axborot zahiralaridan foydalanishni tashkilotish intellektual va iqtisodiy hayotga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda.

Axborot - fan va texnika rivojlanishi natijalari haqidagi fan-texnika ma'lumotlari, bilimlari yig'indisidir. Boshqacha aytganda, axborot, mazkur talqinga binoan, fan-texnika faoliyati axborot xizmati tizimining ma'xsul va "hom-ashyo"sidir.

Axborot - axborot xizmati tizimlarida fan-texnika faoliyati va turli sohalarda kadrlar tayyorlashni shakllantiruvchi mahsulotlar yig'indisidir, ya'ni axborot zahiralarini ishlab chiqarish va iste'mol etish faqat jamiyatning intellektual hayoti bilan cheklanadi.

Ko'rinib turibdiki, bu talqinlardan birinchisi eng to'liq, axborot jarayonlari ko'p qirraligini qamrab oluvchi tushunchani bermoqda. CHindan ham, axborot jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalariga kirib bormoqda.

2.4-§. Axborotning tasniflanishi.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni ma'lumotlarning ulkan oqimida zarur axborotni ko'rib chiqish, tahlil etish va oqilona foydalanishni ko'zda tutadi. Axborot tanlash ancha Mehnat talab qiladigan, demakki, qimmat turadigan jarayon. Shuning

uchun uni tasniflash zarur. Tasnif tizimini axborotga qullash uchun quyidagicha yondashish zarur:

- axborotni tahlil qilish tasnif va qiyoslash vositalari asosida bo'lishi kerak;
- tasnif asosiga turli omil va koordinat tizimlari quyilishi lozim;
- ayrim omil va koordinat tizimlari u yoki bu farqlarga asoslanishi mumkin, masalan aniq bir bozor va tovarlarni bilish zarur;
- tahlilning moxiyati va teranligi avvalo berilgan axborot turi va xajmiga bog'liq.

Axborotni turli belgilarga qarab tasniflash mumkin.

1. Axborot olish usuli bo'yicha quyidagilarga ko'ra tasniflanadi:
 - a. tadqiqot davomida bevosita so'rov varaqalari yordamida, telefon suzlashuvlari va shaxsiy suhbat yo'li bilan olib borilishi mumkin;
 - b. davriy va maxsus adabiyotlarni o'rganish orqali;
 - c. ma'lumotlarni telefaks yoki tayyorlangan magnitli tashuvchilar vositasida uzatish. Odatda u axborot maxsus axborot agentliklari so'rovi bo'yicha amalga oshiriladi. Bunday axborot u yoki bu muammo yoki muhitga muvofiqligi, shuningdek tulaqonligi va ishonarliligi bilan ajralib turadi. Ma'lumot va xabarlarini optik disklar (kompakt disklar)da uzatish so'ngi yillarda keng ommalashdi. Ularda nafaqat matn, balki istalgan boshqa video va audio axborot yozuv ham olib boriladi.
2. Qayta ishlash usuliga ko'ra ma'lumotlar birlamchi, ikkilamchi, hosila, mantiqiy hulosa va yakunlarga bo'linadi. Jumladan boshlangich axborot odatda voqelikda yuz beruvchi jarayonlarni kuzatish natijasida shakllanadi va qayta ishlanmasdan qayd etiladi. Ikkilamchi axborot uz asosiga ko'ra birlamchi ma'lumotlarga tayanadi. Hosila axborot dastlabki, ikkilamchi yoki boshqa axborotni qayta ishlash natijasidir. Shu bilan birga, tadqiqotlarda boshlangich axborot sifatida rejalashtirish, hisob va tahlil vazifalarini hal etish

qulay va keng qullaniladi.

Masalan. Ko'p miqdorda nashr etilgan kitoblar, qo'llanmalar, gazeta va ro'znomalar. Axborot shaklining grafik ko'rinishi turmush hayotimizda muhim ahamiyatga va katta axborotlar massiviga ega bo'lgan tabiat ko'rinishlari, foto tasvirlar, rasmlar, chizmalar, sxemalarni misol qilishimiz mumkin.

Axborotning na bir og'irligi, na bir geometrik o'lchami va xech qanday ximik yoki fizik xususiyatlar mavjud emas. Lekin axborotni mavjud bo'lishi, saklanishi, uzatilishi uchun biror bir material-ob'yekt bo'lishi zarur. Bunday ob'yektlar juda ko'p bo'lib va ularning soni taraqqiyot natijasida o'sib bormoqda. Xozirgi kunda axborotlarni asosiy tashuvchilari quyidagilardir.

2.3-§.Axborotni uzatish. Axborotni saqlash.

Axborotni uzatishda qadimdan biz bilgan va bilmagan holatda havo qullaniladi. havoning tebranishi natijasida ko'p asrlardan buyon nutq uzatilib kelinmoqda. Bundan tashqari xavoning tebranishi natijasida bizni o'rab turgan atrof muhitdagi ovozlar-qushlarning sayrashi., dengizning shovqini, momoqaldiroqning gumburlashi, ishlayotgan mashina va apparatlarning ovozlari va boshqa ovozlar uzatiladi.

Havoning tebranishiga o'xshash holda suvning tebranishi orqali ham katta axborotlar uzatiladi.

Masalan. Suv satxlarini tekshiruvchilar va baliqlarni izlovchi dengizchilar o'rtasida axborotlarni uzatilishini misol qilishimiz mumkin.

Odamzod har daqiqa sezgi a'zolari orqali atrof muhitdan axborot yig'ib fikr qilishi va hayotiy muammolarni hal qilish choralarini o'ylab topib amalga oshirishi bilan hayot kechirishini hammamiz bilamiz.

Axborot inson nutqida, kitoblardagi matnlarda, ziyolilar ixtirosida, mussavir tasvirida, turli o'lchov asboblarda va boshqalarda mavjuddir.

ning hayoti to'grisidagi axborotlarni yig'adi va bu axborotlar asosida o'simliklarni tabiatdagi ro'lini, ularning ko'payishini, insonlar uchun kerakli tomonlarini aniqlaydi.

Ikkinchi bir misol. Avtobus xarakatlanish davomida motorning ovozi boshqacha chiqmoqda. Avtobusdagi yulovchilar uchun bu uncha ahamiyatsiz bo'lsa, malakali xaydovchi uchun esa bu axborot hisoblanib va bunga asosan, ya'ni motordan chiqayotgan ovozga qarab motorni xolatini aniqlaydi.

Demak axborot degan savolga qisqacha javob berishimiz uchun ikkita ob'yektga manba va istemolchi orasidagi bog'lanishga murojaat qilishimiz zarur ekan. Axborot manbaiga tabiiy ob'yektlar-sayeralar, yulduzlar, insonlar, xayvonlar, o'simliklar, maydon, o'rmonlar - fan va texnikani rivojlantirishdagi ilmiy tajribalar, mashinalar, texnologik jarayonlar kiradi.

Axborot istemolchilar ro'yxati ham katta bo'lib unga, insonlar, xayvonlar, o'simliklar, turli hil o'lchov asboblari kiradi. SHuning uchun axborot keng doiradagi tushuncha bo'lib, jamiki ob'yektlar, mavjudodlar, jarayonlar xaqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Axborot manbalari va istemolchilarining har hilligi axborot shaklining turli ko'rishda bo'lishiga olib keldi: belgili, matnli va grafik.

Axborotning belgili ko'rinishida asosan belgilar - harf, belgi, raqam va boshqalar qo'llanilib, voqia-hodisalar xaqidagi signal-larni uzatishda foydalaniladi.

Masalan. Svetoforning yashil chirog'i yo'lovchi va haydovchilarning harakatiga ruxsat berilganligini, sariq chiroq kucha harakatini o'zgarishi va qizil chiroq esa xarakatlanish taqiqlanishi haqidagi ma'lumotlarni beradi.

Matnli axborot juda murakkab axborot shakli bo'lib, bu shaklda ham harflar, raqamlar, matematik belgilar qullaniladi. Faqatgina bu belgilar yakka holda emas balki ularning bir necha tuzilmalaridan, tartibli kelishidan tashkil topadi.

Belgi va harflarning o'zaro bog'lanishida, hamda inson nutqi-ning matn ko'rinishida aks ettirilishida matn axborotini ishlatish

Ikkilik sanoq sistemasida	O'nlilik sanoq sistemasida
0	0
1	1
10	2 (2ning 1-darajasi)
11	3
100	4 (2ning 2-darajasi)
101	5
110	6
111	7
1000	8 (2ning 3-darajasi)
1001	9

Sanoq sistemalarini tashkil etilishi deyarli bir xil. Biror p soni – sanoq sistemi asosi sifatida qabul qilinib, ixtiyoriy N soni quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$N = a_n p^n + a_{n-1} p^{n-1} + \dots + a_1 p^1 + a_0 p^0 + a_{-1} p^{-1} + \dots + a_{-m} p^{-m}$$

Ko'phad ko'rinishida ifodalangan Shu sonni

$$(a_n a_{n-1} \dots a_1 a_0 a_{-1} \dots a_{-m})_p$$

kabi yozish ham mumkin (n va m – sonning butun va kasr qismi xonalari (razryadlari) soni).

Sonning bu kabi ifodalanishida har bir raqam qiymati o'z o'rniga qarab turli xil bo'ladi. Masalan, o'nlilik sanoq sistemasida 98327 sonida 7 – raqami birlikni, 2 – o'nlilikni, 3 – yuzlikni, 8 – minglikni, 9 – o'n minglikni ifodalaydi (bu hol faqat o'nlilik sanoq sistemasida):

$$98327 = 9 \cdot 10^4 + 8 \cdot 10^3 + 3 \cdot 10^2 + 2 \cdot 10^1 + 7 \cdot 10^0.$$

Biror boshqa p – asosli sanoq sistemasida $a_0, a_1, a_2 \dots$ raqamlar $a_0, a_1 p, a_2 p^2, \dots$ qiymatlarni bildiradi.

Razryadlar 3 2 1 0 -1

Son **1 0 1 1, 1₂** $= 1 \times 2^3 + 0 \times 2^2 + 1 \times 2^1 + 1 \times 2^0 + 1 \times 2^{-1}$

Razryadlar 2 1 0 -1 -2

Son **7 5 6, 4 1₈** $= 7 \times 8^2 + 5 \times 8^1 + 6 \times 8^0 + 4 \times 8^{-1} + 1 \times 8^{-2}$

Dunday ko'rinishda tuzilgan sanoq sistemalarini pozitsiyali sanoq sistemalari deyiladi. Ma'lumki, sanoq sistemasidagi

sifatida foydalaniladi. Axborot tushunchasi ma'lumot tushunchasi bilan uzviy bog'langan, lekin har qanday ma'lumot axborot bo'lavermaydi. Masalan: olma desak, bir necha xil ma'noni tushunish mumkin: qizil olma deganda, mevaning ma'lum bir rangi tushuniladi, demak barcha ma'lumotlar axborotga aylanishi uchun voqea - xodisa to'g'risidagi butun xususiyatlarni ifodalashi lozim. Hozirgi kunda barcha axborotlarni nisbiy holda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- texnik axborot;
- agrobiologik axborot;
- siyosiy axborot;
- xuquqiy axborot;
- iqtisodiy axborot va boshqalar.

Axborotning turlari o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldirib boradi. Bu axborotlar ichida iqtisodiy axborot asosiy hisoblanib, ular xajmining 80% ni tashkil qiladi. Barcha axborotlar quyidagi xususiyatlarga ega:

- Uzluksiz xosil bo'lishi.
- Harf raqamlarda ifodalanishi.
- Diskret harakterdaligi.

Yer yuzida jonli mavjudodlarning paydo bo'lishi bilan birgalikda ularning taraqqiyoti, hamda atrof muhit to'g'risidagi, voqea xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish va ular to'g'risida axborot olish shu axborotlar asosida yashash sharoitlarini belgilash, rivojlanish taraqqiyotini anglash katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari vaqt utishi bilan birgalikda tabiatni insonlar tomonidan o'rganish davomida bu axborotlarga yaratilayotgan va ishlatilayotgan mashinalar, apparatlar, o'lchov asboblari, texnologik jarayonlar xaqidagi axborotlar qo'shilib bordi.

Axborot odamlar o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlar hisoblanib, keyingi vaqtda ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarish uchun, hamda yashash sharoitlarini, iqtisodiy taraqqiyot darajasini belgilashda katta ahamiyatga ega bo'lib qoldi.

Masalan. Biologik o'simliklarni o'rganish orqali o'simliklar-

2 - Misol. Quyidagi son 78 ni 8 lik sanoq sistemasiga o'tkazing

Natija: $78 = (116)$

3-Misol. Quyidagi son 399 ni 16 lik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Natija: $399 = (18F)$

Ikkilik sanoq sistemasida amallar bajarish

Ikkilik sanoq sistemasida 2 ta raqam: 0 va 1 mavjud. O'nlik, sakkizlik sanoq sistemasidagi sonlar ikkilik sanoq sistemasida quyidagicha ifodalanadi:

O'nlik s/s. son	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Sakkizlik s/s. son	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13
Ikkilik s/s. son	10	11	100	101	110	111	1000	1001	1010	1011

Ikkilik sanoq sistemasidagi sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarishga oid misollar:

1-misol. $10011 + 11001$	2-misol. $1101101,001 + 1000101,001$
Javob: 101100	Javob: 10110010,010
5-misol. 110011×101	6- misol. $101,11 \times 11,01$
Javob: 11111111	Javob: 10010,1011

2.2-§. Axborot xaqida tushuncha, uning turlari, xususiyatlari.

«Axborot» so'zi kutilayotgan yoki bo'lib o'tgan voqea, xodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni bildiradi. Kundalik turmushda har bir mutaxassis turli xil axborotlar bilan ish yuritadi. Axborot tushunchasi bir qancha fanlarda turlicha izohlangan. Masalan: falsafada axborot inson ongiga ta'sir etib, ob'ektiv reallikni aks ettiruvchi va harakatlantiruvchi kategoriya sifatida ishlatiladi.

Kibernetika, informatika fanida axborot voqea - xodisa to'g'risidagi bilimlarni oshirish yoki noaniqlikni kamaytirish mezonini sifatida qo'llaniladi. Kompyuterlarni ishlatish faoliyatida esa axborotdan boshqarish funksiyalarini amalga oshiruvchi ob'ekt

raqamlar tartiblangan bo'ladi. Raqamni surish deganda uni sonlar alifbosida o'zidan keyin kelgan raqamga almashtirish tuShuniladi. Masalan, 1ni surishda 2ga, 2ni surishda 3ga, va hokazo, almashtiriladi. Eng katta raqamni surish (masalan, o'nlik sanoq sistemasidagi 9ni) deganda 0 ga almashtirish tuShuniladi. Ikkilik sanoq sistemasida 0 ni surishda 1ga, 1ni surishda 0 ga almashtiriladi.

*Pozitsiyali sanoq sistemasida **butun sonlarni** quyidagi **qonuniyat asosida hosil qilinadi:** keyingi son oldingi sonning o'ngdagi oxirgi raqamini surish orqali hosil qilinadi; agar surishda biror raqam 0 ga aylansa, u holda bu raqamdan chapda turgan raqam suriladi.*

Shu qonuniyatdan foydalanib, birinchi 10 ta butun sonni hosil qilamiz:

Ikkilik sanoq sistemasida : 0, 1, 10, 11, 100, 101, 110, 111, 1000, 1001;

Uchlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 10, 11, 12, 20, 21, 22, 100;

Beshlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 3, 4, 10, 11, 12, 13, 14;

Sakkizlik sanoq sistemasida : 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 10, 11.

Pozitsion sanoq sistemasi o'zining qulayligi bilan hayotda keng qo'llanilmoqda. Boshqa usulda to'ziladigan sanoq sistemalari ham mavjud. Ular pozitsiyaga bog'liq bo'lmagan sanoq sistemalari deyiladi. Masalan Rim raqamlari. Mazkur sistemada maxsus belgilar to'plami kiritilgan bo'lib, ixtiyoriy son Shu belgilar ketma-ketligidan iborat bo'ladi.

Rim sanoq sistemasida

Bir (1)	I belgi bilan;
Besh(5)	V belgi bilan;
O'n (10)	X belgi bilan;
Ellik(50)	L belgi bilan;
Yo'z (100)	C belgi bilan;
Besh yo'z (500)	D belgi bilan;
Ming (1000)	M bilan belgilanadi.

Bu belgilar va ularning kombinatsiyasi yordamida turli sonlarni hosil qilinadi. Masalan, 1 dan 3 gacha - I, II, III kabi, to'rt (4) - IV , 5 - V tarzida ifodalanadi. Bu yerda 4 sonini yozish

uchun 5 sonidan 1 sonini ayirib yoziladi, ya'ni I belgi V dan oldinga qo'yilsa ayirish ma'nosini, agar keyinga qo'yilsa qo'shishni anglatadi. Umumiy holda: 6 – VI, 7 – VII, 400 – CD, 600 – DC ko'rinishda ifodalanadi.

Rim sanoq sistemasida yozilgan sonlarni o'nlik sanoq sistemasiga quyidagicha o'tkazish mumkin:

VI → V ≥ I → 5 + 1 = 6	XIX → X + (I ≥ X)? → 10 + (10-1) = 19
IV → (I ≥ V)? → 5 - 1 = 4	XCIX → (X ≥ C)? + (I ≥ X)? → (100-10) + (10-1) = 99
	MCMLXIII → M+(C ≥ M)?+L+X+I+I+I → 1000+(1000-100)+50+1+1+1 = 1963.

O'quvchi bajarishi kerak

1. Sanoq sistemalarida amallar bajarish.
 2. Ikkilik sanoq sistemasida amallar bajarish.
- 2 lik sanoq sistemasi (0 va 1) - sonlardan iborat bo'ladi.
- 2 lik sanoq sistemasida qo'shish amali quyidagicha bajariladi.
- Masalan A=1011011101 ga teng, V=111100101 bo'lsa u holda A va V sonlarini yig'indisi quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{array}{r}
 + A=1011011101 \\
 \underline{V=111100101} \\
 C=10011000010
 \end{array}$$

- 2 lik sanoq sistemasida ayirish amali quyidagicha bajariladi.
- Masalan: A=1011, 11001 ga teng, V=110, 011111 bo'lsa u holda A va V sonlarini ayirmasi quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{array}{r}
 -A=1011,11001 \\
 \underline{B=110,01111} \\
 C=101,01010
 \end{array}$$

- 2 lik sanoq sistemasida ko'paytirish amali quyidagicha bo'ladi. Masalan A=11,11 ga teng V=111 bo'lsa, u holda A va B sonlarini ko'paytmasi quyidagicha bo'ladi.

$$\begin{array}{r}
 A=11,11 \\
 * \underline{B=111} \\
 1111
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1111 \\ \underline{1111} \\ 11010,01 \end{array}$$

2 lik sanoq sistemasida bo'lish quyidagicha bajariladi. Masalan A=1000 ga teng, B=100 teng bo'lsin u holda A va B sonlarini bo'linmasi quyidagicha bo'ladi.

$$A = 1000$$

$$\underline{B = 100}$$

$$C = 10$$

8 lik sanoq sistemasida = (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7) gacha.

10 lik sanoq sistemasida = (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) gacha.

16 lik sanoq sistemasida = (0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) gacha sonlar va 10 dan 15 gacha lotin xarflarida (A, B, C, D, E, F) ifodalanadi.

Belgilarning EHMda kodlanishi

Yagona sistemadagi elektron hisoblash mashinalarida 4 ta kod mavjud.

1. Kod KOI - 7 (7 - bitli axborotlarni almashtiruvchi kod)
2. Kod KOI - 8 (8 - bitli axborotlarni almashtiruvchi kod)
3. Kod DKOI - (ikkilik axborotni almashtiruvchi kod)
4. Kod KPK - 12 (perfokartali kod)

Sanoq sistemalarida amallar bajarish

Bir sanoq sistemasidan boshqa sanoq sistemasiga o'tkazish

Butun sonni bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tkazish uchun berilgan sonni o'tilayotgan sanoq sistemasining asosiga bo'lib borish kerak. Bo'lish jarayoni, bo'lishdan hosil bo'ladigan sonning butun qismi 0 ga teng bo'lguncha davom ettiriladi.

Yangi sanoq sistemasidagi son bo'lishdan hosil bo'ladigan qoldiqlarni ketma-ket yozishdan hosil bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, barcha amallar o'nlik sanoq sistemasida bajariladi.

1 - Misol. Quyidagi 64 sonini ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

$$\text{Natija: } 64 = (1000000)$$

muvofigligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, ko'zatuv ob'ektini (kasallik) sezilarli murakkabligi ya'ni ba'zida shifokor verbal shaklda ham tashxis qo'yish jarayonini yoritib bera olmasligi keltirish mumkin. Tashxis qo'yish va davolash jarayonida olingan tibbiy ma'lumotlarni interpretatsiya qilish neyronli tarmoqlarning mavhum bir yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Neyron tarmoqlar yordamida yechiladigi ko'pgina masalalar hozirda universal zo'r tarmoq yaratish imkonini bermaganligi sababli, turli algoritimlar yordamida ishlaydigan maxsus neyron tarmoqlarini yaratishga majburlamoqdi. Neyron tarmoqlarni tibbiy tashxis qo'yish masalalarini yechishdagi asosiy imkoniyati bu: paydo bo'ladigan masalalarini aniq bir formadagi matematik model va statistik usullardan foydalanish uchun aniqlikka tekshirish imkonini yo'qligi; makon o'lchamidan variantlarsiz sintez qilish metodi, neyron tarmoqlar o'lchami va belgilari va boshqalardir.

Lekin tibbiy tashxis qo'yish masalalarini yechishda neyron tarmoqlaridan foydalanish bir qator qiyinchiliklarga ham ega. Bunga tarmoqni sozlashda tarmoqqa nisbatan juda katta tanlashlar bajarilishi kerakligi, matematik qurilmani sonli o'zgariuvchilarga qaratilganligini keltirish mumkin.

Kompyuter o'zi nima? Kompyuter bu insoniyatning eng ajoyib kashfiyotlaridan biridir. Hozirgi kunda kompyuter hayotimizning barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Agar boshida shaxsiy kompyuter asosan ma'lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlash uchun foydalangan bo'lsa, hozirgi kunda esa kompyuterlar audio, video va chizmachilik ma'lumotlari bilan ishlash uchun keng foydalanadi. Kelajakni uningsiz tassavur qilish mumkin emas.

Mamlakatimiz milliy iqtisodining hech bir tarmog'i samarali va mo'tadil tashkil qilingan axborot infrato'zilmasisiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Hozirgi kunda milliy axborot resurslari har bir davlatning iqtisodiy va harbiy salohiyatini tashkil qiluvchi omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu resursdan samarali foydalanish mamlakat xavfsizligini va demokratik axborotlashgan

- jarayonida olingan ma'lumotlar kiritiladi. Shu munosabat bilan boshlang'ich va hosila axborotni uning yuzaga kelishi muhiti va foydalanish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish lozim.
3. Tadqiqot ob'yekti nuqtai nazaridan axborot eng avvalo tashqi makromuhit ta'sirini hisobga olgan holda ma'lumotlar bazasini yaratish va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banklaridan foydalanish uchun ancha asoslangan yunalishni tanlash maqsadida bozor extieji va talablarini o'rganishga yunaltilgan.
 4. Funktsional vazifasiga ko'ra axborotni quyidagicha tasniflash mumkin:
 - a. yangi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishda bozorda firmaning moliyaviy va iqtisodiy axvoli qanday bo'lishini ochib beruvchi axborot;
 - b. bozorning aniq segmentida raqobatchilar xolatini ifodalovchi axborot.
 - c. amalda erishilganiga qaraganda kuzlangan natijadan chetga chiqishni aniqlash bo'yicha axborot (chetga chiqish sabablarini belgilash).

Bu uchchala turlar bab-baravar muxim, zero ulardan birgalikda foydalanishgina firma vazifalarini samarali hal etishni ta'minlaydi. Axborotning birinchi turi - prognozlash va rejalashtirish funksiyasi bilan; ikkinchisi - hisob-kitob funksiyasi bilan;uchinchisi - nazorat va tahlil funksiyalari bilan boglikdir.

5. Vazifasiga ko'ra axborot ma'lumotnoma, tavsiyanoma, me'yoriy va signalli turlariga bo'linadi.
 - a. **Ma'lumotnoma axborot** ko'proq tanishtiruvchi xususiyatga ega, ob'yektlarning qancha barqarorligi belgilarini tavsiflaydi va ma'lumotnomalar (spravochniklar) tizimi shaklida namoyon bo'ladi. Xorijiy ma'lumotnoma axborotini avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki orqali olish mumkin, ularning soni yildan-yilga uzluksiz ko'payib bormoqda.

- b. **Tavsiyanoma axborot** uz navbatida bosma nashrlarda e'lon kilingan va tijorat ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar tahliliga asoslangan maxsus tadqiqotlarni o'tkazish natijalariga ko'ra shakllanadi.
 - c. **Me'yoriy axborot** asosan ishlab chiqarish sohasida shakllanadi va foydalaniladi. U ishlab chiqarishning turli elementlari rejali, miqdoriy o'lchovini tavsiflovchi ilmiy va texnik asoslangan me'yorlar tizimini aks ettiradi.
 - d. **Signalli axborot** muhitdagi ob'yektlar faktik xolatining rejasidan chetga chiqishi paydo bo'lganda yuzaga keladi. CHetga chiqish sabablari aniqlangandan sung ularni bartaraf etish tadbirlari ko'riladi.
6. Taqdim etish usuliga ko'ra axborot matn, jadval, matrisa, grafik va dinamik qatorlarga bo'linadi. Matn axboroti eng ko'p rasmiylashtirilgandir, shu bois uni qayta ishlash uchun xozirgi paytda gipermatn dastur tizimi ko'rinishida maxsus dasturiy vositalar qo'llanilmoqda. Bunday tizimlar matn hujjatlar ma'lumot bazasini yaratish, yuritish va foydalanish uchun muljallangan.
7. Axborot o'zining barqarorligiga ko'ra o'zgaruvchan, shartli - doimiy va doimiyga bo'linadi. O'zgaruvchan axborot ob'yektlar ishlashining miqdoriy va sifat xususiyatlarini aks ettiradi. Shartli-doimiy va doimiy axborotlar muhitning doimiy o'lchamini aks ettiradi, shu bois ular uzoq vaqt mobaynida o'zgarmas bo'lib qoladi.

2.5-§. Texnika havfsizligi.

Texnika havfsizligi - mehnat muhofazasi bo'limlaridan biri; i.zchdagi jarayonlarda vujudga keladigan xavfli omillarning ishlovchilarga zararli ta'siri oldini olishga doir tashkiliy va texnik tadbirlar qamda vositalar majmui. Ularni yaratish va ichiqo'llash ishlari belgilangan tartibda tasdiqlangan me'yoriy texnik hujjatlar (standartlar, qoidalar, me'yorlar, instruksiyalar) asosida amalga

usullarini o'zichiga oladi. Tibbiy ta'minotga bir qator metodlar ya'ni o'lchanadigan fiziologik parametrlar va ularni o'lchash usullari, bemorga ta'sir etuvchi usullar va ruxsat etilgan ta'sir chegaralari kiradi.

Qurilmali ta'minot deyilganda tizimni tibbiy-biologik mal'umotlarni olish, davolash ta'sirini ko'rsatish va hisoblash texnikasi vositalarini texnik qismlari tuShuniladi.

Dasturiy ta'minotga butun tizimni ishlashini ta'minlovchi tibbiy-biologik axborotlarni matematik qayta ishlash usullari, algoritmlar va dasturlar kiradi.

3.4-§. Tibbiy diagnostika.

Tibbiyotda axborot tizimlarini joriy qilish va ishlab chiqish juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shaxsiy kompyuterlarni tibbiy massasalarda qo'llanilishini tahlil qilish Shuni ko'rsatadiki, asosan kompyuterlar matnli hujjatlarni yuritishda, saqlash va ma'lumotlar bazasini qayta ishlash, statistikada ishlatilmoqda. Bir qism kompyuterlar tashxis qo'yish va davolash qurilmalari bilan birgalikda ishlatilmoqda. Bu sohalarni ko'pchiligi kompyuterlarni ishlatishda standart matn muharriri dasutlari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va hokazolarni qo'llab kelmoqda. Shuning uchun hozirda zamonaviy muqobil aniq tashxis qo'yish va samarali davolash usullarni beruvchi tashkiliy-texnik axborot tizimlarini yaratish dolzarb masalalardan biridir.

Tibbiyotdagi tashxis qo'yish masalasini xuddi kasallik belgilari (kirish ma'lumotlari) va tashxislar (chiqish ma'lumotlari) orasidagi bog'liqliklar sifatida qarash mumkin. Muqobil aniq tashxis qo'yish imkonini beruvchi tizimlarni yaratishda sun'iy intellekt usullaridan foydalanishni talab etadi. Tibbiy tashxis qo'yishda foydalaniladigan ma'lumotlarni tahlil qilishda ular bir qator o'ziga xosliklarni ya'ni axborotlarni sifat xarakteri, ma'lumotlarni tashlab ketish, oz miqdordagi ko'zatishlarni ko'p hollarda qo'llanilishi bunday usuldan foydalanish maqsadga

xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar tibbiyot xodimlariga axborot ko'magini besh.

- yagona hududiy axborot maydonini tashkil etuvchi kompyuterlashgan tibbiyot telekommunikatsiya tarmoqlari
4. Respublika sog'liqni saqlash vazirligi axborot tizimi.

3.3-§. Tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlar.

Maxsus tibbiyot axborot tizimlarini muhim turlaridan biri bu tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlar hisoblanadi. Hozirgi kunda tibbiyotni axborotlashtirish yo'nalishlaridan biri bu tibbiy qurilmalarni kompyuterlashtirish hisoblanadi. Kompyuterlarni turli o'lchov asboblari va boshqarish qurilmalari bilan birgalikda ishlatilishi, tibbiy amaliyotda bemorlar holati haqida ma'lumot yig'ish va real vaqt oralig'ida ma'lumotlarni qayta ishlash orqali uni holatini boshqarishni avtomatlashtirishni yangi effektiv usullarini yaratish imkonini bermoqda. Bu jarayon, tekshirishlarni qurilmali usullari va intensiv terapiyani yanada sifatli darajaga ko'tarish imkonini beruvchi tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlar yaratilishiga olib keldi. Bunday tizimlarni o'ziga xos bo'lgan jihatlaridan biri bu – tekshirish ob'ektlari bilan bilvosita birgalikda aniq vaqtlar oralig'ida ishlashidir. Ular juda murakkab dasturiy-qurilmali jamlanmalardan iborat. Tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlar bilan ishlashda hisoblash qurilmalaridan tashqari maxsus tibbiy qurilmalar, asboblari, texnikalar va mexanizimlar, aloqa vositalari ham kerak bo'ladi.

Bunda tizimlarga eng oddiy misol sifatida operatsiyalar jarayonida bemorlarni holatini monitoring qilish tizimlari, kompyuter tomografiyasi, UTT, turli laboratoriya tahlillarini bajaruvchi qurilmalarni keltirish mumkin.

Tibbiy qurilmali kompyuterlashgan tizimlarni uchta asosiy qismlarga ajratish mumkin: tibbiy, qurilmali va dasturiy ta'minot.

Bunda tibbiy ta'minot tanlangan tibbiy doiradagi masalalarni tizim qurilma va dasturiy qismlari bilan birgalikda yechish

oshiriladi. Tashkiliy tadbirlar: ishchilarga xavfsiz va zararsiz ish usullari to'g'risida yo'l yo'riqlar berish, ichki sanitariyasi va mehnat gigiyenasi asoslarini o'rgatish; mehnat qilish va dam olish qonun qoidalarini ishlab chiqish va ichiga tatbiq qilish.

Texnik tadbirlar ma'lum me'yorlar va qoidalarga asoslanadi. Bunda insonning ruhiy, anatomik, fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. Masalan, mashinaning boshqarish organlarini inson uchun qulay yerga joylashtirish, ish vaqtida zararli chang, gaz chiqmasligini ta'minlash zarur, xavfli ta'sirlardan himoya qilish uchun to'siqlar qilinadi, ogohlantiruvchi belgilar va plakatlari osib qo'yiladi. Ko'pincha ishlayotgan mashinalarning o'zellari bilan bog'liq qurilmalar (elektron qurilmalar, fotoelement, avtomatik saqlagich) dan foydalaniladi. Bularga saqlagich klapanlari, vklyuchatellar, eruvchan saqlagichlar, shtiftlar va boshqa kiradi. Xavfli, zararli ishlarni bajarishda jarayonlarni o'zoqdan turib boshqarish usuli yaxshi samara beradi. Jihozlarni yurgizib yuborishdan oldin ularning ishi tekshiriladi hamda sinaladi. Juda xavfli jihozlar (bosim ostida ishlaydigan idishlar, yuk ko'tarish mashinalari) davlat inspeksiyasi nazorati ostida bo'ladi, namlik, havoning tozaligi, shovqinlar, nurlanish ta'siri va boshqa doimo nazorat qilinadi. Xavfsizlik texnikasining muayyan sohalarida ishlaydigan kishilar qoidalarga muvofiq shaxsiy himoya vositalari (kiyim-bosh, poyabzal, ehtiyot belbog'i, ko'zoynak va boshqalar)dan foydalanadi. Har bir korxonada xavfsizlik texnikasi uchun ma'muriyat javobgar hisoblanadi.

O'zbekistonda Xavfsizlik texnikasi nuqtai nazaridan eng xavfli va ma'suliyatli korxonalar — paxtani dastlabki ishlash zavodlari, to'qimachilik korxonalari, teri oshlash korxonalari va boshqalar hisoblanadi, chunki bu korxonalarda presslar ishlatiladi, zararli chang va gazlar ajraladi va boshqa Shu tufayli mehnat xavfsizligi standartlariga qat'iy amal qilish talab qilinadi. Xavfsizlik texnikasi texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni avtomatlash-tirish va kompleks mexanizatsiyalash bilan o'zviy bog'liq bo'ladi.

Kompyuterlar ham boshqa elektr jihozlari kabi elektr toki

yordamida ishlaydi. Elektr toki esa juda ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishni talab etadi. Kompyuter sinfidagi qurilmalardan noto'g'ri foydalanish yong'in chiqishi, baxtsiz hodisalar ro'y berishi va buning natijasida inson salomatligiga zarar yetishi hamda kompyuter jihozlarining bo'zilishiga olib kelishi mumkin. Yuqoridagi noxush holatlarning oldini olish maqsadida xavfsizlik texnikasi qoidalari hamda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilishingiz talab etiladi.

Xavfsizlik texnikasi qoidalari quyidagilar:

1. o'qituvchining ruxsatisiz o'zboshimchalik bilan kompyuterlarni ishga tushirish;
2. kompyuter xonasiga ustki kiyimlarda kirib o'tirish;
3. elektr toki manbalariga va ulanish simlariga tegish;
4. o'zboshimchalik bilan kompyuterda sozlash ishlarini olib borish;
5. ishlab turgan kompyuter ekraniga qo'l bilan tegish;
6. kompyuterlarda tozalash ishlarini olib borish;
7. o'zoq vaqt davomida ishlab turgan kompyuterlarni nazoratsiz qoldirish;
8. kompyuter yonida boshqa elektr va isitish asboblariidan foydalanish;
9. kompyuter yonida ovqatlanish, suv ichish;
10. tez alanganuvchi buyumlar va qurilmalarning ichki elementlariga salbiy ta'sir etuvchi (kislotali, tarkibida xlor bo'lgan) moddalarni olib kirish;
11. klaviatura va kompyuter sichqonchasini ho'l qo'llar bilan boshqarish;
12. klaviatura va «sichqoncha»dan foydalanganda kuch ishlatish;
13. kompyuterni ruxsatsiz o'chirib, ishni yakunlash ta'qiqlanadi.

Kompyuterdan foydalanish jarayonida baxtsiz hodisalar ro'y bermasligi va sog'lig'ingizga zarar yetmasligi uchun xavfsizlik texnikasi qoidalariga so'zsiz rioya qilishingiz kerak!

bemorni organizimi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan holda tashxis qo'yish va davolash jarayonlarini avtomatlashtirish uchun)

- mutaxassislarni avtomatlashtirilgan ishchi o'rinlari (mutaxassislar orqali bajariladigan barcha texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va vrachlarga tashxis qo'yish va taktik yechimlar qabul qilishda axborot ko'magini berish uchun).

2. Davolash va sog'liqni saqlash muassasalari uchun. Ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- konsultatsiyalar berish markazlari axborot tizimlari (mos bo'limlar faoliyatini ta'minlash va vrachlarga konsultatsiyalar berishda axborot ko'magini tashkillash)
- tibbiy xizmat ko'rsatish muassasasi banki (muassasa xodimlar haqidagi sonli va sfit ko'rsatikichli ma'lumotlar, aholiga bog'langan statistik ma'lumotlar, xizmat ko'rsatish xarakteristikalari va boshqalar uchun)
- aniq shaxslarga bog'langan ro'yxatga olish tizimlari (aniq bir tekshiruvdagi kontingent uchun bog'langan formalizatsiyalangan kasallik tarixlari yoki tibbiy kartalarni shakllantirishga mo'ljallangan tizimlar)
- skrining tizimlar (aholini ommaviy tekshiruvlardan o'tkazish hamda mutaxassis yordamiga muhtoj xavfli kasalliklar guruhini topish uchun)
- davolash va tashxis qo'yish muassasasi axborot tizimi (muassasadagi barcha ma'lumotlarni va axborot oqimlarni avtomatlashtirish yordamida bitta tizimga birlashtirish orqali muassasa faoliyatini boshqarish maqsadida)
- tibbiyot OTMlari va ilmiy tadqiqot institutlari axborot tizimlari (asosan 3 masalani yechish uchun mo'ljallangan: ta'lim berish jarayonini axborotlashtirish, ilmiy tekshirish ishlarini va muassasani boshqarish)

3. Viloyat sog'liqni saqlash tizimi axborot tizimlari

- Hududiy sog'liqni saqlashni boshqarish tashkiloti axborot tizimi
- tibbiy-texnologik masalalarni yechishga, maxsus tibbiy

Taqdim etish usuliga ko‘ra axborot matn, jadval, matritsa, grafik va dinamik qatorlarga bo‘linadi. Matn axboroti eng ko‘p rasmiylashtirilgandir, Shu bois uni qayta ishlash uchun hozirgi paytda gipermatn dastur tizimi ko‘rinishida maxsus dasturiy vositalar qo‘llanilmoqda.

Axborot o‘zining barqarorligiga ko‘ra o‘zgaruvchan, shartli-doimiy va doimiyga bo‘linadi. O‘zgaruvchan axborot ob‘yektlar ishlashining miqdoriy va sifat xususiyatlarini aks ettiradi. Shartli-doimiy va doimiy axborotlar muhitning doimiy o‘lchamini aks ettiradi, Shu bois ular o‘zoq vaqt mobaynida o‘zgarmas bo‘lib qoladi.

Axborot texnologiyalari hozirgi kunda barcha sohalarda keng qo‘llanilmoqda va jadal rivojlanmoqda. Tibbiyot sohasi ham bundan mustasno emas.

3.2-§. Tibbiyot axborot tizimlarni turlari

Sog‘liqni saqlashni axborotlashtirishni eng asosiy yo‘nalishi bu axborot tizimi hisoblanadi. Tibbiyot axborot tizimlarini klassifikatsiyasi sog‘liqni saqlash tizimini bir necha pog‘onali to‘zilishiga asoslangan.

1. Tibbiyot axborot tizimini - bunda asosiy maqsad turli yo‘nalishdagi shifokorlarni kompyuter ko‘magi orqali qo‘llab-quvatlash; bular profilaktika va laboratoriya tashxislarni qo‘yish ishlarini sifatini oshiriradi, ayniqsa shoshilinch holatlar va vaqt yetishmovchiligi paytida malakali mutaxassislar vaqtini tejash. Ularni yechadigan masalalariga qarab quyidagi turlaga ajratish mumkin:


- axborot –so‘rovnoma tizimlari (foydalanuvchi so‘roviga ko‘ra tibbiy axborotlarni qidirish va berishga mo‘ljallangan)

- tashxis qo‘yishga ko‘maklashuvchi tizimlar (turli yo‘nalishdagi kasalliklarda, patologik holatlarda tashxis qo‘yishga, pronoz qilish va davolash yo‘llarni taklif qilish uchun)

- uskunali kompyuter tizimlari (axborot ko‘magi yoki

Sanitariya-gigiyena talablari. Esda tuting, kompyuterda ishlash davomida kerakli talablarga rioya etmaslik inson salomatligiga katta zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa, ko‘z, qon aylanish tizimi, bosh miya faoliyati, umurtqa pog‘onasi zaiflashuvi va turli kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi.

Bularning oldini olish hamda kompyuterda ishlash davomida salomatligingizga zarar yetmasligi uchun quyidagi talablarga rioya qilishingiz va ularni esdan chiqarmasligingiz kerak:



1. kompyuter stolidan 20 sm o‘zoqlikda o‘tiring;
2. ko‘zingiz kompyuter ekranidan 50-60 sm o‘zoqlikda bo‘lsin, har 20-30 daqiqadan so‘ng ko‘zga dam berib turish va kompyuterda ishlash kuniga 180 daqiqadan oshmasligi zarur;
3. yelka va qo‘l tirsagi orasidagi burchak 90-120° ni tashkil qilsin;
4. kompyuter oldida o‘tirganingizda gavgangizni tik tuting;
5. oyoq kaftingiz polga to‘laligicha tegib tursin;
6. qo‘l kaftingizni va barmoqlaringizni erkin tuting;
7. qo‘lingizni tanangizga yaqin masofada ushlang;
8. tizza osti burchagi 90° ni tashkil qilsin.

Kompyuter oldida noto‘g‘ri o‘tirish umurtqa pog‘onan-

gizda og'riqlar paydo bo'lishiga hamda tez toliqishingizga sababchi bo'ladi.

Kompyuterdan foydalanishda sog'lig'ingizga zarar yetmasligi uchun ko'z mashqlari va harakat mashqlarini bajarib to'ring!

1-mashq. Ko'z mushaklarini 4 soniya qattiq yumib to'ring, so'ngra ularni ochib, 6 soniya o'zoqlarga tiqilib to'ring. Bu mashqni 3-4 marta takrorlang.

2-mashq. Ko'zlaringizni 4 soniya burun uchiga qarating, so'ngra 6 soniya o'zoqlarga tiqilib to'ring. Bu mashqni ham 3-4 marta takrorlang.

3-mashq. Boshni burmagan holda ko'zingizni oldin o'ngga qarating va Shu holatni biroz saqlab to'ring, so'ngra ko'zingizni to'g'riga qaratib, o'zoqlarga 6 soniya tiqilib to'ring. Xuddi Shu mashqlarni ko'zingizni chapga, pastga va yuqoriga qaratib bajaring. Mashqni 1-6 hisobda takrorlang.

4-mashq. Ko'zni yuqori o'ng qismidan diagonal bo'ylab pastki chap qismiga o'tkazing, so'ngra o'zoqlarga 6 soniya tiqilib to'ring. Xuddi Shunday usulda faqat ko'zni yuqori chap qismdan pastki o'ng qismga o'tkazing va 6 soniya o'zoqlarga tiqilib to'ring. Bu mashqni 3-5 marta takrorlang.

Nazorat savollari:

1. Sanoq tizimi deganda nima tuShuniladi?
2. Qaysi sanoq tizimlaridan hisoblash texnikasida ko'p foydalaniladi?
3. Bir sanoq tizimidan ikkinchi sanoq tizimiga o'tkazish qoidasini tuShuntiring.
4. 1 baytli xotiraga o'nlik sanoq sistemasidagi saqlanishi mumkin bo'lgan maksimal son nechaga teng?
5. Pozitsion sanoq tizimi bilan nopozitsion sanoq tizimning farqi nimada?
6. Sanoq tizimining alifbosi deganda nimani tuShunasiz?
7. Sanoq tizimining asosi nima deb hisoblanadi?

Qayta ishlash usuliga ko'ra, ma'lumotlar birlamchi, ikkilamchi, hosila, mantiqiy xulosa va yakunlarga bo'linadi. Jumladan boshlang'ich axborot odatda muhitda yo'z beruvchi jarayonlarni ko'zatishtirish natijasida shakllanadi va qayta ishlanmasdan qayd etiladi. Ikkilamchi axborot o'z asosiga ko'ra birlamchi ma'lumotlarga tayanadi. Hosila axborot dastlabki, ikkilamchi yoki boshqa axborotni qayta ishlash natijasidir.

Tadqiqot ob'yekti nuqtai nazaridan axborot eng avvalo tashki makromuhit ta'sirini hisobga olgan holda ma'lumotlar bazasini yaratish va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banklaridan foydalanish uchun ancha asoslangan yo'nalishni tanlash maqsadida bozor ehtiyoji va talablarini o'rganishga yo'naltirilgan.

Funksional vazifasiga ko'ra axborot quyidagicha tasniflanadi:

a) yangi tovarlarni ishlab chiqarish va sotishda bozorda firmaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli qanday bo'lishini ochib beruvchi axborot;

b) bozorning aniq segmentida raqobatchilar holatini ifodalovchi axborot va hokazolar.

Vazifasiga ko'ra, axborot ma'lumotnoma, tavsiyanoma, me'yoriy va signalli turlariga bo'linadi.

- ***Ma'lumotnoma axborot*** ko'proq tanishtiruvchi xususiyatiga ega, ob'yektlarning qancha barqarorligi belgilarini tavsiflaydi va ma'lumotnomalar (spravochniklar) tizimi shaklida namoyon bo'ladi.
- Xorijiy ma'lumotnoma axborotini avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki orqali olish mumkin, ularning soni yildan-yilga o'zgarib bormoqda.
- ***Tavsiyanoma axborot*** o'z navbatida bosma nashrlarda e'lon qilingan va tijorat ma'lumotlar bazalaridagi ma'lumotlar tahliliga asoslangan maxsus tadqiqotlarni o'tkazish natijalariga ko'ra shakllanadi.
- ***Me'yoriy axborot*** asosan ishlab chiqarish sohasida shakllanadi va foydalaniladi.

Informatika funtamental fan sifatida kompyuter axborot tizimlari negizida istalgan ob'yektlar bilan boshqaruv jarayonlarini axborot jihatidan ta'minlashni barpo etish metodologiyasini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadi.

Informatika *amaliy fan* sohasi sifatida quyidagilar bilan Shug'ullanadi:

a) axborot jarayonlaridagi qonuniyatlarni o'rganish (axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tarqatish);

b) inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsion-axborot modellarini yaratish va hokazo.

1994 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasining axborotlashtirish kontspetsiyasini qabul qildi.

Ushbu Kontspetsiyaning asosiy maqsadi va unda qo'yilgan masalalar quyidagilardan iboratdir:

- milliy axborot-hisoblash to'rini yaratish;
- axborotlarga tovar sifatida yondashishning iqtisodiy, huquqiy va me'yoriy hujjatlarini yuritish;
- axborotlarni qayta ishlashning jahon standartlariga rioya qilish;
- informatika industriyasini mujassamlashtirish va rivojlantirish;
- axborotlar texnologiyasi sohasidagi fundamental tadqiqotlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- informatika vositalari foydalanuvchilarini tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish.

Tibbiyotda axborotni turli belgilarga qarab tasniflash mumkin:

Olish usuli bo'yicha axborot quyidagi natijaga ko'ra ajratiladi:

- tadqiqotni olib borish chog'ida bevosita so'rov o'tkazish orqali;
- davriy va maxsus adabiyotlarni o'rganish;
- ma'lumotlarni telefaks yoki tayyorlangan magnitli tashuvchilar vositasida o'zatish.

8. Informatikada qanday sanoq tizimlaridan foydalaniladi?
9. Ikkilik raqamlar bilan arifmetik amallarni bajarish qoidolari qanday?
10. Xavfsizlik texnikasi qoidalarini bilish nima uchun zarur?
11. Elektr toki bilan bogʻliq qanday qoidalarni bilasiz?

III-BOB. TIBBIYOT MASALALARINI YECHISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI.

3.1-§. Tibbiyotda axborot texnologiyalarini asoslari.

Sogʻliqni saqlash tizimini barcha yoʻnalishlarida axborot texnologiyalari katta rol oʻynamoqda. Axborot texnologiyalarini tibbiyotda qoʻllanilishi, sohani aniq ishlashi va effektiv boshqarishga olib kelmoqda.

Tibbiyotdagi axborot oqimini tashkillash, oʻrganish va boshqarish tibbiyot axborot texnologiyalari sifatida oʻrganilmoqda.

Hozirda, xorijda tibbiyot axborot texnologiyalari alohida fan sifatida oʻrganilmoqda. Tibbiyot axborot texnologiyalari bu ikki soha, tibbiyot va axborot texnologiyalarni birgalikdagi natijalari mahsuli hisoblanadi, bunda tibbiyot oʻzining bir qator masalalar-metodini qoʻysa axborot texnologiyalari buni yechish usullari va yoʻnalishlarini butun bir metodik taminlash bilan Shugʻullanadi.

Tibbiyot axborot texnologiyalarini oʻrganish predmeti bu tibbiy – biologik, klinik va profilaktik axborot jarayonlar hisoblanadi. Tibbiyot axborot texnologiyalarini oʻrganish obʼyekti esa sogʻliqni saqlashda qoʻllaniladigan axborot texnologiyalari hisoblanadi.

Informatika soʻzi elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan Shugʻullanuvchi sohani ifodalovchi atama sifatida yoʻzaga keldi.

Informatika termini lotincha *informatic* soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, tuShuntirish, xabar qilish, bayon etish maʼnolarini anglatadi.

Oʻzbekiston Respublikasi informatika va hisoblash texnikasi yoʻnalishida jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratgani, ularda tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilayotganligi bilan shartli ravishda faxrlana oladi.

"Matematika fanining ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, differentsial tenglamalar va matematik fizika, funksional

tahlil sohasidagi yutuqlari respublikadan ancha o'zoqda ham mashhur" deb yozadi O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov.

Inson faoliyatidan mustaqil soha sifatida informatikaning ajralib chiqishi birinchi navbatda kompyuter texnikasi rivojlanishi bilan bog'liq. Bunda asosiy xizmat mikroprotsessor texnikasiga to'g'ri keladi.

Informatika axborotni qayta ishlash, ularni tanlash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta'sirining EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o'rganuvchi ilmiy fan sohasidir.

Informatika bu jihatdan axborot modellarini to'zishning umumiy metodologik tamoyillarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Shu bois axborot uslublari ob'yekt, hodisa, jarayon va hakazolarni axborot modellari yordamida bayon etish imkoniyatiga egadir.

Informatikaning vazifalari, imkoniyatlari, vosita va uslublari ko'p qirrali bo'lib, uning turli tushunchalari mavjud. Ularni umumlashtirib quyidagicha tushunchani tavsiya etamiz. Informatika keng ma'noda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida asosan kompyuterlar va telekommunikatsiya aloqa vositalari yordamida axborotni qayta ishlashi bilan bog'liq fan, texnika va ishlab chiqarishning xilma-xil tarmoqlari birligi tarzida namoyon etadi.

Informatikani tor ma'noda uch o'zaro aloqador qismlar - *texnik vositalar (hardware)*, *dasturiy vositalar (software)* va *algoritmik vositalar (brainware)* sifatida tasavvur etish mumkin. O'z navbatida informatikani ham umuman, ham qismlari bo'yicha turli jihatlardan: xalq xo'jaligi tarmog'i, fundamental fan, amaliy fan sohasi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Informatika *xalq xo'jaligi tarmog'i* sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish bilan Shug'ullanadigan xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalarning bir turda jamlanishidan iborat bo'ladi.

bo'lgan, rangli bosish tezligi sekundiga A4 o'lchamli 4 betni tashkil etgan noyob rangli purkagichli Stylus 600 printerini yaratgan). Rangli tasvirni yaratish uchun odatda, poligrafiyada qabul qilingan SMYK rangli sxema ishlatilib, u o'z ichiga to'rtta bazaviy (asosiy) rangni oladi: Syan - havo rang, Megenta - to'q qizil rang, Yellow - sariq rang, Key - yetakchi (qora rang). Murakkab ranglar bazaviy ranglarni aralashtirib hosil qilinadi. Bosish sifati juda ajoyibdir - to'liq rangli plakat deyarli bosmaxonaniqidan farq qilmaydi. Purkagichli printerlarning asosiy kamchiliklari:

soplo ichida siyohning qurib qolish xavfi, bu ba'zida bosuvchi kallakni almashtirish zarurligiga olib keladi, sarflanadigan materiallarning nisbatan yuqori narxdaligi, xususan, siyoh uchun balonchaning, ayniqsa, agar u bosuvchi kallak bilan birlashtirilgan va birgalikda almashtirilsa (bunday to'zilish keng tarqalgan).



3.9-rasm. Siyohli prinerlar.

jamiyatni muvaffaqiyatli shakllantirishni ta'minlaydi. Bunday jamiyatda axborot almasuvi tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash kengayadi. Turli xildagi axborotlar hududiy joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga Internet xalqaro kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi. Axborotlashgan jamiyat Shu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda. Shuning uchun ham mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalariga aylanmoqda.

Hozirgi kunda xavfsizlikning bir qancha yo'nalishlarini qayd etish mumkin.

Axborotning muhimlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun ham qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixonalar rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, o'zlashtiradilar, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'irlaydilar, bo'zib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi. Axborotni qayta ishlash sanoatining paydo

bo'lishi axborotni himoyalash sanoatining paydo bo'lishiga olib keladi.

3.5-§. Shaxsiy kompyuterlarning tarixi.

EHMning tarkibidagi arifmetik-mantiqiy, boshqarish, xotira, axborotni kiritish va chiqarish kabi qurilmalar uning arxitekturasini tashkil etadilar. Universal EHMLar arxitekturasiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Birinchi avlod EHMLari – bu tarkibida tezkor xotira qurilmasi ham bor bo'lgan — bazaviy EHM dir. Birinchi avlod (1946-1955-yillarni o'z ichiga oladi va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) olimlari tomonidan yaratilgan) EHMLarida elektron sxemalarning barcha elementlari alohida qismlar ko'rinishida tayyorlanar edi. Ularning ichida eng muhimlari hozirgi paytda eski radio va televizorlarda uchratish mumkin bo'lgan vakumli elektron lampalar edi. Bunday lampalarning bir nechta metall panel shassi ustiga o'rnatilar, o'z navbatida shassi esa EHM korpusi ichiga joylashtiriladi. Shu shassining o'ziga sxemaning boshqa elementlari ham mustahkamlab qo'yiladi. EHMning o'zi esa elektron lampali shassilar bilan to'ldirilib tashlangan ko'p sondagi metall shkaflardan iborat ko'rinishga ega edi. Birinchi avlod mashinalari katta zallarni egallagan holda, yo'zlab tonna og'irlikka ega bo'lib, yo'zlab kVt elektr energiyasi hisobiga ishlagan va ularning tezligi sekundiga 10-20 ming arifmetik amalga ega bo'lgan. Bunday EHMLar jumlasiga MESM, BESM, Strela, Ural, Minsk-1 kabi EHMLar kiradi. Misol uchun, 1953-yilda yaratilgan BESM-1 kompyuterida 4000 dona lampa ishlatilgan, 3x5 metr hajmdagi maydonda joylashgan, tezligi sekundiga 7000 - 8000 amal bo'lib, xotirasi 4096 bayt ma'lumotni qabul qilgan.

Ikkinchi avlod EHMLari – bu birinchi avlod mashinasidan tarkibida tashqi xotira qurilmasi ham borligi bilan farq qiladi. Ikkinchi avlod (1955-1965-yillar o'rtalarini o'z ichiga oladi)

Siyohli printerda tasvir qog'ozga maxsus qurilma orqali purkalayotgan siyoh tomchilaridan yo'zaga keladi. Siyohli printer sifati purkagichli printerga yaqin narxi ham arzon. Siyohli printer shovqinsiz ishlaydi. Shuning uchun hozirgi kunda ko'pchilik undan foydalanmoqda. Tezligi bir bet uchun 15 sekunddan 100 sekundgacha. Siyohli printerda bosuvchi kallakda ignalar o'rniga ingichka naychalar - soplolarga (konus naychalarga) ega, u orqali qog'ozga bo'yoq rangning (siyohning) mayda tomchilari purkaladi. Bu zarbsiz bosuvchi qurilmadir. Bosuvchi kallakning matritsasi odatda 12 tadan 64 tagacha soploga ega. Keyingi yillarda ularning mukammallashishida jiddiy rivojlanishga erishildi. Tasvirni shakllantirishda bosuvchi kallakning juda mayda soplolari yordamida qog'ozga siyoh tomchilarining yo'naltirilgan portlatishga o'xshash purkash - purkagichli bosishning «Pufakli» texnologiyasi deb ataluvchi usuli ishlatiladi. Purkash jarayoni texnikasi quyidagicha bo'ladi. Soplo devoriga elektrik qizdiruvchi element o'rnatilgan bo'lib, uning harorati elektr impulsi berilganda 5-10 ms ichida keskin ortadi. Qizdiruvchi element bilan kontaktga joylashgan siyohning hammasi bir zumda bug'lanadi, bu bosimning keskin oshishiga olib keladi, buning oqibatida siyoh soplodan qog'ozga otilib chiqadi. «Otilgandan» keyin siyohlari kondensatsiyalanadi, soploda pasaygan bosim maydoni hosil bo'ladi va unga siyohning yangi porsiyasi (ulushi) so'riladi. Bu yangi texnologiya purkagichli printerlar va plotterlar olamida burilish yasaydi.

Bu esa ularning o'tkazish qobiliyatini yana bir pog'onaga (dyumda 600-1440 ta nuqtagacha) ko'tarish imkonini berdi. Shunday qilib, hozirgi vaqtda purkagichli printerlar millimetrga 50 tagacha nuqtali o'tkazish qobiliyatini va sekundiga 500 tagacha belgini bosish tezligini ta'minlaydi va bunda bosish sifati o'ta yuqori bo'ladi. Purkagichli printerlar yozuvchi kallakda katta miqdordagi soplolarni ishlatib, rangli bosishni ham bajaradi, lekin bunda o'tkazish qobiliyati oq-qoraga nisbatan taxminan ikki marta kamayadi (lekin Epson firmasi o'tkazish qobiliyati 400 dpi

tamoyillariga ko'ra matritsali, siyohli va purkagichli, lazerli printer turlarga bo'linadi.

Ignali printerlar - keng tarqalgan printerlar turi bo'lib ularni ko'pincha temir yo'l, aviya va bank kassalari va ishlab chiqarish zavodlarida uchratish mumkin.

Bu printerning ishlash qoidasi quyidagicha: Ignaning xarakati yozish boshchasida vertikal tartibda ignalar joylashgan. Boshqacha yozuv satri bo'ylab harakatlanadi va ignalar kerakli daqiqada bo'yalgan lenta orqali qog'ozga uriladi va natijada qog'ozda belgi yoki tasvir hosil bo'ladi. Ignalar soniga qarab bu printerlar bir-necha turlarga bo'linadi: 9 ignali, 24 ignali, 48ignali. 9 ignali printerda yozuv sifati pastroq. Sifatni oshirish uchun 2 yoki 4 yurishda bajarish kerak. 24 ignali printer sifatli va tezroq ishlaydi. 48 ignalisi yozuvni juda sifatli chiqaradi.



3.8-rassm. Ignali printerlar.

Ignali printerlar tezligi bir bet uchun 10 sekunddan 60 sekundgacha vaqt ketadi. Ba'zan zarbli printerlar ham deyiladi. Ignali matritsali printerlardan tashqari matritsali termoprinterlar guruhi ham bor, ular bosuvchi ignali kallak o'rniga termomatritsali kallak bilan jihozlangan va bosishda termogog'oz ishlatiladi

EHMlari tranzistorlarning ixtiro qilinishi tufayli paydo bo'ldi. Tranzistorlar o'lchamlarining radiolampalarga nisbatan ancha kichikligi EHM bloklarini bosma platalar deb ataluvchi ko'rinishda tayyorlash imkonini beradi. Bunday plata bir tomondan tranzistorlar va boshqa elementlar joylashtirilib, kleylangan ikkinchi tomondan sirtida sxema elementlarini bog'lovchi yupqa ko'rinishdagi metall o'tkazgichlar joylashgan plastmassa plastinkadan iborat bo'lgan. Tranzistor va platalardan foydalanish radiolampalarga nisbatan kamroq joy egallab, kamroq energiya sarflar va ishonchliroq ishlar edi. Bu hol EHMni ixchamroq, arzonroq va tejamliroq qilishga imkon beradi. Ularning tezligi sekundiga 10 mingdan 100ming arifmetik amalga bo'lib, bunday EHMlarga hozir ishlab chiqarilmayotgan, lekin foydalanib kelinayotgan SA-501 modeli (AQSH,1959), Stretch (Angliya), "Minsk-2", BESM-6, POP-8, POP-11, SM-3, SM-4, SM-1420, Ural-1, Ural-16 kabilar kiradi.

Uchinchi avlod EHMlari – bu ikkinchi avlod mashinasidan tarkibida axborot almaShuv qurilmasi (kanal) ham borligi bilan farq qiladi. Kanal tezkor xotira bilan EHMning tashqi qurilmalari orasida axborot almaShuviga imkon beradi. Uchinchi avlod (1960-yillarning o'rtasi va 1970- yillar) EHMlarining asosini integral sxemalar tashkil qiladi (bunday sxemalar birinchi marta AQSHdagi Kaliforniya shtatidagi Santa-Klara shahrida yaratilgan). Fizika va kimyo sohasidagi tadqiqotlar sxemalarni kremniyning sof kristalidan yasalgan plastinkaning kichik qismida, bu qismga turli moddalarning kerakli aralashmasining yupqa qatlamini surtib qo'ygan holda to'zish mumkinligini ko'rsatdi. Elementlarni birdagina plastinkaning ko'pgina qismlarida ham tashkil qilish mumkin. Kremniy kristallari ustiga surtilgan ko'p qatlamli moddalar ko'rinishidagi bunday sxema integral sxema nomini olgan. Bitta kristalda joylashgan dastlabki integral sxemalarda yo'zga yaqin elementlar joylashgan edi. Integral sxemalarning ixtiro qilinishi EHMning elementlar bazasining keyingi rivoji uchun keng istiqbollar ochib berdi, bu imkoniyatlardan hozircha

to'la foydalanib bo'lingani yo'q. Elektron sxemalarning ishonchlilik darajasi, ular baholarining arzonlashishi, o'lchamlarning ixchamligi ishlab chiqarishni avtomatlashtirishga keng imkoniyat yaratdi. Bu avlod EHMLaridagi bir kristallda mingdan ortiq elementlarni saqlovchi integral sxemalar qo'llanilgan. Ularning tezligi 100 mingdan 1 mln. arifmetik amalga bo'lib, bunday EHMLarga "IBM-360" (AQSH,1965) va ES (Ediniya sistema) oilasiga mansub bo'lgan ES-1022, ES-1035, ES-1055, ES-1060 kabilar kiradi.

To'rtinchi avlod EHMLari – bu uchinchi avlod mashinasidan tarkibida har biri parallel ravishda ishlay oladigan ikki va undan ko'p protsessorlar borligi bilan farq qiladi. Cheget, Elburs-2 kabi EHMLar to'rtinchi avlodga mansub. O'z vaqtida Toshkentdagi —Algoritm zavodida ishlab chiqarilishi mo'ljallangan Elburs-2 EHM tarkibida har biri sekundiga 1 mln amaliyotlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan 10 ta protsessori bor. To'rtinchi avlod (1970 – 1980- yillar) EHMLarida bir kremniy kristallida o'n minglab o'tkazgich elementlar bo'lgan katta integral sxemalar (BIS-Bolshaya integralnaya sxema) qo'llaniladi. Bir kremniy kristalida butunlay joylashadigan EHM protsessorining yaratilishi XX asrning ajoyib yutug'i bo'ldi. Bunday bir kristalli protsessorlar mikroprotsessorlar degan nomni oldi. Natijada bitta platada EHMning hamma qurilmalarning elektron sxemalarini joylashtirish mumkin bo'lib, o'ttiz yil ilgari katta zalni egallagan EHMning o'zi esa hajmi va narxi bo'yicha foydalanuvchining ish joyida yakka tartibda qo'llashga imkon yaratib berdi. Natijada shaxsiy EHMLar, cho'ntak va stol mikrokalkulyatori paydo bo'ldi. Hozirgi paytda ishlash tezligi, xotira sig'imi va boshqa xususiyatlari bo'yicha eng yuqori bo'lgan "Super EHM" mashinalari tayyorlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bunday EHMLar eng zamonaviy elementlar bazasida tayyorlanib, juda qimmatbaho, lekin bu mashinalar fan va texnikaning turli sohalarida tengi yo'qdir. Ularning tezligi sekundiga 100 mingdan bir necha million arifmetik amalga bo'lib, bunday EHMLar jumlasiga hozirgi

Kiritish-chiqarish portlari orqali protsessor tashqi qurilmalar bilan ma'lumotalmashadi. Ichki qurilmalar bilan ma'lumotalmashuvi uchun maxsus portlar hamda umumiy portlar mavjud. Umumiy portlar 2 xil bo'ladi: parallel - (LPT1, ..., LPT4) va ketma-ket (COM1, ..., COM3) bilan belgilanadi. Parallel portlar kirish-chiqishni, ketma-ket portga nisbatan tezroq bajaradi. Har bir port o'zining shaxsiy manziliga va raqamiga ega bo'lib, ularning umumiy soni 65536 taga yetadi.

3.7-§.Shaxsiy kompyuterlarning qo'shimcha qurilmalari.

SHKning imkoniyatini oshirish maqsadida turli qurilmalar ishlab chiqarildi va ular SHKning qo'shimcha qurilmalari deb nomlandi. Ular qatoriga:

- Printer - kompyuterdagi ma'lumotlarni qog'ozga chop qilish qurilmasi;
- Disk (axborot taShuvchi qurilma) – axborotlarni ko'chirish, saqlash, tarqatish va tashish uchun ishlatiladigan qurilma;
- Plotter - chizmalarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma;
- Skaner - kompyuterga matnli yoki tasvirli ma'lumotni kirituvchi qurilma.
- Tarmoq adapteri - kompyuterni mahalliy tarmoqqa ulash imkonini beruvchi qurilma;
- Audio-video adapter - kompyuter yordamida musiqa ijro etilishini va turli video roliklarni ko'rishni ta'minlovchi qurilma;
- Modem - telefon tarmog'i orqali boshqa kompyuter bilan ma'lumot almaShuvini ta'minlovchi qurilma;
- Multimedia - Kompyuter yordamida tovushli va rolikli multikinolarni ko'rish imkoniyatini yaratib beruvchi qurilma;
- Strimer - kompyuterning vinchesteridagi ma'lumotlarni nusxasini zaxiraga olish uchun mo'ljallangan qurilma.

Printer - kompyuter xotirasidagi axborotlarni (matnli va rasmlı) qog'ozga bosish uchun foydalaniladi. Printerlar ishlash

oshiradi. Ushbu disketalarda yozishni ta'qiqlovchi yoki imkon beruvchi maxsus o'tkazgichi mavjud. Agar teshikcha bekilgan bo'lsa ma'lumotlaryozish mumkin, aks holda esa, mumkin emas. Disketadan birinchi bor foydalanganda uni albatta maxsus ravishda formatlash, initsializatsiya qilish kerak.



3.6-rasm. Egiluvchan disklar.

Qattiq disklardagi jamlagichlar (vinchesterlar) - kompyuter bilan ishlaganda axborotni doimiy saqlashga mo'ljallangan. Qattiq diskdagi jamlagichlar bir-biridan, ya'ni diskka qancha axborot sig'ishi bilan farq qiladi. Diskning ish tezligi ikki ko'rsatkich bilan aniqlanadi:

- diskning sekundiga aylanishlar soni.
- diskdagi ma'lumoto'qish va unga ma'lumot yozish tezligi.



3.7-rasm. Qattiq disk (vinchester).

Kontrollerlar (maxsus elektron sxemalar) - kompyuter tarkibiga kiruvchi turli qurilmalar (monitor, klaviatura va boshqalar) ishini boshqaradi.

paytda ishlab chiqarishda keng qo'llanilayotgan IBM, DX2-66, Power Macintosh, Pentium rusumli SHKlar va Respublikamizda ishlab chiqarilgan Toshkent, ta'lim muassasalarida keng foydalanilgan Agat, Praves kabilar ham kiradi.

Beshinchi avlod EHMLari – bu to'rtinchi avlod mashinasidan tarkibida intellectual interfeys (bilimlar bazasi, masalalarni avtomatik tarzda yechishning dasturiy ta'minoti va muloqot protsessori) borligi bilan farq qiluvchi, universal sun'iy tafakkur mashinalaridir. Kompyuterlar davri 1971 yilda AQShda mikroprotsessorlarni kashf etilganidan boshlangan desa bo'ladi. Kompyuterlarni ishlab chiqarish avvaliga asosan APPLE firmasi, keyinchalik (1984 y) esa, IBM firmasi mahsulotlari hisobiga kengayib bordi. Beshinchi avlod kompyuterlari optik elementlar asosida yaratilishi rejalashtirilayotgan bo'lib, ular kelajak mahsuli hisoblanadi. Bunda elektr toki lazer nurlari bilan almashtiriladi. Natijada kompyuterning to'zilis ham tubdan o'zgaradi. Uning asosiy xususiyatlaridan biri faqat sonli hisoblashlarni emas, balki axborotni kiritishda analiz qilish usuli bilan fikrlaydigan axborotlarni ham bajarish imkoniyatiga ega, yani kompyuter bilan muloqot tabiiy maxsus bilimga ham ega bo'lmog'i kerak. Xulosa qilib aytganda, beshinchi avlod kompyuterlarning ishlash tamoyili inson tafakko'rining faoliyatiga iloji boricha yaqinlashuvchanligi lozim. Demak, ushbu avlod kompyuterlarning operativ xotirasi sun'iy intellektda tasvirlanishi kerak. Bundan ko'rinadiki, beshinchi avlod EHMLarini faqatgina bizga ma'lum bo'lgan hisoblash jarayonlari uchun emas, balki inson faoliyatining turli sohalarida keng ko'lamda qo'llash mumkin bo'ladi. Ularning tezligi insonning intellektual tezligiga yaqin bo'lib, bunday kompyuterlar loyihasi ichida Yapon loyihalari birinchi o'rinni egallaydi.

3.6-§.Shaxsiy kompyuterlarning arxitekturası.

Hozirgi kunda kompyuter hayotimizning barcha sohalariga shiddat bilan kirib bormoqda. Agar boshida shaxsiy kompyuter asosan ma'lumotlarni saqlash va ularni qayta ishlash uchun foydalangan bo'lsa, hozirgi kunda esa kompyuterlar audio, video va chizmachilik ma'lumotlar bilan ishlash uchun keng foydalanadi. Kelajakni uningsiz tassavur qilish mumkin emas.

Kompyuterning asosiy qismlari:



Sistema bloki.

Monitor

Klaviatura

Sichqoncha

3.1-rasm. Shaxsiy kompyuterlarning assossiy qurilmalari.

Sistema bloki - kompyuterning asosiy qismi bo'lib, uning ichida ona platasi, mikroprotsessor, qattiq disk (vinchester), tezkor va kesh xotira mikrosxemalari, har xil tashqi qurilmalar ishini boshqaradigan elektron sxemalar (kontrollerlar yoki adabterlar), elektr ta'minlovchi blok va disk yurituvchilar bor.

Monitor - displey yoki ekran. Ma'lumotlarni ekran orqali foydalanuvchiga chiqarish qismi. Monitorlar diagonal o'zunligi 14 - 27 dyuymgacha va nuqtalar o'rtadagi masofa (0,25 - 0,39 milimetrgacha) bilan farqlanadi. Bundan tashqari monitorlar rangli va monoxrom (2 rangli) bo'ladi. Qancha monitorda diagonal o'zunligi katta bo'lsa, Shuncha Shu monitor ko'proq ma'lumotlarni ko'rsata oladi. Qancha nuqtalar o'rtasidagi masofa kichkina bo'lsa, Shuncha ekrandagi ma'lumotlar aniq holda ko'rinadi. Grafik rejimda ekranga matnli ma'lumotlardan tashqari rasm va grafik tasvirlar ham chiqariladi. Bunda belgi ixtiyoriy shrift va o'lchamga ega bo'ladi. Bu rejimda ekran nuqtalar (piksel) to'plamidan iborat. Masalan, 640 x 400 imkoniyatli monitor



3.4-rasm. Mikroprotssessor Intel.

Tezkor xotira - o'zida kompyuterda ishlatilayotgan dasturlar va ma'lumotsaqlaydi. Ma'lumotlar doimiy xotiradan tezkor xotiraga ko'chiriladi, olingan natijalar zaruriy holda diskka yoziladi. Kompyuter o'chirilishi bilan operativ xotiradagi ma'lumotlar o'chiriladi.



3.5-rasm. Tezkor xotira.

Diskli jamlagichlar - ma'lumotsaqlash, hujjatlarni va dasturlarni bir jodan ikkinchi joyga olib o'tish, bir kompyuterdan ikkinchisiga o'tkazish kompyuter bilan ishlaganda foydalanadigan axborotni doimiy saqlash uchun disklardagi jamlagichlar ishlatiladi. Ular ikki turda bo'lib, egiluvchan diskla (disketalar) va qattiq disklardagi jamlagichlar (vincesterlar) deb ataladi.

Egiluvchan disklar (disketalar)ga - ma'lumot yozish va ulardan ma'lumot o'qish uchun disk yurituvchi (diskovod) qurilmasi ishlatiladi. Bunday disketalar qattiq plastmassa g'ilofga o'ralgan bo'lib, bu ularning ishonchliligini va ishlash muddatini



3.3-rasm. Sichqoncha.

Sichqoncha ichida rezina ichiga joylashgan sharik bor, u stol bo'yicha harakat qilganda maxsus roliklar va indiqatorlar orqali ushbu harakat kompyuterga jo'natiladi va ekrandagi sichqoncha ko'rsatkichi (strelkasi) biz belgilagan yo'nalishda harakatlanadi. Uning nomi tashqi ko'rinishidan kelib chiqqan. Sichqoncha qo'lga bermalol joylaShuvchi bir necha tugmachali bo'ladi. Sichqoncha stol yoki maxsus yo'zada (gilamchalar) harakati natijasida ekrandagi kursorni mos ravishda harakatlantiradi. Menyuning birortasini bajarish uchun sichqoncha mos tugmachasi bosiladi. Ba'zi amaliy dasturlar faqatgina sichqoncha bilan ishlashga moslashgan.

Markaziy protsessor - kompyuterning eng muhim qismini markaziy protsessor, (ya'niprotsessor va boshqaruv qurilmasi) tashkil etadi. Dastur yordamida berilgan ma'lumoto'zgartiradigan, hamma hisoblash jarayonlarini boshqaradigan hamda hisoblash ishlariga tegishli moslamalarning o'zaro aloqasini o'rnatadigan qurilma – protsessor deb ataladi. Markassiy protsesorni yana **mikroprotsessor** deb xam nomlanadi va u turli amallarni tez bajarish qobiliyatiga ega. Uning tezligi sekundiga 100 million amalga va undan ortiq bo'lishi mumkin. Uning tezligi megagerslarda (Mg) hisoblanadi va protsessor nomidan keyin yoziladi. Masalan, Pentium 700.


ekranda gorizontalligiga 640 va vertikaliga 400 nuqtani tasvirlaydi. Nuqtalar soni oshishi bilan tasvir sifati oshadi. Quyida monitorlarning ba'zi bir turlari keltirilgan.

3.1 – jadval. Monitorlar haqida ma'lumot.

Adapter	Rangi	Matnli	Grafikli
MDA	Oq-qora	80x20, 2 ta rang	640x200, 2 ta rang
CGA	Rangli	80x25, 16 ta rang 320x200, 4 ta rang	640x200, 2 ta rang
Hercules	Oq-qora	80x25, 2 ta rang	720x348, 2 ta rang
EGA	Rangli	80x25, 16 ta rang 80x43, 16 ta rang	640x350, 16 ta rang
VGA	Rangli	80x25, 16 ta rang	640x480, 16 ta rang
SVGA	Rangli	80x25, 16 ta rang	800x600, 256 ta rang

Kompyuterga monitor ulash uchun maxsus videoadapter zarur. Videoadapter - tasvir to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadigan xotiraning muayyan qismini monitorda aks ettiruvchi signalni hamda sinxronizasiya signallarini gorizontall (satri) va vertikal (ustun bo'yicha) taqsimlab, shakllantiradi.

Klaviatura - ma'lumotlarni kiritish qismi. IBM PC SHK klaviaturalari 2 xilda ishlab chiqariladi. Kichik - 83 ta va katta -101 ta tugmachaga ega bo'lgan klaviaturalar. Katta klaviatura ishlashga juda qulay. Klaviatura harflar joylanishi bo'yicha ingliz (QWERTY) va franso'z (AZERTY) standartlariga bo'linadi. Ba'zi hollarda kichik klaviatura - kichik razryadli klaviatura, katta klaviatura esa katta razryadli klaviatura deb ham yuritiladi. SHKning imkoniyatiga qarab kichik klaviaturaning 83, 89 tugmali variantlari respublikamizda keng tarqalgan. Katta klaviaturalarning 101, 104, 107 tugmali standart variantlari bor. Katta klaviaturalarning multimediali variantlar ham bo'lib, ularda 108-124 tagacha tugmachalar bor.



3.2-rasm. Klaviatura.

Klaviaturaning asosiy yoki alfavit tugmalari 57 ta tugmadan iborat bo'lib, 37 tasi lotin harf va belgilar, 10 tasi raqam va 10 tasi maxsus tugmalar. Ko'p tugmalarda bir nechta belgilar yozilgan. Har xil rangda yozilgan harflar, belgilar har xil til standartiga mosligidir. Til standartini o'zgartirish klaviaturalarda har xil (o'ng [Alt] + [Shift], ikkita [Shift], o'ng [Ctrl] + [Shift] tugmalarni birga bosish orqali) bo'ladi.

Maxsus tugmalar [Shift] - agar siz harflar tugmasini bossangiz u holda kichik harf kiritiladi, agar sizga katta harf kerak bo'lsa u holda maxsus [Shift] tugmani bosib, qo'yvormasdan Shu harf tugmasini bosishingiz kerak (masalan, [Shift] + [a] bosilsa ekranda "A" hosil bo'ladi). Agar bitta rang bilan bir nechta belgilar yozilgan bo'lsa, u holda ulardan pastkidagi asosiy, yuqoridagi passiv deb nomlanadi. Tugmani bosilganda asosiy belgi kiritiladi. Agar sizga passiv belgi kerak bo'lsa, u holda siz maxsus tugmani bosib, qo'yvormasdan belgi tugmasini bosishingiz kerak (masalan, [Shift] + [1] bosilsa ekranda "!" hosil bo'ladi). [Ctrl] va [Alt] - Shu tugmalarni bosib turib boshqa tugmani bosganimizda har xil amallar bajariladi. [Caps Lock] - bu tugma yordamida [Shift] bosilib turgan holatini (faqat harflar uchun) yoqamiz yoki o'chiramiz. [Tab] - keyingi bo'limga yoki qismga o'tish. [Backspace] - oldin (chapda) joylashgan bitta belgini o'chirish uchun foydalaniladi. [Enter] - yangi satrga o'tish yoki ma'lumotlarni kiritish (ba'zi bir klaviaturalarda (Return) yoki (SR)). [Esc] - oxirgi harakatdan voz kechish.

Funksional tugmalar. Maxsus buyruqlar va amallarni bajarish tugmalari [F1] - [F12]. Har xil dasturlar bu tugmalarga har xil amallarni oʻrnatadi.

Yoʻnalish tugmalari. Kursor joylanishini oʻzgartiradi. Kursorni bitta belgi chapga, yuqoriga, oʻngga va pastga siljitish imkoniyati.

Yordamchi tugmalar. [Home] - satr boshiga oʻtish. [End] - satr oxiriga oʻtish.

[PageUp] - bir sahifa yuqoriga oʻtish. [PageDown] - bir sahifa pastga oʻtish. [Insert] - belgilarni oʻchirib, ustiga yozish yoki ularni siljitib oʻrtasiga yozish holatini oʻrnatish. [Delete] - keyin (oʻngda) joylashgan bitta belgini oʻchirish.

Raqam tugmalari. Raqamlarni kiritish uchun klaviatura. [0], ..., [9] gacha raqamlar va [/], [*], [-], [+] belgilari mavjud.

Tugmachalarning maxsus majmualari.

[Ctrl] + [Break] - ishlayotgan dastur yoki buyruqni tugatilishini taʼminlaydi.


[Ctrl] + [Alt] + [Del] - masalalar dispecherini chaqiradi yoki operatsion tizimni xotiraga qayta yuklaydi.

[Shift] + [PrintScreen] - ekrandagi axborot nusxasini printeriga chiqarish rejimini ulash va oʻchirishni taʼminlaydi.

[Ctrl] + [Numlock] - dastur ishini toʻxtatib turadi va davom ettiradi.

Sichqoncha - maʼlumot kiritilishini yengillashtiruvchi manipulyator. SHKning asosiy qurilmalaridan biri bu sichqonchadir. Uning 3 xil turi boʻladi: standart, trekbol va sensor paneli. Standart sichqonchalar stol ustida ishlatish zarur boʻlgan, sensor paneli bilan trekbollar esa notebooklar uchun yaratilgan va ular pastki paneli ichiga oʻrnatilgan boʻladi. Sichqonchalarda tugmalar soni (2 va 3 tugmali) va ishlash holatlari (trekbol va sensor panel) boʻyicha farqlanadi. Sistemali blokda markaziy protsessor, operativ (tezkor) xotira, qattiq disk, kontrollerlar, disketalar va lazerli kompakt diskalar bilan ishlash uchun qurilmalar va boshqalar joylashadi.

keltirib o‘tish mumkin.



4.4-rasm. Dasturlash texnologiyasining uskunalari - dasturlash texnologiyasini qo‘llab – quvvatlovchi (ta‘minlovchi) dasturiy mahsulotlari


Lokal vositalar muhiti: dasturlash tizimi va foydalanuvchini uskunaviy vositalariga ajratilib ko‘rsatiladi. Mahalliy (lokal) ilovalar (tillar va dasturlash tizimlari, shuningdek foydalanuvchini uskunaviy muhiti);

- dasturlarni ishlab chiqishni integrallashgan muhiti. Asosiy vazifasi – foydalanuvchini grafik interfeysini ta‘minlovchi, Shuningdek so‘rovlar va hisobotlarni avtomatlashtirish uchun, dasturlar kodini yaratishni avtomatlashtirish hisobiga dasturchilarning mehnat unumdorligini oshirish (Delphi);
- axborot tizimlarini to‘zish vositalari - CASE-texnologiyalari. Mahalliy tarmoqlarda loyihalar ustida jamoa bo‘lib ishlashni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yo‘zaga keladi. Bu loyihani istalgan fragmentlarini import qilish, loyiha boshqaruvini tashkillashtirish hisobiga amalga oshiriladi.

O‘z navbatida dasturlash tillari quyidagi turlarga bo‘linadi:

- 1) operatorli. Algoritmnlarni kodlash uchun ishlatilishi sababli,

Lazerli printerlar bosmaxona sifat darajasiga yaqin sifatli yozuvni ta'minlaydi. U ishlash nuqtai nazaridan nusxa ko'chiruvchi kseroksga yaqin, bunda faqat bosuvchi baraban kompyuter komandasi yordamida elektrlanadi. Bo'yoq donachalari zarblanib barabanga yopishadi va tasvir hosil bo'ladi. Tezligi bir bet matn uchun 3 sekunddan 15 sekundgacha. Rasm uchun ko'proq, katta rasmlar uchun 3 minutgacha vaqt talab qiladi. Hozirgi kunda minutiga 15-40 betgacha chop etadigan purkagichli printerlar bor.



3.10-rasm. Lazerli printerlar.

Lazerli printerlarda tasvirni shakllantirishning elektrografik usuli ishlatilib, bu usul Shu nomdagi nusxa ko'chiruvchi apparatlarda ishlatiladi. Lazerli printer o'ta ingichka yorug'lik no'rini yaratish uchun xizmat qiladi, bu nur oldindan tayyorlab qo'yilgan yorug'likka sezgir baraban sirtida ko'rinmaydigan nuqtali elektron tasvir konto'rini chizadi. Elektr zaryad lazer nuri bilan yoritilgan nuqtalardan baraban sirtiga oqib tushadi. Elektron tasvir tushgandan keyin razryadlangan maydonlarga yopishib qolgan bo'yoq (toner) kukuni bilan bosish bajariladi. Toner barabandan qog'ozga olib o'tiladi va tasvirni qog'ozda tonerni qizdirib, u erib ketguncha qotiriladi.

Lazerli printerlar millimetrda 50 tagacha nuqtalarni va sekundiga 1000 tagacha belgilarni bosuvchi tezlikni ta'minlaydigan o'tkazish qobililiyatli eng yuqori sifatli bosishni ta'minlaydi. Rangli lazerli printerlar ko'p ishlatiladi. Masalan, tektonik (AQSH) firmasining Phaser 550 lazerli printeri gorizontal bo'yicha ham, vertikal bo'yicha ham millimetrda 48 nuqtali o'tkazish qobiliyatiga ega. Rangli bosish tezligi minutiga A4 o'lchamli 5 bet, mono-xromli bosish tezligi - minutiga 14 bet. Printerlarning 1000 taga yaqin turli xil modifikatsiyalari bor.

Nazorat savollari:

1. Tibbiyotda axborotni qanday belgilarga qarab tasniflash mumkin?
2. Tibbiyot axborot tizimlarini tushuntirib bering?
3. Shaxsiy kompyuterlar tarixini aytib bering?
4. Shaxsiy kompyuter tuzilishining axboriy-mantiqiy asoslari nimadan iborat?
5. Shaxsiy kompyuterlarning funksional-tuzilmaviy tashkil etilishi usullarini tushuntirib bering.
6. Kompyuterlarning rivojlanish yo'nalishlarini tushuntiring.
7. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari nimadan iborat?
8. Shaxsiy kompyuterlar arxitekturasini tushuntirib bering?

ishlatiladi. Lekin, “ilova” so‘zi ko‘proq turli operatsion tizimlarda ishlaydigan dasturiy mahsulotlarga nisbatan ishlatilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Dasturlash axborot texnologiyalari ikkita yo‘nalishga ajratilib ko‘rsatiladi. Bularning birinchisi, ilovalarni yaratish dasturiy vositalar bo‘lib, turli hil operatsion tizimlarida ishlatiladigan “Dasturiy ilovalarni to‘zish uchun” (RAD – Rapid Application Development) vositalar deb ataladi. Ular tarkibiga: dasturlash tizimlari va turli xil dasturlash tillari bazasidan iborat bo‘lgan uskunaviy ishlab chiqarish muhiti kiradi.

Ikkinchisi, CASE - texnologiyalari deb ataladi (Computer Aided Software Engineering, yoki CASE). Bu texnologiya dasturiy ta‘minotini to‘zishni kompyuterli qo‘llab-quvvatlovchi va murakkab axborot tizimlarini to‘zishni avtomatlashtirish vositalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Tizimli dasturlash o‘zida dasturlash tilini kompilyator yoki interpretatorini; dastur kodini sozlovchisi va optimallashtiruvchi vositalarini; aloqalar muharririni, standart bibliotekalar to‘plamini, ma’lumotnoma tizimlarini qamrab oladi.

Dasturlash tili kerakli algoritmni qandaydir matnli ko‘rinishda ifodalashga imkon beradi. Bu matn kodni shakllantiruvchi maxsus dastur-translyatorni ishlashi uchun boshlang‘ich material bo‘lib hisoblanadi. Ko‘p tarqalgan dasturlash tillariga Basic, Pascal, Fortran, C++ larni keltirish mumkin. Tizimli dasturlash tillari: Turbo Pascal, Borland Pascal, MS Visual Basic, MS Visual C++, Visual Fortran.

Uskunaviy integrallashgan ishlab chiqarish muhiti (IDE – Integrated Development Environment). Foydalanish yo‘nalishi – dasturchilarni mehnat samaradorligini oshirish, dastur kodlarini to‘zishni avtomatlashtirish, mijoz-server arxitekturasi uchun, so‘rovlar va hisobotlar uchun ilovalarni ishlab chiqishdan iborat. Bularga Oracle JDeveloper, Jbuilder 3 Enterprise (Borland), VisualCafe for Java (Symantec), Forte for Java (Sun Microsystems) kabi obyektga yo‘naltirilgan dasturlash vositalarini

- egri chiziqlar, ellipslar, chiziqlarning ixtiyoriy shakllari, ko'p burchaklarni chizishga imkon beruvchi turli-tuman chizma-chilik vositalaridan foydalanish, alomatlarning kutubxonalaridan foydalanish, yozuvlarni yozish va h. k.;

Alomatlarni bilib olish dasturlari — bu, alomatlar kodlaridagi harflar va raqamlarning grafik tasvirlarini tarjima qilish uchun mo'ljallangan. U skaner bilan birgalikda ishlatiladi.

Moliyaviy dasturlar guruhi har xil paketlar bilan taqdim etilgan: yozuv daftarchasi va moliyaviy operatsiyalar yozuvi (pul mablag'larining balansi, zayomlar va kreditlar bo'yicha foizli to'lovlarni aniqlash, pul kiritmalarining vaqtincha to'zilmalari va h. k.) ko'rinishidagi ishga doir yozuvlarni olib borish uchun.

Tahliliy tadqiqotlar uchun o'zini yaxshi tavsiya etgan Stat Graphics, Systat va “Статистик-Консультант” statistika paketlaridan foydalaniladi.

4.3-§. Kompyuter uskunaviy dasturiy ta'minotining vazifasi, tarkibi va strukturasi.

Dasturiy ta'minotning bu sinfiga dasturlar va dasturiy majmualar mansub bo'ladi. Ular to'zilatadigan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, sozlash va tadbiq qilish texnologiyalarini ta'minlaydi. Qisqa qilib aytganda uskunaviy dasturiy ta'minotlarni “dasturlar uchun dastur”lar deb ta'Shunish mumkin. Tizimli dasturiy ta'minot va amaliy dasturiy ta'minotlar uskunaviy dasturiy ta'minot bilan, aniqrog'i uskunaviy dasturlash vositalari asosida ishlab chiqiladi.

Masalan, Windows operatsion muhitida ishlovchi Microsoft Word matn muharririni olaylik. Bu muharrir prosessor tasnifiga ega bo'lgan, Microsoft Office tarkibiga kiruvchi dastur. Bu dastur Microsoft Word ilovasi deb ataladi. Agar Siz, biror-bir algoritmik dasturlash tilida (masalan, Paskal tilida) birorta dastur ishlab chiqqan bo'lsangiz, uni ishlashini kompyuterda amalga oshirsangiz u ilova dastur hisoblanadi, uni nomiga “ilova” so'zi qo'shib

9. Shaxsiy kompyuterlarning asossiy qurilmalarini tushuntirib beribdg?
10. Shaxsiy kompyuterning sistemali blogini ichki qurilmalarini izoxlaab berring.
11. Shaxsiy kompyuterning qaysi qurilmalari qo'shimcha qurilma sanaladi?
12. Chop qilish qurilmalarini turlari va ularni ishlash prinsiplarini tushuntirib bering?

IV BOB. TIBBIYOT MASALARINI YECHISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALAR DASTURIY TA'MINOTI.

4.1-§. Dasturiy ta'minot va uni turlari.

Dasturlar - bu buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Istalgan kompyuter dasturlarining yakuniy maqsadi – apparat vositalarini boshqarish va natijalar olishdan iborat bo'ladi. Odatda, dasturiy ta'minot (Software) deyilganda hisoblash tizimi orqali bajariladigan dasturlar to'plami tuShuniladi. O'z o'rnida dasturiy ta'minot – kompyuter tizimlarining ajralmas qismi hisoblanadi va u texnik vositalarning mantiqiy davomi bo'ladi. Aniq kompyuterni qo'llanish sohasi undagi dasturiy ta'minotning imkoniyatlari bilan belgilanadi. Kompyuterning apparat va dasturiy ta'minoti bir-biri bilan ajralmas va o'zluksiz o'zaro harakatda bo'ladi.

Bir butun kompyuter, yoki uning tarkibiy qismlari o'z-o'zidan axborotlarni qayta ishlay olmaydi. Kompyuterning ishlashini turli xil funksiya va vazifalarni bajaruvchi dasturlar boshqaradi. Hisoblash tizimining dasturiy ta'minoti dasturli konfiguratsiya deb ataladi. Hisoblash tizimlari fizik tugun va bloklarda ajratilgani singari, dasturlararo ham o'zaro aloqa mavjud bo'ladi, ko'plab dasturlar boshqa quyi darajadagi dasturlarga tayangan holda ishlaydi. Dasturiy ta'minot darajalarini piramidaga o'xshash konstruksiyaga qiyos qilish mumkin.

1) Dasturiy ta'minotning bazaviy darajasi. Bu dasturiy ta'minotning eng quyi darajasidir. U bazaviy apparat vositalari bilan o'zaro aloqani ta'minlashga javob beradi. Qoidaga ko'ra, bazaviy dasturiy vositalar, bevosita bazaviy uskunalar tarkibiga kiradi va doimiy xotira (ROM) deb ataluvchi mikroshemalarda saqlanadi. Dasturlar va berilganlar doimiy xotira mikroshemalarini ishlab chiqarish bosqichida ularga yoziladi. Demak, bazaviy dasturlar doimiy xotira qurilmasida saqlanadi. Kompyuterni ekspluatatsiyasi davomida bazaviy xotira o'zgarmaydi va ularni o'zgartirish ham mumkin emas.

mablag‘, materiallar)dan foydalanishni rejalashtirish tadbirlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan dasturlar paketlaridir.

Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) elektron ma’lumotlarni yaratish, saqlash va olish tadbirlarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ko‘pgina mavjud iqtisodiy, axborot-ma’lumotnomaviy, bank, dasturli majmualar MBBTning vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Namoyish qilish grafiklarining paketlari ba’zi bir tahliliy tadqiqotlar natijalarini ko‘rgazmali va dinamik shaklda taqdim etishga qaratilgan ishga tegishli axborotlar grafik tasvirining konstruktorlari bo‘ladi.

Multimedia dasturlari paketlari audio va video axborotlarni aks ettirish va ishlab chiqish, ShKdan foydalanish uchun mo‘ljallangan. Dasturli vositalardan tashqari, kompyuter bunda xuddi Shunday axborotlarni kirish/chiqish, uni raqamli shaklga aylantirishni amalga oshirishga imkon beruvchi qo‘shimcha platalar bilan jihozlanishi mumkin.

Loyihalashtirishni avtomatlashtirish tizimlari — grafik tasvirlarni ishlab chiqish bilan bog‘liq dasturlar paketlarining o‘zgacha turli-tumanligidar. Ular mashinasozlik, avtomobilsozlik va sanoat qurilishida konstruktorlik ishlarining loyihalarini avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan. Ushbu paketlar quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishni ta’minlovchi vositalar majmuiga ega:

- foydalanuvchilarning tarmoqda paket bilan jamoa bo‘lib ishlashi;
- fayllarning barcha imkon bo‘lgan formatlarda eksporti-importini;
- obyektlarni masshtablashtirish;
- obyektlarni guruhlariga ajratish, harakatlantirish, kesish, o‘lchamlarini o‘zgartirish, qatlamlari bilan ishlashda ularni boshqarish;
- qaytadan chizish (fonli, qo‘lda, o‘zilgan holda);
- fayllarni kutubxonalar va chizmalarining kataloglari qismida boshqarish;

paketlarda ko'zda tutilgan vositalar quyidagilarga imkon beradi:

- matnni bir yerga jamlash (terish); barcha iloji bo'lgan foydalanish va poligrafik tasvirlashni amalga oshirish; eng yaxshi mantli prosessorlar darajasida matn tahrir qilishni amalga oshirish;
- grafik tasvirlarni ishlab chiqish;
- poligrafik sifatli hujjatlar chiqarishni ta'minlash;
- tarmoqlar va har xil platformalarda ishlashga.

Grafik muharrirlar — grafik axborotlarni ishlab chiqish uchun mo'ljallangan paketlardir. Ular rastrlı va vektorlı grafiklarni ishlab chiquvchi ADPga bo'linadi.

Vektorlı grafika bilan ishlash uchun paketlar badiiy va texnik tasvirlar bilan keyinchalik ranglı bosib chiqarish bilan bog'liq kasbiy ishlash uchun mo'ljallangan (masalan, dizaynning ish joyi) loyihalashtirishni avtomatlashtirilgan tizimlari uchun va stol ustidagi nashriyot tizimlari o'rtasida oraliq joyni egallaydi.

Ushbu sinfdagi paketlar hozirgi vaqtda grafik tasvirlarni murakkab aniq ishlab chiqilishini amalga oshirish uchun vazifaviy vositalarning ancha keng majmuiga ega va o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- grafik tasvirlarni yaratish uchun vositalar;
- tekislash vositalari (asosiy chiziqli va bet bo'yicha, kesishish katagi, eng yaqin nuqta bo'yicha);
- obyektlar bilan manipulyasiya qilish vositalari;
- paragraflarni rasmiylashtirish va zamonaviylashtirish, har xil shriftlar bilan ishlash qismida matnni ishlab chiqish vositalari;
- turli xil formatlardagi grafik obyektlar (fayllar)ni import (eksport) qilish vositalari;
- ekran tasvirini poligrafik bajarishga tegishli ravishda sozlash bilan bosmaga chiqarish vositalari.

Elektron jadvallar (jadvalli prosessorlar) — tashkil qilingan ma'lumotlarni jadvalli tartibda ishlab chiqish uchun mo'ljallangan dasturlar paketi.

Ishlarni tashkil qiluvchilar — bu, ham ayrim inson, ham butun firma yoki uning tarkibiy bo'linmasini turli resurslar (vaqt,

- Amaliy dasturiy ta'minot
- Servisli dasturiy ta'minot
- Tizimli dasturiy ta'minot
- Bazaviy dasturiy ta'minot

Bazaviy dasturiy ta'minotni o'zgartirish texnik jihatidan maqadga muvofiq hisoblangan holatlarda, operativ xotira mikrosxemalari o'rniga – qayta dasturlanuvchi doimiy xotira (ERROM) qurilmasi ishlatiladi.

2) Tizimli darajadagi dasturiy ta'minot. Tizimli daraja – bu, oraliq darajadagi dasturiy ta'minotdir. Sababi, bu darajada ishlovchi dasturlar, kompyuter tizimida ishlovchi o'zga dasturlarni bazaviy darajadagi dasturlar va bevosita apparat ta'minoti bilan o'zaro aloqasini ta'minlash vazifasini bajaradi. Masalan, hisoblash tizimiga yangi qurilmani ulanishi, boshqa dasturlarni u bilan o'zaro alqasini ta'minlash uchun, tizimli darajada bu qurilmani dasturi o'rnatilishi lozim. Aniq bir qurilmalarni o'zaro aloqasini ta'minlovchi aniq dasturlar, **qurilmalar drayverlari** deb ataladi, ular tizimli darajadagi dasturiy ta'minotlar tarkibiga kiradi. Boshqa tizimli darajadagi dasturlar sinfi esa foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqani ta'minlashga javob beradi. Bu dasturiy vositalar yordamida foydalanuvchilar hisoblash tizimiga berilganlarni kiritadi, uni ishlashini boshqaradi va o'ziga qulay bo'lgan shaklda natijalarni oladi. Bu vositalar foydalanuvchi interfeysini ta'minlash vositalari deyiladi. Kompyuter bilan ishlashdagi qulaylik, ish joyida mehnat unumdorligi bevosita foydalanuvchi interfeysiga bog'liq bo'ladi. Tizimli darajadagi dasturiy ta'minotlar to'plami kompyuterning operatsion tizimi yadrosini tashkil qiladi.

3) Servisli (xizmat) darajadagi dasturiy ta'minot. Bu darajadagi dasturiy ta'minotlar bazaviy darajadagi dasturiy ta'minotlar bilan ham, tizimli darajadagi dasturiy ta'minotlar bilan ham o'zaro aloqa qiladi. **Utilitalar** deb ataluvchi xizmat ko'rsatuvchi bu dasturlar zimmasiga kompyuter tizimini tekshirish va sozlash ishlarini amalga oshirish yuklatilgan. Aksariyat hollarda ular tizimli dasturlar funksiyalarini kengaytirishda yoki va yaxshilashda

qo'llaniladi.

4) Amaliy darajadagi dasturiy ta'minot. Amaliy darajadagi dasturiy ta'minot o'zida aniq bir vazifani bajaruvchi amaliy dasturlar majmuini mujassamlashtiradi. Tabiiyki amaliy darajadagi dasturiy ta'minotlar va tizimli dasturiy ta'minotlar orasida bevosita o'zaro aloqa mavjud bo'ladi. Dunyoda kompyuter texnikasini jadal rivojlanishi, dasturiy mahsulotlarni ham Shunday jadallik bilan rivojlanishiga olib keldi. Dunyoda kompyuterlarni ommaviylashtirishini dasturiy ta'minotlarsiz tassavur qilib bo'lmay qoldi. Kompyuterlarning rivojlanishini tijorat sohasini apparat ta'minoti (hardware) va dasturiy ta'minoti soft (software) kabi ikkita katta qismlarga ajratilishiga olib keldi. Dunyoda Microsoft, Oracle, Sun, Borland kabi dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar yo'zaga keldi.

Hisoblash texnika vositalarini tezkorlik bilan rivojlanishi va kompyuterlarning qo'llanish sohasini tobora kengayib borishi dasturiy ta'minotlar evolyusiyasi jarayonini tezlashtirdi.

Agar oldin dasturiy ta'minotlarning asosiy kategoriyalari (operatsion tizimlar, translyatorlar, amaliy dasturlar paketi) barmoq bilan sanarli bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib u tugal bir rivojlanish tomoniga o'zgardi. Yangi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqishda tugal bir yangi bo'lgan yondoshuvlar yo'zaga keldi. Bu jarayon talab qilinadigan dasturiy mahsulotlar bilan bozordagi amaldagi dasturiy mahsulotlarning nisbatini keskin o'zgarishiga olib keldi.

1. Axborot tizimlari nuqtai nazaridan dasturiy ta'minot deyilganda – hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish, ulardan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarining yig'indisi tushuniladi.

2. Kompyuter texnologiyalari nuqtai nazaridan dasturiy ta'minot deyilganda – bevosita hisoblash texnikasini ishini ta'minlovchi tizimli dasturiy ta'minot va amaliy masalalarni yechish uchun mo'ljallangan "amaliy dasturiy" ta'minotlar to'plami tushuniladi.

3. Umumiy ta'minlashda operatsion tizimlar va texnik xizmat

6) Su'niy intellekt tizimlari. U o'zida tabiiy tilda muloqat qilishni qo'llab-quvvatlovchilarni; turli xil vaziyatlarda foydalanuvchilarga tavsiyalar bera oladigan ekspert tizimlarini; dasturlashtirishsiz amaliy masalalarni yechuvchi intellektual amaliy dasturlar paketlarini qamrab oladi.

Shaxsiy kompyuterlar uchun mo'ljallab chiqarilgan amaliy dasturlar paketlari uchun quyidagi tasniflarni aytib o'tish mumkin:

- matn muharrirlari, matnli prosessorlar va noshirlik tizimlari;
- grafika muharrirlari va tadbirkorlik grafika vositalari;
- katta o'lchamli elektron jadvallar, jadval prosessorlari;
- telekommunikasion tizimlarni boshqarish amaliy dasturlar paketlari;
- berilganlar bazasini boshqarish tizimi;
- ma'lumotli-qidirish tizimlari;
- sun'iy intellekt tizimlari, Shu jumladan ekspert tizimlari;
- avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari;
- ma'lumotlarni statistik qayta ishlash paketlari;
- matematik dasturlashtirish amaliy dasturlar paketlari;
- avtomatlashtirilgan loyihalashtirish tizimlari;
- tarkibiga muammoga mo'ljallangan paketlarning bir nechta to'rini oladigan integrallashgan amaliy dasturlar paketi.

Matnli, jadvalli va grafik axborotlarni avtomatlashtirilgan holda ishlab chiqishni amaliy dasturlar paketi ta'minlaydi.

Muammoviy yo'naltirilgan amaliy dasturlar paketlari

Matnli prosessorlar — foydalanuvchi tomonidan hujjat yaratishda matnni bir yerga yig'ish, shakllantirish, tahrir qilishga imkon beruvchi hujjatlar (matnlar) bilan ishlash uchun mo'ljallangan maxsus dasturlar. Odatda ular o'z ichiga matn bloklar va obyektlar bilan ishlash bo'yicha qo'shimcha vazifalarni oladi.

Stol usti nashriyot tizimlari — kasbiy nashriyot faoliyati uchun mo'ljallangan va hujjatlarning asosiy turlari, axborot byulletenlari, qisqa rangli risolalar, hajmli kataloglar va savdo buyurtmalari, ma'lumotnomalar ko'rinishidagi keng turli-tumanligini elektron amalga oshirishga imkon beruvchi dasturlar ushbu turdagi

- Grafik muharrirlar
 - Rastrli muharrirlar
 - Vektorli muharrirlar
 - Uch o'lchamli muharrirlar (3D animatorlari)
- Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi
- Elektron jadvallar
- Veb-muharrirlar
- Avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari (CAD)
- Stol usti nashiriyot tizimlari
- Ekspert tizimlari
- Ish yuritishning integrallangan tizimi
- Buxgalteriya tizimlari
- Moliyaviy analitik tizimlari
- Geoinformasion tizimlar
- Videomontaj tizimlari

Amaliy dasturlar paketi va ular yordamida yechiladigan masalalar ko'ra dasturlar aniq sinfga oid masalalarni yechishga oid o'zaro bog'langan dasturlar majmui turkumilariga ajratiladi.

1) Muammoli - yo'naltirilgan. Boshqarish funksiyalarida, strukturalashgan berilganlar va qayta ishlash algoritmlari kabi muammoli sohalarida qo'llaniladi.

2) Loyihalashni avtomatlashtirish. Chizma, sxema, diagrammalarni ishlab chiquvchi konstruktorlar va texnologlarning ishlarida qo'llaniladi.

3) Umumyo'naltirilgan. Matn muharrirlari va jadval proses-sorlari, grafik muharrirlar, ma'lumotlar bazasini boshqarish ti-zimlari kabi kompyuter texnologiyalarini qo'llab-quvvatlovchi ti-zimlar.

4) Ofisli. Ofisning tashkiliy faoliyatini boshqarishni ta'min-laydi. U o'zida organayzerlar (yozuv va telefon kitoblari, kalen-darlar, taqdimotlar) ni, tarjimonlarni, matnni anglash kabi vosi-talarni mujassamlashtiradi.

5) Stol usti nashriyot tizimlari - funksional jihatidan bir-muncha kuchli bo'lgan matn prosessorlari.


koʻrsatish dasturlarini amalga oshirilishi tuShuniladi.

4. Maxsus muammoli taʼminlashda muammoli masalalar yechimining dasturiy paketlari ishlab chiqilib, kompyuterda yechiladi. Demak, har qanday iqtisodiy jarayon muammolari dasturlash tizimlari orqali hal qilinadi.



4.1-rasm. Dasturiy taʼminotlar turlari.

Kompyuterning uchta asosiy sinfga ajratish qabul qilingan, bular: tizimli dasturlar; amaliy dasturlar va instrumental (uskunaviy) dasturlar.



4.2-rasm. Dasturiy taʼminotlarni siniflanishi.

Tizimli dasturiy taʼminot (system software) – kompyuterlarni apparat qismlarini boshqariuvini taʼminlovchi va foydalanuvchi dasturlarini apparat vositalari bilan dasturiy interfeysini amalga oshiruvchi – dasturlar sinfidir. Tizimli dasturlar oʻzida: axborotlarni qidirish va qayta ishlashni tashkil qilishning bazaviy

funksiyalarini; kompyuterni tarkibiy qismlarini ishlashi ta'minlash va foydalanuvchini kompyuter bilan qulay muloqot qilishiga imkoniyat yaratish funksiyalarini mujassamlashtiradi.

Amaliy dastur ta'minot (application software) – bu foydalanuvchilar vazifalarini bajarishga mo'ljallangan va do'stona foydalanuvchi interfeysiga ega bo'lgan dasturiy ta'minotdir. Amaliy dasturiy ta'minot kompyuterning apparat ta'minoti bilan bevosita o'zaro aloqa qilmaydi. Masalan, bunga matn prosessorni, grafik muharrirlari, elektron jadvallar, buxgalteriya dasturlari kabi foydalanuvchi topshiriqlarini kirituvchilarni keltirish mumkin.

Uskunaviy dasturiy ta'minot – yuqori darajali dasturlash tillari bo'lib, ular dasturiy ta'minotlar, Shu jumladan tizimli, amaliy va oraliq dasturiy ta'minotlar ishlab chiqishga mo'ljallangandir. Uskunaviy dasturiy ta'minotga, yangi dasturlar yaratish uchun qo'llaniladigan intrumental vositalar mansub bo'ladi. Masalan, S++, QuickBASIC, Pascal, Vizual Beysik Delphi va boshq.

Oraliq dasturiy ta'minot (middie ware) – bu o'z dasturiy interfeysiga ega bo'lmagan dasturiy ta'minotning maxsus sinfi bo'lib, kompyuterni apparatli qismi bilan o'zaro aloqani tizimli ta'minotning dasturiy interfeysi orqali amalga oshiruvchi ta'minotdir. Oraliq dasturiy ta'minot tizimli va foydalanuvchi oraliq'ida joylashuvchi ta'minotdir. Oraliq dasturiy ta'minotlar foydalanuvchilar bilan bevosita o'zaro aloqa qilmaydi, Shu boisdan ularni foydalanuvchi dasturlari turiga kiritib bo'lmaydi. Oraliq dasturiy ta'minotlar mijoz dasturiy ta'minotlari tarkibiga, ular bilan o'zaro aloqani ta'minlash uchun kiritilgan, o'z navbatida mijoz dasturiy ta'minotlari amaliy dasturiy ta'minotlarga mansubdir. Ma'lumotlar bazalari serverlari, boshqa server dasturlari, server ilovalar va boshqa server dasturlari oraliq dasturiy ta'minotlarga mansub bo'ladi.

Dasturiy ta'minotning asosiy vazifalari



4.3-rasm. Dasturiy ta'minotning asosiy vazifalari.

4.2-§. Kompyuter amaliy dasturiy ta'minotining vazifasi, tarkibi va strukturasi

Amaliy dasturiy ta'minotlarga inson faoliyatining turli xil sohalariga mansub bo'lgan dasturlar kiradi.

Amaliy dastur – bu istalgan aniq bir dastur bo'lib, u qandaydir muammoli sohasi doirasiga oid masalalarni yechishgan mo'ljallangan bo'ladi. Hisoblash texnikasini amaliyotda samarali tadbiq etishning shartlaridan biri amaliy dasturlarning ixtisoslashtirilgan paketlarini yaratishdir. Ularga kirishning osonligi va foydalanishning soddaligi ShKning muhandislik mehnatiga, ilmiy soha, iqtisodiyot, madaniyat, ta'limning aniq vazifalarini yechishda kengroq tadbiq etish uchun sharoitlar yaratadi.

Amaliy dasturlar paket (ADP) lari odatda maxsus tizimlar asosida quriladi va u bundan keyin ham aniq yo'nalishlarda rivojlanadi. Ular hisoblash vositalarining dasturli ta'minlanishida alohida yetkazib beriladi, o'zining hujjatlariga ega va operatsion tizimlarning tarkibiga kirmaydi. Ko'pgina paketlar integrasiyaning shaxsiy vositalariga ega.

Amaliy dasturiy vositalarning sinflanishi:

- Matn prosessorlari

qilmaydi.

Windows 10 — bu Windows NT oilasi doirasida Microsoft tomonidan ishlab chiqilgan shaxsiy kompyuter hamda ish stantsiyalari uchun operatsion tizimdir. Windows 8.1 dan keyin tizim 9 ni chetlab oʻtib, 10 raqamini oldi. Windows 10 ning server shakllari Windows Server 2016 va Windows Server 2019 deb nomlanadi.

Tizim shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, Xbox One konsollari va boshqalar kabi turli xil qurilmalar uchun yagona tizimga aylanishi moʻljallangan. Yagona ishlab chiqish platformasi va barcha qoʻllab-quvvatlanadigan qurilmalarga mos keluvchi universal ilovalarning yagona doʻkoni mavjud.

Windows 11 — Windows 10 operatsion tizimining davomchisi hisoblanib, Microsoft tomonidan Windows NT oilasiga mansub boʻlgan shaxsiy kompyuterlar uchun operatsion tizimdir. Uning ilk taqdimoti 2021-yil 24-iyunda boʻlib oʻtdi. Windows 11 2021-yil 5-oktyabrda Windows 10 bilan ishlaydigan muvofiq qurilmalar uchun Windows Update orqali bepul yangilanish sifatida chiqarildi.

5.1-jadva. Windows versiyalari.

Ishlab chiqarilgan yili	Nomi	Soʻnggi versiyasi	Qoʻllab-quvvatlash tugallanish sanasi	Tizim ichki braoʻzerining soʻnggi versiyasi	Oilasi
1985-yil 20-noyabr	<u>Windows 1.0x</u>	1.04 (1987-yil aprel)	2001-yil 31-dekabr	Tizim ichki braoʻzeri mavjud emas	<u>MS-DOS</u> uchun qobiq dastur
1987-yil 1-noyabr	<u>Windows 2.0</u> <u>Windows 2.1x</u>	2.11 (1989-yil 13-mart)	2001-yil 31-dekabr		
1990-yil 22-may	<u>Windows 3.0</u>	3.00a (1990-yil 31-oktabr)	2001-yil 31-dekabr		
1992-yil 18-mart	<u>Windows 3.1</u>	3.11	2001-yil 31-dekabr	<u>Internet Explorer 5</u>	<u>Windows NT</u>
1992-yil 1-oktabr	<u>Windows for Workgroups</u> <u>3.1</u>	3.11 (1993-yil 31-dekabr)	2001-yil 31-dekabr		
1993-yil 27-iyul	<u>Windows NT</u> <u>3.1</u>	3.10.528 SP3 (1994-yil 10-noyabr)	2001-yil 31-dekabr		
1994-yil 21-sentabr	<u>Windows NT</u> <u>3.5</u>	3.50.807 SP3 (1995-yil 21-	2001-yil 31-dekabr		

algoritmik tillar deb ataladi. U tarkibida:

- mashinaga bog'liq tillar (assembler). Aniq bir apparaturaning ma'lum bir xususiyatlarni ifodalashda qo'llaniladigan dasturlar. Har bir kompyuter shunday dasturlash tizimiga ega bo'ladi. Bu dasturlar kompyuterlarni ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan to'ziladi va kompyuter qurilmalari bilan birga taqdim qilinadi;

- mashinaga - yo'naltirilgan (C tili). Assembler va algoritmik tillarni g'oyalarini birlashtiradi. Bunday dasturlar ixcham va juda tez ishlaydi;

- universal tillar (Turbo-Paskal, Beysik). Tabiiy ingliz tiliga yaqinlashtirilgan til. Har bir buyruq nomi ingliz tilida – ifodalanadi.

2) funksional tillar. U yoki bu muammolarni mashinali modelashtirish uchun qo'llaniladi. Tarkibi:

- muammoli yo'naltirilgan (GPSS). Hodisalar ketma-ketligi yordamida tizimlar modellashdiriladi. Shuningdek, hisoblash majmualarini loyihalashlarda qo'llaniladi;

- obyektga yo'naltirilgan (Fort) yangi obyektlarini modellashdirishni dasturlashni o'rnatilgan vositalariga ega;

- mantiqli yo'naltirilgan (Prolog). Predmet sohasi qoidalari alohida ifodalanadi, keyin esa yangi faktlar kiritiladi.

Dasturlash tizimi (programming system) o'zida quyidagilarni mujassmlashtiradi:

- **Kompilyatorlar** - yuqori darajadagi dasturlash tilida ifodilangan matnni, unga ekvivalent bo'lgan mashina dasturlash tiliga o'tkazuvchi (tarjima qiluvchi) dasturlar.

- **Interpretatorlar** – dasturning buyruqlarini yoki operatorlarini tahlil qiluvchi va ularni bajarilishini ta'minlovchi dasturlar (ba'zan apparatli vositalar).

- **Komponovka** qiluvchilar (aloqa tahrirlagichlari, muharrirlari), bir yoki bir nechta obyektli modullarni komponovka qiluvchi va ulardan bajariluvchi obyektli modulni shakllantiruvchi dasturlar

- **Sozlovchi** (отладчик) - u dasturdagi xatolarni izlashga mo'ljallangan dasturlar yaratish muhitini moduli yoki alohida ilova bo'lishi mumkin.

- **Matn muharrirlari** – matnli fayllarni to'zish va o'zgartirishga, Shuningdek ularni ekranda ko'rishga, chop qilishga, matn bo'laklarini qidirishga mo'ljallangan kompyuter dasturlari.

- **Boshlang'ich matnlarni tahrirlovchi maxsus muharrirlar** - dasturlarni boshlang'ich kodini to'zish va tahrirlashni amalga oshiruvchi matn muharrirlari. Bu maxsus muharrirlar alohida ilova shaklida, yoki integrallashgan dasturlash muhiti tarkibida joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

- **Qism dasturlar bibliotekasi** - dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan qism dasturlar yoki obyektlar to'plami.

- **Grafik interfeys muharrirlari.**

- **Dasturlash tizimi** - bu kategoriyaga dastur bo'lgan dasturlar, dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqishga mo'ljallangan bo'ladi:

- **Assemblerlar** – matn shaklidagi dasturni assembler tiliga obyekt kodi sifatida mashina buyruqlariga o'tkazuvchi kompyuter dasturlari.

- **Translyatorlar** – dasturlarni translyasiya qiluvchi dasturlar va texnik vositalar.

Yuqorida qayd qilinganlar integrallashgan dasturlash muhiti tarkibiga kiradi.

4.4-§. Uskunaviy dasturiy vositalar paketi.

Uskunaviy (instrumental) dasturiy ta'minot – dasturiy ta'minot vositalarini qo'llab-quvvatlovchi dasturiy vositalardir.

Dasturiy ta'minot – kompyuterda berilganlarni qayta ishlash va o'zlashni ta'minlovchi, turli foydalanuvchilar tomonidan ko'p marotaba foydalanishga va qo'llashga mo'ljallangan dasturlar majmui. Dasturiy vositalar ishlab chiqaruvchilarga zamonaviy

ISBN: 978-9910-9962-5-2



9 789910 996252

nuvchiga darhol ko‘rinmaydigan tizim funksiyalari bilan bog‘liq.

Windows 7 — Microsoft kompaniyasining operatsion tizimlaridan bo‘lib, u Windows XP va Windows Vista o‘rni egallagan va 2009-yil 22-oktyabrda chiqarilgan. Windows 7 ni ishlab chiqish rasmiy ravishda Windows Vista 2006-yil oxirida chiqarilgandan so‘ng darhol boshlandi, biroq ba’zi g‘oyalar Longhorn loyihasida belgilandi, uning ustida ish 2001-yilda Windows XP operatsion tizimi chiqarilgandan keyin boshlangan. Dastlab Longhorn bir qator fundamental yangiliklarni amalga oshirishni rejalashtirgan edi, ammo ushbu loyiha ustidagi uch yillik ishdan so‘ng, ishlab chiquvchilar to‘liq ish tizimini yaratishga muvaffaq bo‘lishmadi. Longhornning chiqish sanalari doimo orqaga surildi va loyihani saqlab qolish uchun keskin choralar ko‘rish kerak edi.

Windows 8 — Windows NT oilasiga mansub operatsion tizim bo‘lib, Windows 7 dan keyingi qatorda turadi. Microsoft korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Yadro versiyasi 6.2. U 2012-yil 26-oktabrda sotuvga chiqdi. 2020-yil dekabr holatiga ko‘ra, Windows 8 operatsion tizimining dunyoda Internetga kirish uchun foydalaniladigan operatsion tizimining ulushi 1,4% ni tashkil etdi va Linuxdan keyin yettinchi o‘rinda turadi. Server versiyasi Windows Server 2012 2013-yil iyul holatiga ko‘ra 100 million litsenziya sotilgan. Microsoft 2016-yil 12-yanvarda Windows 8 tizimini qo‘llab-quvvatlashni to‘xtatdi.

Windows 8.1 — Microsoft korporatsiyasi tomonidan 17-oktyabr 2013-yilda ishlab chiqarilgan Windows NT oilasining operatsion tizimi bo‘lib, Windows 8 dan keyin chiqarildi. Ish stantsiyalari, shaxsiy kompyuterlar va portativ qurilmalar uchun mo‘ljallangan; server vazifalarini hal qilish uchun mo‘ljallangan versiya Windows Server 2012 R2 hisoblanadi. Windows 8 bilan taqqoslaganda, u grafik interfeys bilan ishlashda bir qator yangilanishlar va o‘zgarishlarga ega. Windows 8.1, xuddi Windows 8 kabi, sensorli kompyuterlarga qaratilgan, ammo uni klassik shaxsiy kompyuterlarda ishlatish imkoniyatini istisno

edi.

32-bitli **Windows NT**, bozorga 1993-yilda chiqqan birinchi versiyasi va oxirgisi 1998-yilda, boshidanoq asosan ish uchun mo'ljallangan o'ta barqaror, ishonchli tizim sifatida tuzilgan edi.

1997-yil oxirida Microsoft **Windows 98 ning** ishlab chiqarishdan oldingi nusxalarini yo'z minglab beta testerlarga tarqatdi.

Windows 2000 1999-yilda chiqarilgan. Yangi operatsion tizim nafaqat "korporativ" bozor uchun, balki uy kompyuterlarida ham o'rnatish uchun standart bo'lishi kerak edi. Biroq, kompyuter resurslariga bo'lgan yuqori talablar ba'zi uy foydalanuvchilarini yangi tizimdan o'zoqlashtirdi. Aynan Shu kamchiliklar, Shuningdek, Windows 2000 da "o'yin rejimi"ni qo'llab-quvvatlash, to'zatislar va yaxshilanishlardan keyin ham idealdan o'zoq bo'lganligi, Microsoftni Windows 2000 ni "yagona, universal operatsion tizim" qilish g'oyasidan voz kechishga majbur qildi.

Windows XP 2001-yilning yozida paydo bo'ldi. Bu operatsion tizim "korporativ" operatsion tizim, ya'ni Windows XP Server hamda Windows XP Professional, Windows XP Home shakllari chiqarilgan edi.

2004-yil o'rtalarida Microsoft ba'zi muhim xususiyatlarni olib tashlagan holda Longhorn (**Windows Vista** tizimining xomaki shakli) operatsion tizimini qayta ishlab chiqishga qaror qildi. Ushbu ishning natijasi 2007-yil boshida Windows Vista operatsion tizimining chiqarilishi edi. Ushbu tizim ekspertlar va foydalanuvchilarning aralash bahosini oldi. Windows Vistaning chiqarilishidan keyingi ikki yil ichida foydalanuvchilarning faqat kichik bir qismi unga o'tdi va eng mashhuri vaqt sinovidan o'tgan Windows XP edi.

2007-yil 30-yanvarda (oddiy foydalanuvchilar uchun) yangi operatsion tizim Windows Vista paydo bo'ldi. Chiqarilganidan beri Vista juda ko'p tanqidlarga uchradi. Windows Vista texnologiya versiyasi bo'lib, texnologiyalarni faollashtirish uchun mustahkam poydevor bo'lishni maqsad qilgan, ularning aksariyati foydala-

dasturiy ta'minot bozori ko'plab uskunaviy dasturlash vositalarini ta'minotini taqdim qiladi.



4.5-rasm. Uskunaviy dasturiy ta'minot

Uskunaviy dasturiy ta'minotlar o'zida yangi to'ziladigan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, sozlash, testlash va tadbiq qilish jarayonlarini ta'minlovchi maxsus dasturiy mahsulotlarini qamrab oladi. Dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish texnologiyalariga mo'ljallangan yo'nalish tezkorlik bilan rivojlanmoqda. Dasturlash, dasturiy ta'minot vositalarni ishlab chiqish vositalari sifatida, dasturlarni hayotiy siklini va dasturiy muhandisliklikni boshqaruvchisi sifatida, bugun alohida sanoatni tashkil qiladi. Shu boisdan dasturiy ta'minotlar funksional alomatlariga ko'ra bir-lashtirilib, ulardan uskunaviy dasturiy ta'minotlar sinfi shakl-lantirildi.

Dasturlashning uskunaviy texnologiyalari. Bu dasturiy vositalar majmui bo'lib, u dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, sozlash va tadbiq etish texnologiyalarini o'zida mujassam-lashtiradi. Dasturiy mahsulotlar ishlab chiqishda bajariladigan ishlar qamrovidan kelib chiqib, ilovalar ishlab chiqish (to'zish) vositalarini dasturiy ta'minotini ikkita guruhi shakllangan:

- Ilovalar to'zish vositalari – dasturlarni ishlab chiqishni ta'minlovchi, uskunaviy dasturiy vositalar;

- Axborot tizimlarini to‘zishni avtomatlashtirilgan vositalari. CASEvositalar, (Computer-AidedSystem Engineering, CASE) - tahlil metodlarini, loyihalashni va dasturiy tizimlarni yaratishni va axborot tizimlarini ishlab chiqish jarayonlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan uskunaviy dasturiy vosita.

Ilovalar to‘zish vositalari o‘z navbatida quyidagilarga ajratiladi:

- Dasturlar to‘zishni lokal vositalari. Bu dastur to‘zishni ayrim ishlarni bajarilishini ta‘minlovchi – ilovalar yaratish vositalari.
- Ilovalarni to‘zishni integrallashgan muhiti – dasturlar to‘zishni barcha etaplarida barcha o‘zaroaloqali ishlar majmuini bajarilishini ta‘minlovchi - ilovalar yaratish vositalari.


Axborot tizimlarini to‘zishni avtomatlashtirilgan vositalarini sinflashda, ularni: turlari, kategoriyalari, amalga oshirish vositalariga bog‘liqligi kabi sifatleri bo‘yicha ajratish mumkin. Turlari bo‘yicha sinflashda CASE-vositalarni u yoki boshqa hayotiy sikl jarayonlariga funksional yo‘naltirilganligini akslantiradi va tahlil loyihalash vositalari- predmet sohasi faoliyatini modellar kabi, va yana loyihalanuvchi tizimlarni modellari singari qurish va tahlil qilishga mo‘ljallangan. Ularning maqsadi tizim ega bo‘lishi lozim bo‘lgan tizimli talablar va xossalarni aniqlash, Shuningdek bu talablarni qanoatlantiruvchi va tegishli xossalarga ega bo‘lgan tizim loyihalarini to‘zishdan iborat.

4.5-§. Operatsion tizimlar, ularning turlari va vazifalari.

Tizimli dasturlar kompyuterning barcha qurilmalari bilan ishlashni ta‘minlaydilar. Odatda tizimli dasturlar kompyuterga biror yangi qurilma ulanib, o‘rnatilganida, drayver dasturi ko‘rinishida, operatsion tizim ishini sozlashda va u bilan ishlashlarida faol bo‘ladilar. Tizimli dasturlar amaliy dasturlar bilan birgalikda kompyuter resurslarini - protsessorni, xotirani, kiritish-chiqarish qurilmalarini boshqarishda ishlatiladilar.

V BOB. WINDOWS OPERATSION TIZIMI TARIXI VA UNDA ISHLASH ASOSLARI. AXBOROTLARNI ARXIVLASH VA FAYLLAR BILAN ISHLASH DASTURLARI.

5.1-§. WINDOWS operatsion tizimi tarixi va versiyalari.



Windows tarixi 1981 yilda Microsoft "Interface Manager" nomli dastur ustida ish boshlaganidan boshlanadi. Bu 1983 yil noyabrda e'lon qilingan (keyin Apple Lisa, lekin oldin Macintosh) "Windows" nomi ostida, lekin Windows 1.0 1985 yil noyabrgacha ozod qilinmadi. Windows 1.0 raqobatlashishi kerak edi olmaoperatsion tizim, ammo unchalik mashhur bo'lmagan. Windows 1.0 to'liq operatsion tizim emas; aksincha, u kengayadi MS-DOS. Windows 1.0-ning qobig'i - deb nomlanuvchi dastur MS-DOS Ijrochi. Komponentlar kiritilgan Kalkulyator, Taqvim, Cardfile, Buferni ko'rish vositasi, Soat, Boshqaruv paneli, Bloknot, Bo'vamoq, Reversi, Terminal va Yozing. Windows 1.0 bir-biriga o'xshash oynalarga yo'l qo'ymaydi. Buning o'rniga barcha oynalar mavjud plitka bilan qoplangan. Boshqa oynalarda faqat modal dialog oynalari paydo bo'lishi mumkin. Microsoft ko'p sonli Windows namunalarini o'z ichiga olgan C ishlab chiqish muhiti bilan bir qatorda Windows Development kutubxonalarini sotdi.

Ko'p vazifalilikning paydo bo'lishi bir vaqtning o'zida ishga tushirilgan ilovalar soni ikki yoki uchta bilan cheklangan bo'lsa-da, oz miqdordagi tezkor xotira (RAM)ni ishga tushirishga ruxsat bermagan. 640 KB to'siq yo'qoldi va kompyuter unga o'rnatilgan barcha operativ xotiradan foydalana oldi.

Windows o'zining noyob beqarorligi, tez-tez "qotib qolishi" va ko'p sonli xatolar bilan ajralib turardi. Bu Windowsdagi dasturlarning operativ xotira va protsessor quvvatining bo'linishi sodir bo'lgan umumiy makonda yashashi kerakligi bilan bog'liq

tashkil qiladi va har biriga navbat asosida protsessordan foydalanish vaqtini aniqlaydi. Birinchi topshiriqni bajargandan so'ng OT uni navbatning oxiriga olib borib qo'yadi va ikkinchi masalaga xizmat qiladi va x.k. har bir masalaga xizmat qilish vaqti parametrlarida aniqlanadi. Professional dasturchi tashkil qilish jarayonida bu vaqt birligini o'zgartirishi mumkin.

Real vaqt – sistema berilgan real vaqt oralig'ida topshiriqning bajarilishini ta'minlaydi. Bunda kompyuterdagi hisoblash jarayoni tezligi real vaqt o'tishiga hamohang bo'lishi kerak. Kompyuter bunday OT bilan odatda, bir dasturli rejimda ishlaydi.

Muloqot operatsion sistemasi – yakka foydalanuvchi uchun mo'ljallangan bo'lib ko'mpyuter bilan muloqotning qulay ko'rinishini ta'minlaydi. OT, odatda, bir dasturli rejimda ishlaydi.

Nazorat savollari:

1. Dastur nima?
2. Dasturiy ta'minot turlari va ularni siniflarini tuShuntirib bering?
3. Amaliy dasturiy paketlar turien saanaab bering?
4. Uskunali dasturiy paketlar fazifasini tuShuntirib berring?
5. Dasturiy ta'minotni asossiy fazifalari nimadan iborat?
6. Kompyuter uskunaviy dasturiy ta'minotining vazifasi, tarkibi va strukturasini tuShuntirib bering?
7. Dasturiy ta'minotning bazaviy darajasini turlarini saanaab bering?
8. Operatsion sistema va uning turlari haqida nima bilasiz?

Ushbu dasturlar barcha foydalanuvchilarga mo'ljallanib, umumiy foydalanish uchun ishlatiladilar. Tizimli dasturlar Shunday yaratiladiki, kompyuterga kiritilgan amaliy dasturlar tez va oson bajarilishi ta'minlanishi kerak. O'n minglab tizimli dasturlar ichida alohida o'rinni **operatsion tizimlar** egallaydilar. Ular bevosita kompyuter resurslaridan unumli va sifatli foydalanishni ta'minlaydilar.

Kompyuter ishlab chiqaruvchilari foydalanuvchi tomonidan qaysi dasturlar ishlatilishini oldindan bilmaganliklari uchun yangi kompyuterlar odatda amaliy dasturlar bilan jihozlanmagan bo'ladilar. Biroq har bir foydalanuvchi o'z maqsadi yo'lida kerakli dasturlarni o'rnatib ishlash imkoniyatlari mavjud. Asosan kompyuter doimiy xotira qurilmasida kiritish- chiqarish operatsiyalarini bajarish imkonini beruvchi bazaviy tizim mikrosxemaga «tikilgan» holda quyi pogona dasturlari o'rnatiladi. Kerak bo'lgan tizimli va xizmatchi dasturlar soni juda ham ko'p (yo'zlab va undan ortiq) miqdorda bo'lgani uchunular umumiy paket holdida kompyuterga o'rnatiladilar. Tizimli va qisman xizmatchi dasturlarni o'z ichiga olgan bunday standart paket operatsion tizim deyiladi.

Operatsion tizim — kompyuter dasturiy ta'minotining eng muhim qismidir. U dasturlarni ishga tushirilishini, kiritish-chiqarish operatsiyalarini, boshqa yordamchi operatsiyalarni, ma'lumotlarni va resurslarni boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish masalalarini avtomatlashtirish vazifasini bajaradi

Operatsion tizim vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Foydalanuvchi muloqotini ta'minlash;
- Ma'lumotlarni kiritish-chiqarish va ularni boshqarish;
- Qayta ishlash j arayonini rejalashtirish va tashkil etish;
- Resurslarni taqsimlash (operativ xotira, kesh xotira, protsessor, tashqi qurilmalarni);
- Dasturlarni bajarish uchun ularni ishga tushirish;
- Xizmat ko'rsatish bo'yicha turli operatsiyalarni bajarish;
- Turli xil ichki qurilmalararo ma'lumotlarni uzatish;
- Periferiya qurilmalari ishini dasturiy qo'llab-quvvatlash.

Bir vaqtning o'zida qayta ishlanadigan masalalar va foydalanuvchilar soniga qarab operatsion tizimlarning to'rt asosiy sinfga ajratish mumkin:

- **Bir foydalanuvchili, bitta masalali** operatsion tizimlar. Ular yordamida bitta foydalanuvchi klaviaturadan foydalanib muayyan vaqt oralig'ida faqat bitta masalani yechish imkoniga ega bo'ladi;
- **Bir foydalanuvchili fon rejimida chop etishga mo'ljallangan** operatsion tizim. Ushbu tizim yordamida foydalanuvchi bir masala yechishi davomida fon rejimida boshqa ma'lumotini chop etishi mumkin;
- **Bir foydalanuvchili ko'pmasalali operatsion tizim.** Bunday tizimda bitta foydalanuvchi parallel ravishda kompyuterda bir necha masalani kayta ishlashi mumkin;
- **Ko'p foydalanuvchili ko'pmasalali operatsion tizim.** Bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchi o'z masalalarini parallel ravishda qayta ishlashlari mumkin. Bunday operatsion tizim uchun ko'plab kompyuter resurslari talab etiladi.

Operatsion tizim foydalanuvchiga ko'rinmaydigan holda apparatura qurilmalarini boshqarish, ularga axborotni o'zlash yoki ulardan qabul qilish jarayonlarini boshqarishni amalga oshirib, foydalanuvchiga qulayliklar yaratadi.

Kompyuterdan foydalanuvchilar o'z masalalarini to'liq hal qilishlari uchun kompyuterdan ko'proq imkoniyat talab qiladilar va bu muammoni hal qilish uchun, odatda, turli dasturlar yoki ularning majmuasidan foydalanadilar. Har qanday kompyuter o'zidan-o'zi ish holatiga kelmaydi. Uni ish holatiga keltirish va qurilmalarni boshqarish uchun maxsus dasturiy ta'minot yoki, boshqacha qilib aytganda, *operatsion sistema* lozim.

Demak, kompyuter ishga tushirilgach, uning qurilmalari bilan bir vaqtda maxsus dastur ishga tushadi. Mazkur dastur foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydi. Shuningdek, operatsion sistema kompyuterning barcha qurilmalarini boshqarish imkonini beradi.

– biriga bog‘liq bo‘lmagan bir necha dasturlarga xizmat qiladi. Bunda resurslar dasturlar o‘rtasida o‘zaro taqsimlanadi.

–multidastur rejimi markaziy protsessor ish vaqti bilan –periferiyall qurilmalari ishini ta‘minlashdan iborat. Bu usulning bir dasturli rejimidan afzalligi resurslardan effektiv foydalanish va berilgan masala yechilishini tezlatishdir.

Ko‘pmasalali rejim – –multimasala rejimda bir vaqtning o‘zida bir necha masalaning parallel ishlashini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Bunda bir masalaning natijasi ikkinchi masala uchun berilganlar majmuasinin tashkil qilishi ham mumkin. OT yechilayotgan masalalarni bir – biri bilan bog‘liqligini rejalashtiradi va nazorat qilib boradi. –ko‘p dasturlil rejimdan (dasturlar orasida vaqtzni taqsimlash prinspi) farqli, bu yerda barcha masalalar bo‘yicha parallel ishlash ko‘zda tutilgan. Ko‘p masalali rejim faqat multisistemada (bir necha protsessor) tashkil qilinadi.

OT kompyuter va foydalanuvchi o‘rtasida vosita hisoblanadi. OT foydalanuvchi so‘rovini analiz qiladi va uni bajarilishini ta‘minlaydi. So‘rov OT tilida qabul qilingan buyruqlar ketma – ketligi ko‘rinishda bo‘ladi. OT so‘rovlarni turli rejimlarda bajarishi mumkin, Shu sababli OT ni quyidagi tiplarga bo‘lish mumkin:

Paket rejimi sistemasi; Vaqtzni taqsimlash sistemasi;

Real vaqt sistemasi muloqot (dialog) sistemasi.

Paket rejimi – bu masalalar majmuasiga ishlov beruvchi sistema ya‘ni bir yoki bir necha foydalanuvchi tomonidan tayyorlangan topshiriqlarni bajaruvchi sistema. Masalalar majmuasi kompyuterga kiritilgandan so‘ng foydalanuvchi bilan uning masalasi o‘rtasida muloqot qilish ta‘qiqlangan. Bunday OT bir dasturli yoki ko‘p dasturli rejimlarda ishlashi mumkin.

Vaqtzni taqsimlash – bir vaqtning o‘zida bir necha foydalanuvchiga xizmat qilish mumkin va foydalanuvchiga o‘z masalasi bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bir vaqtda ishlash effektiga, protsessor vaqti va boshqa resurslarni turli foydalanuvchilar tomonidan berilgan hisoblash jarayonlariga taqsimlash bilan erishiladi. OT kompyuterga kiritilayotgan topshiriqlar uchun navbat

qilingan qoidalar asosida yozilgan bo'lsa, ularning ketma – ketligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar natija bir xil bo'lishi kerak

4. **Qulaylik.** Foydalanuvchiga OT ni taklif qilishdan maqsad – resurslarni aniqlash va bu resurslarni boshqarish masalalarini yechishdan ozod qilishdir. Sistemani inson psixologiyasini hisobga olgan holda loyihalash kerak.
5. **Effektivlik.** Resurslar taqsimotida OT foydalanuvchi uchun maksimal holda sistema resurslaridan foydalanish darajasini ishirish kerak. Sistemaning o'zi esa iloji boricha kamroq resurslardan foydalanishi kerak. Resurslarning OT tomonidan band qilinishi foydalanuvchi imkoniyatlarini kamaytirishga olib keladi.
6. **Moslanuvchanlik.** Sistema amallari foydalanuvchiga qarab sozlanishi mumkin. Resurslar majmuasi OT effektivligi va samaradorligini oshirish maqsadida ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.
7. **Kengaytiruvchanlik.** Evolutsiya jarayonida OT ga fizik va dasturiy resurslar qo'shilishi mumkin.
8. **Aniqlik.** Foydalanuvchi sistema interfeys darajasidan pastda sodir bo'ladigan jarayonlar bexabar qolishi mumkin. Shu bilan birga foydalanuvchi sistema haqida qancha bilgisi kesa Shuncha bilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu holatda aniqlik interfeys sistemasida qabul qilingan qoida va fizik qurilmalar ulanishi va o'zaro bog'liqligining funksional harakteristikasi asosida amalga oshiriladi.

Avval qayd etganimizdek, OT ning asosiy vazifasi bu – resurslar taqsimoti va boshqarishdan iborat. OT foydalanuvchini resurslar taqsimotidan ozod qilib kompyuterni uch xil rejimda ishlashini ta'milashi mumkin: bir dasturlik; ko'p dasturlik; ko'p masalali.

Bir dasturli rejim – kompyuterning barcha resurslari faqat bir dasturga xizmat qiladi.

Ko'p dasturli rejim (multidastur) – OT bir vaqtning o'zida bir

Operatsion sistema quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Vinchester yoki disketalardan tanlangan dasturni tezkor xotiraga yuklaydi va bajarilishini ta'minlaydi. Dastur bajarilgach, tezkor xotirani –tozalaydi. Navbatdagi tanlangan dastur bilan ham Shu ishlarni amalga oshiradi.

Axborotlarni vinchesterdan diskka yoki aksincha, diskdan diskka ko'chirish kabi turli servis xizmatlarni amalga oshiradi.

Shuni aytib o'tish lozimki, kompyuterlarning texnik holatiga ko'ra, ulardagi operatsion sistemalar turlicha bo'ladi, ammo ularning asosiy vazifasi yagonadir. Bu - ichki va tashqi qurilmalarning birgalikda mutanosib ishlashini ta'minlashdan iborat.

Kompyuterning –dasturli ta'minoti, –texnik ta'minot va –operatsion sistemalari orasida uzviy bog'liqlik mavjudligini darslikda ko'rib o'tilgan.

Operatsion sistema bajaradigan vazifasidan qat'iy nazar ishonchlilik, himoyalash, samaradorlik va qulaylik kabi sifatlarga ega bo'lishi zarurdir.

Operatsion sistema ishlab chiqarilish tarixi bilan qisqacha tanishtiramiz. Dastlabki operatsion sistema 1940 yilning oxirlarida ishlab chiqarildi. U axborotni xotiraga kiritish va xotiradan o'qish uchun oddiy amallar yig'indisi sifatida tashkil etildi. Keyinchalik, ya'ni, 50-yillarning o'rtalarida, –operatsion sistemalar *dasturchilar ishlab chiqargan dasturlarni jamlash va resurslarga taqsimlash* uchun xizmat qilgan bo'lsa, 60- yillarning boshlarida *vaqtini dasturlarga ketma-ket taqsimlashga* asoslangan dastlabki –operatsion sistemalar paydo bo'ldi. Bu holda bitta kompyuterdan bir vaqtda bir necha kishi foydalanish imkoniyatini berdi. Bunday tizimlarda markaziy protsessor foydalanuvchilarda protsessorda faqat ularning dasturlari bajarilayotgandek tasavvur paydo qilib, boshqarish bir dasturdan ikkinchisiga tezlik bilan o'ta oladigan darajaga yetkazildi. Shu kabi tizimlarni yaratish chog'ida protsessor ishida vaqtning bolinishi, ko'plab foydalanuvchilar dasturlari o'rtasida xotira va boshqa turli resurslarni taqsimlash bilan aloqador muammolar yo'zaga chiqdi. Bu mammlarni hal etish

parallel jarayonlarni bir maromda amalga oshirishni ham qo‘shilgan tarzidagi virtual xotira, axborotlarni kiritish va chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan qator muhim yangiliklarga olib keldi.

Hozirgi kunda turli xil operatsion sistemalar mavjud. Siz darslikdan MS DOS operatsion sistemasi va uning asosiy qismlari hamda WINDOWS operatsion sistemasi haqida ma’lumot oldingiz.

IBM firmasi va MICROSOFT (Pol Allen va Bill Geyts) firmasi kompyuterlarida 1981 yildan boshlab MS-DOS operatsion sistemasi qo‘llanilib kelinmoqda. MS-DOS operatsion sistemasini takomillashtirib borib 1995 yilgacha MS-DOS 1.0 dan to MS-DOS 6.22 gacha bo‘lgan avlod (versiya)lari yaratildi. Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida amerikalik dasturchi Piter Norton tomonidan Norton Commander qobiq dasturi yaratildi. Bu qobiq dasturdan MS-DOS operatsion sistemasi asosida ishlaydigan juda ko‘p kompyuterlarda foydalanib kelindi. Operatsion sistemalarning turi ko‘p bo‘lib, quyidagilarni misol qilish mumkin: CP/M, MS DOS, PC DOS, DRD DOS, OS/2, LINUX, WARP, WINDOWS, UNIX, MACHINTOSH.

Operatsion sistemaning bir nechta turlari mavjud bo‘lib, ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

MS-DOS 16 razryadli mikroprotsesszorlar uchun; **CP/M** – 8 razryadli mikroprotsesszorlar uchun; **UNIX** – 32 razryadli mikroprotsesszorlar uchun;

Windows 95, ..., XP – 32 razryadli mikroprotsesszorlar uchun.

Operatsion sistemalar orasida Digital Research kompaniyasi prezidenti Geri Kildel tomonidan yaratilgan CP/M (Control Programm for Microcomputers)– shaxsiy kompyuterlar uchun ishlab chiqarilganlarining dastlabkisidir. U 1974 yilda 8 razryadli kompyuterlarga ko‘plab o‘rnatilgan va katta hajmdagi dasturiy ta’minot uchun tuzilgan. Masalan, Beysik, Paskal, Si, Kobol, Ada tillari translyatorlari, matnli, grafikli va jadvalli paketlar uchun mo‘ljallangan.

UNIX operatsion sistemasi tarmoqda ishlash uchun tuzilgan. **UNIX** operatsion sistemasida bitta kompyuter boshqaruvchi qolganlari unga tobe bo‘ladi.

Operatsion sistema odatda kompyuterning tashqi hotirasi – **diskda** saqlanadi. Kompyuter ishga tushirilganda u kompyuter-ning tezkor xotirasiga o‘qiladi. Bu jaroyon **operatsion sistemani yuklanishi** deyiladi.

Operatsion sistema quyidagi asosiy qismlardan iborat:

Ma’lumotlarni xotiraga kiritish va chiqarish dasturi (BIOS nomi bilan ifodalangan); operatsion sistemani faollashtiruvchi dastur (Boot Record);

ma’lumotlarni kiritish-chiqarish sistemasini kengaytirish moduli;

amallar bajarishda yo‘zaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zilishlarni tahlil qilish moduli; buyruq protsessori.

Shunday qilib, operatsion sistemalar kompyuter dasturlari orasida eng murakkabi bo‘libgina qolmay, ular kompyuterni nafaqat amal bajarishga, balki o‘zi bajarayotgan ishlarni ham nazorat qilishga majbur etadi. Bunday dasturlar bizning vazifalarimizni bajarish uchun emas, balki bizning ko‘rsatmalarimizni bajarishda kompyuter qurilmalarida biror kamchilik, muammo yo‘zaga kelmasligi uchun ishlab chiqariladi va qo‘llaniladi.

OT lardan quyidagi hususiyatlarga ega bo‘lishi talab qilinadi:

1. **Ishonchlilik.** OT o‘zi ishlayotgan qurilmalar bilan birga ishonchli bo‘lishi kerak. OT foydalanuvchining aybi bilan vujudga kelgan xatoni aniqlashi, uni tahlil qilishi va tiklash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. OT foydalanuvchining o‘zi tomonidan qilingan xatodan himoyalashi, hech bo‘lmaganda dasturiy muhitga keltiriladigan zararni minimumga olib kelishi kerak.
2. **Himoya.** OT bajarilayotgan masalalarning o‘zaro bir – biriga beradigan ta’siridan himoyalash kerak.
3. **Bashorat.** OT foydalanuvchi so‘roviga bashoratchilik bilan javob berishi kerak. Foydalanuvchi buyruqlari sistemada qabul

-  Matnni klaviaturadan kiritish
-  To'g'ri chiziqlar chizish
-  Qiyshiq chiziqlar chizish
-  To'rtburchak soha chizish
-  Aylana chizish
-  Burchaglari yo'q to'rtburchak chizish



РАНГЛАР ПАЛИТРАСИ

Sichqoncha yordamida asosiy yoki qalam rangini (chap tugma) va yordamchi yoki qog'oz rangini (o'ng tugma) o'zgartirishimiz mumkin.

Bu dastur imkoniyatlaridan to'liq foydalanmokchi bo'lsangiz u holda dasturning menyusi bilan tanishimiz kerak. Menyudagi buyruqlar ham tugmalarga o'xshab saralanib guruxlarga bo'lingan.

FAYL MENYU GURUXI

Создать - New (Ctrl + N) - Yangi rasm faylni yaratish

Открыть - Open (Ctrl + O) - Eski faylni taxrirlash (o'zgartirish) uchun ochish

Сохранить - Save (Ctrl + S) - Faylni qilingan o'zgarishlar bilan saqlash

Сохранить как - Save as - Faylni qilingan o'zgarishlar bilan yangi nom ostida saqlash

Параметры страниц - Page setup - Varaqa xususiyatlarini (razmeri, rasm chegaralarini qolontitullarini va xokazo) ko'rish va o'zgartirish

Печать - Print (Ctrl + P) - Rasm faylni pechatlash (bosmaga chiqarish)

Параметры печати - Print setup - Rasmni bosmaga chiqarish

ПРАВКА MENYU GURUXI


Отменить - Undo (Ctrl + Z) - Oxirgi harakatni bekor qilish

Повторить - Redo (Ctrl + Y) - Bekor qilingan harakatni

		iyun)			
1995-yil 30-may	<u>Windows NT 3.51</u>	3.51.1057 SP5 (1996-yil 19-sentabr)	2001-yil 31-dekabr		
1995-yil 24-avgust	<u>Windows 95</u>	4.00.950C (4.03.1214) (1997-yil 26-noyabr)	2000-yil 31-dekabr (as.) (Retail) 2001-yil 31-dekabr (SBL) (ext)	<u>Internet Explorer 5.5</u>	<u>Windows 9x</u>
1996-yil 29-iyul	<u>Windows NT 4.0</u>	4.00.1381 / SP6a SRP (2001-yil 26-iyul)	2002-yil 20-iyun (as.) 2003-yil 30-iyun (SBL) 2004-yil 31-dekabr (ext)	<u>Internet Explorer 6</u>	<u>Windows NT</u>
1998-yil 25-iyun	<u>Windows 98</u>	4.10.2222A (SE) (1999-yil 5-may)	2002-yil 30-iyun (as.) 2004-yil 31-mart (SBL) 2006-yil 11-iyul (ext)		<u>Windows 9x</u>
2000-yil 20-aprel	<u>Windows 2000</u>	5.0.2195 / 5.0 SP4 Rollup 1 v2 (2005-yil 13-sentabr)	2004-yil 31-mart (retail) 2005-yil 31-mart (SBL) 2005-yil 30-iyun (as.) 2010-yil 13-iyul (ext)		<u>Windows NT</u>
2000-yil 14-sentabr	<u>Windows ME</u>	4.90.3000 (2000-yil 14-sentabr)	2003-yil 31-dekabr (as.) 2004-yil 30-iyun (SBL) (Retail) 2006-yil 11-iyul (ext)		<u>Windows 9x</u>
2001-yil 24-avgust (RTM) 2001-yil 25-oktabr (sotuv)	<u>Windows XP</u>	5.1.2600.5512 SP3 (2008-yil 21-aprel)	2004-yil 30-sentabr (RTM) 2006-yil 10-sentabr (SP1/SP1a) 2008-yil 30-iyun (retail) 2009-yil 14-aprel (SP2/SP3 as.) 2010-yil 13-	<u>Internet Explorer 8</u>	<u>Windows NT</u>

			iyul (SP2) 2010-yil 22-oktabr (SBL) 2014-yil 8-aprel (ext)		
2003-yil 28-mart	<u>Windows XP 64-bit Edition</u>	5.2.3790	2006-yil 25-iyul		
2003-yil 24-aprel	<u>Windows Server 2003</u>	5.2.3790.3959 SP2 (2007-yil 13-mart)	2009-yil 30-iyun (RTM) 2010-yil 13-iyul (as.) 2015-yil 14-iyul (ext)		<u>Windows Server</u>
2005-yil 25-aprel	<u>Windows XP Professional x64 Edition</u>	5.2.3790.3959 SP2 (2007-yil 13-mart)	2008-yil 30-iyun (retail) 2009-yil 31-yanvar (SBL)		<u>Windows NT</u>
2006-yil 8-noyabr (RTM) 2007-yil 30-yanvar (sotuv)	<u>Windows Vista</u>	6.0.6001 / SP2 Build 6002 (2009-yil 25-may)	2010-yil 13-aprel (RTM) 2010-yil 22-oktabr (retail) 2011-yil 12-iyul (SP1) 2011-yil 22-oktabr (SBL) 2012-yil 10-aprel (as.) 2017-yil 11-aprel (ext)	<u>Internet Explorer 9</u>	
2007-yil 16-iyul	<u>Windows Home Server</u>	5.2.4500 (2007-yil 16-iyul)	2013-yil 8-yanvar (ext)		<u>Windows Server</u>
2008-yil 27-fevral	<u>Windows Server 2008</u>	6.0.6002 / SP2 build 6002 (2009-yil 25-may)	2011-yil 12-iyul (SP1) 2015-yil 13-yanvar (as.) 2020-yil 14-yanvar (ext)		
2009-yil 13-iyul (RTM) 2009-yil 22-oktabr (sotuv)	<u>Windows 7</u>	6.1.7601 / SP1 Build 7601 (2011-yil 22-fevral)	2013-yil 9-aprel (RTM) 2015-yil 13-yanvar (as.) 2020-yil 14-yanvar, 2023-yil 10-yanvar (ext)	<u>Internet Explorer 11</u>	<u>Windows NT</u>
2009-yil 13-iyul (RTM)	<u>Windows Server 2008</u>	6.1.7601 / SP1 Build	2015-yil 13-yanvar (as.)		<u>Windows Server</u>

HBIE guruxini topib ichidagi PAINT nomli dasturni ishga tushiramiz. Programma ishga tushgach ekranda standart dastur oynasini ko'ramiz.



5.5-rasm. Paint raster grafikali muhariri.


Dastur oynasi quyidagi qismlardan iborat: NOM SATRI (dastur belgisi, fayl nomi, dastur nomi va oynaning uchta asosiy tugmalarini ko'rsatadi), menyu satri (dasturning asosiy buyruqlar joylashgan menyu), YoRDAMCHI QUROLLAR (ASBOBLAR) TUGMALARI SATRI (yordamchi qurollar tugmalari joylashgan), ISH SOHASI (oq varaq), RANGLAR PALITRASI (har hil ranglar ko'rsat-kichlari), MA'LUMOTLAR SATRI (qo'shimcha ma'lumotlar). Bu dasturda ishlash uchun biz yordamchi qurollar bilan tanishimiz kerak.

PAINT YoRDAMCHI QUROLLARI (ASBOBLAR):

-  Rasmning kvadrat sohasini tanlash
-  Rasmning qismini o'chirish
-  Rasm qismini yaqinroq ko'rish
-  Avval ishlatilgan rangni qayta tanlash
-  CHegaralangan sohani rang bilan buyash (to'ldirish)
-  Qalam holatida chizish
-  Kraska chyotkasi holatida chizish

klaviaturadagi strelkalardan foydalanamiz.

Yozilgan matnli faylni saqlash uchun sichqoncha bilan menyuning **ФАЙЛ** bo'limini tanlab ichidagi **СОХРАНИТЬ** buyrug'ini tanlaymiz. Natijada **СОХРАНЕНИЕ ДОКУМЕНТА** oynasi paydo bo'ladi. Bu oyna orqali fayl saqlanishi kerak bo'lgan papka ichiga kirib oynaning pastki qismida joylashgan **ИМЯ ФАЙЛА** satriga saqlanayotgan faylning nomini yozamiz va **СОХРАНИТЬ** tugmasini bosamiz.



5.4-rasm. D dialog oynasi.

Qaysidir matnli faylni taxrirlash yoki ko'rish uchun ochmoqchi bo'lsak u holda sichqoncha bilan menyuning **ФАЙЛ** bo'limini tanlab ichidagi **ОТКРЫТЬ** buyrug'ini tanlaymiz. Natijada saqlashda chiqqan oynaga o'xshash **ОТКРЫТИЕ ДОКУМЕНТА** nomli oyna hosil qilinadi. Shu oyna orqali biz kerakli faylni topib, uni tanlab **ОТКРЫТЬ** tugmasini bosamiz. Matnli faylni bosmaga (printeriga) chiqarmoqchi bo'lsak sichqoncha bilan menyuning **ФАЙЛ** bo'limini tanlab ichidagi **ПЕЧАТЬ** buyrug'ini tanlaymiz.

WINDOWS dasturning ishchi stoli **ПУСК** menyusi. **ПРОГРАММЫ** bo'limining **СТАНДАРТНЫЕ** guruxi. **PAINT** dasturi.

Standart dasturlarning boshqasi bu **Paint**. **Paint** dasturi yordamida biz yangi rasm fayllarni yaratishimiz va eski fayllarni taxrirlashimiz (o'zgartirishimiz) mum-kin. Bu dasturni ishga tushirish uchun biz sichqoncha yordamida **ПУСК** tugmasini bosamiz, keyin **ПРОГРАММЫ** bo'limini tanlaymiz. Shu bo'limdagi **СТАНДАРТ-**

2009-yil 22-oktabr (sotuv)	<u>R2</u> yoki Windows Server 7	7601 (2011-yil 22-fevral)	2020-yil 14-yanvar (ext)			
2011-yil 6-aprel	Windows <u>Home Server 2011</u>	6.1.8400	2016-yil 12-aprel (ext)			
2012-yil 1-avgust (RTM) 2012-yil 4-sentabr (sotuv)	Windows <u>Server 2012</u>	6.2.9200 (2012-yil 26-oktabr)	2018-yil 9-oktabr (as.) 2023-yil 10-oktabr (ext)			
2012-yil 1-avgust (RTM) 2012-yil 26-oktabr (sotuv)	<u>Windows 8</u>	6.2.9200 (2012-yil 26-oktabr)	2016-yil 12-yanvar (ext)			<u>Windows NT</u>
2013-yil 21-avgust (RTM) 2013-yil 17-oktabr (sotuv)	<u>Windows Server 2012 R2</u>	6.3.9600 (2013-yil 17-oktabr)	2018-yil 9-yanvar (as.) 2023-yil 10-yanvar (ext)			<u>Windows Server</u>
2013-yil 21-avgust (RTM) 2013-yil 17-oktabr (sotuv)	<u>Windows 8.1</u>	6.3.9600 (2013-yil 17-oktabr)	2018-yil 9-yanvar (as.) 2023-yil 10-yanvar (ext)			<u>Windows NT</u>
2015-yil 15-iyul (RTM) 2015-yil 29-iyul (sotuv)	<u>Windows 10</u>	21H1 (2021-yil 18-may)	2025-yil 17-oktabr (as.)	<u>Microsoft Edge / Internet Explorer 11</u> (muvofiqlik uchun qoldirilgan)	<u>Windows Server</u>	
2016-yil 29-sentabr (RTM) 2016-yil 12-oktabr (sotuv)	<u>Windows Server 2016</u>	1607 (10.0.14393) (2016-yil 26-sentabr)	2022-yil 11-yanvar (as.) 2027-yil 11-yanvar (ext)	<u>Internet Explorer 11</u>		
2018-yil 14-avgust (RTM) 2018-yil 2-oktabr (sotuv)	<u>Windows Server 2019</u>	1809 (10.0.17763) (2018-yil 11-noyabr)	noma'lum			
2021-yil 2-mart (RTM) (hali sotuvga chiqmagan)	<u>Windows Server 2022</u>	Beta (2021-yil 2-mart)	noma'lum			
2021-yil 24-iyun	<u>Windows 11</u>	2021-yil 24-iyun (ohirgi versiyasi 22H2.22621.1702)	noma'lum	<u>Microsoft Edge</u>	<u>Windows NT</u>	

5.2-§. Windows operatsion tizimi imkonoyatlari.


Windows mustaqil operatsion tizim sifatida quyidagi afzalliklarga ega:

- o‘zlashtirishda nihoyatda oddiy va imkoniyatlaridan foydalanish ko‘lami qulay;
- u yuqori samaradorlikka ega va mazkur xususiyati bilan WINDOWS ning istalgan avvalgi lahjalaridan keskin farqlanadi. Xususan, Microsoft firmasi yangi 32 razryadli yadroni tatbiq etish bilan samaradorlik va ishonchlilikni keskin oshirishga erishdi;
- foydalanuvchi atigi bitta dasturiy ta‘minot mahsulotini xarid qilib, qator muhim imkoniyatlarni qo‘lga kiritadi: universal tarmoq mijoziga aylanadi, elektron pochtdan foydalana oladi, multimedia vositalaridan bahra oladi va hokazo;
- sodda, dasturlar majmui barkamol va yuqori unumlilikka ega.

Windowsning bu ekrani **Ish stoli** deb ataladi. Sizning odatdagi ish stolingizdagi hujjatlar, asboblari, yozuv qog‘ozlari va Shu kabilar joylashganidek kompyuter ekranida ham ishlash uchun kerak bo‘lgan ma‘lumotlar joylashtiriladi. Ish stoli ko‘rinishi foydalanuvchi tomonidan o‘zgartirib turilishi mumkin. U foydalanuvchi tomonidan ko‘p ishlatiladigan dasturlarni joylashtirish uchun qo‘llaniladi. Windows ish stolining elementlar to‘plami kompyuterning sozlovchilari bilan bog‘liq. Windowsda ko‘plab elementlarni yodda saqlash, ajratib olish va ular bilan ishlash oson bo‘lishi uchun piktogrammalar (yorliqlar) deb ataluvchi mos rasmchalar qo‘yiladi. Ularni ko‘pincha ikonalar (timsollar) deb ham ataydilar. Ular mos dasturni xotiraga tez chaqirish (yuklash) imkoniyatini beradi. Mualliflar dasturlar uchun ularning mohiyatini ifodalab beruvchi maxsus rasmchalar tayyorlaydilar. Hujjat fayllari uchun piktogramma sifatida o‘sha hujjat tuzilgan dasturning belgisi ko‘rsatiladi.

Shulardan birinchisi va asosiy bo'lim bu ПРОГРАММЫ bo'limi. ПРОГРАММЫ bo'limi yordamida kompyuterimizga o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini ko'rishimiz va ularni ishga tushirishimiz mumkin. Bu bo'lim ichidagi dasturlar va ular guruxlar ro'yxatida СТАНДАРТНЫЕ nomli dasturlar guruxi joylashadi. Bu dasturlar WINDOWS tarkibidagi (birgalikda beriladigan) dasturlar dir. Bu dasturlar yordamida biz har hil asosiy amallarni bajarishimiz mumkin (matn yozish, rasm chizish, musiqa eshitish, video ko'rish, hisob kitob qilish, o'yin o'ynash va xokazo). Bu dasturlarning kamchiligi bor - Shu dasturlar yordamida sodda fayllarni yaratishimiz va dasturlar yordamida tashqi qurilmalarning kam imkoniyatlaridan foydalanishimiz.

Shu dasturlardan birinchi tanishadigan dastur bu - БЛОКНОТ (NotePad) dasturi. Uning yordamida eng sodda matnli (txt va wri kengaytmali) fayllarni yaratishimiz va taxrirlashimiz mumkin. Bu dasturda hamma matn bitta harflar shrifti (shakli) bilan va bitta razmerida (kattalikda) yoziladi, rasm va jadvallar bilan ishlash imkoniyatlar yo'q.



5.3-rasm. БЛОКНОТ matn muhariri dasturi.

Bu dasturni ishga tushurish uchun biz sichqoncha yordamida ПУСК tugmasini bosamiz, keyin ПРОГРАММЫ bo'limini tanlaymiz. Shu bo'limdagi СТАНДАРТНЫЕ guruxini topib ichidagi БЛОКНОТ nomli dasturni ishga tushiramiz.

Programma ishga tushgach ekranda standart dastur oynasini ko'ramiz. Uning asosiy ish sohasi oq varaqqa o'xshash bo'lib unda qora chiziqcha - kursor jolyshadi. Bu kursor turgan joyda matn paydo bo'ladi. Kursorni joylashinishini o'zgartirish uchun

Bu menyu 9 bo'limdan iborat:

ПРОГРАММЫ bo'limi yordamida sizning kompyuterinigizga o'rnatilgan dasturlar ro'yxatini ko'rishimiz va ularni ishga tushirishimiz mumkin

ДОКУМЕНТЫ bo'limi yordamida siz tomoningizdan oxirgi ishlatilgan doqumentlar (matn, rasm, musika va boshqa fayllar) ro'yxatini ko'rishimiz va ularni qayta ishga tushirishingiz mumkin

ИЗБРАННОЕ bo'limi yordamida siz yaxshi ko'rgan Internet saxifalar ro'yxatini ko'rishingiz va Shu saxifalarga tezkor o'tishingiz mumkin

НАСТРОЙКА bo'limi yordamida Windows dasturning ishlash holatlarini va kompyuter qurilmalar xususiyatlarini o'zgartirish va sozlashimiz mumkin

ПОИСК bo'limi yordamida fayl. Papka yoki tarmoqdagi kompyuterni qidirishimiz mumkin

СПРАВКА buyruq yordamida Windowsda ishlash jarayonida paydo bo'lgan savollar va ularga javoblar to'plamini ko'rishimiz mumkin

ВЫПОЛНИТЬ buyrug'i yordamida har hil dasturlarni yoki buyruqlarni bajarishimiz mumkin.

ЗАВЭРШЭНИЭ СЭАНСА buyrug'i yordamida foydalanuvchining ishlash seansini tugatishimiz va yangisini boshlashimiz mumkin

ЗАВЭРШЭНИЭ РАБОТЫ buyrug'i yordamida kompyuter ishini tugatib o'chirishimiz mumkin. Agar paydo bo'lgan oynada Perezagro'zity bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak u holda kompyuter o'chirib qayta yoqiladi. Agar esa Приостановить bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak u holda kompyuter ishini to'xtatib turadi. Agar esa Выключить компьютер bayroqchani tanlab OK tugmasini bossak kompyuter o'chiriladi. Kompyuterni o'chirishdan avval hamma ochiq oynalar va ishlab turgan dasturlarni berkitishimiz kerak, chunki kompyuter ular ichidagi ma'lumotlarni saqlab qo'yishi kerak.

Endi shu bo'limlar bilan yaqinroq tanishishni boshlaymiz.



5.1-rasm. Windiws 10 ishchi stoli.

Ish stolida quyidagi elementlar joylashgan bo‘lishi mumkin:

- papkalar (tizimning va foydalanuvchining papkalari);
- hujjat va dastur fayllari;
- qurilmalar, papkalar va fayllar uchun yorliqlar.

Odatda ekranda tizim papkalari va ko‘p murojaat qilinadigan ob’yektlarning yorliqlari joylashgan bo‘ladi.

PAPKA va YORLIQLAR - har hil dasturlar va fayllar belgilari, ular yordamida Shu dasturlar ishga tushiriladi yoki Shu fayllar ochiladi.

DASTUR OYNALARI - dastur bajariladigan oyna.

PUSK MENYUSI - (WINDOWS) ning asosiy buyruqlari joylashgan menyusi, ular yordamida Windows ustidan har hil amallarni bajarishimiz mumkin.

VAZIFALAR SATRI - faol dasturar va fayllar nomlarni ko‘rsatuvchi tugmalar joylashadi va ulardan yordaimda bittasidan boshqasiga tezkor o‘tish ta‘minlanadi.

KO‘RSATKICHLAR SOHASI - vaqt va kun haqida ma’lumotlar, klaviatura til standarti, tovush balandligi, printer, ekran va boshqa qurilmalar hamda har xil dastur belgilari joylashadi, ular yordamida Shu qurilmalar xususiyatlarini yoki Shu dasturlar ishlash holatlarini o‘zgartirishimiz mumkin

Windows dasturida hamma dastur, papka va fayllar alohida o'zining oynasida bajariladi. Oyna - bu ekranning chegaralangan to'rtburchak soha.

NOM SATRI -oynaning eng yuqoridagi qismi. Bu satrda dastur belgisi, fayl nomi va dastur nomi, oynaning uchta asosiy tugmalari joylashgan bo'ladi. Shu satrga sichqoncha bilan bosib turib, harakatlantirsak, u holda oynani ekranda joyini o'zgartirish mumkin.

MENYU SATRI - oynaning bu satri asosan nom satri tagida joylashadi va Shu satr yordamida dasturning hamma buyruqlari bilan ishlashimiz mumkin, chunki bu satrda hamma buyruqlar saralanib guruhlanga bo'lingan.

YORDAMCHI QUROLLAR (ASBOBLAR) TUGMALARI SATRI - oynaning uchinchi satri bo'lib bu satrda yordamchi qurollar (asboblar) tugmalari joylashgan, ular yordamida dasturning har xil asosiy va ko'p ishlatiladigan buyruqlarni tezkor bajarishimiz mumkin.

ISH SOHASI - oynaning asosiy qismi bo'lib uning ichida dastur bajariladi va ma'lumotlar ko'rsatiladi.

MA'LUMOTLAR SATRI - oynaning eng pastki satri. Bu satrda har xil qo'shimcha ma'lumotlar ko'rsatiladi

OYNA CHEGARALARI - oynaning to'rt tomonida joylashgan qalin chiziqli sohalar. Ularni sichqoncha yordamida bosib turib siljitsak natijada oynani hajmini o'zgaradi (cho'ziladi, kattalashadi yoki kichkinalashadi).

KO'RIB CHIQISH CHIZG'ICHLARI - oynaning o'ng va pastki qismlarda joylashgan sohalar. Ular yordamida oyna ichidagi ma'lumotlarni to'liq ko'rib chiqish mumkin, buning uchun Shu sohalardagi ustki yoki pastki, chap yoki o'ng tomondagi strelkalarni bosish kerak yoki Shu sohalarda joylashgan to'rtburchak ko'rsatkichni qo'zg'altirish kerak.

Oynaning nom satrida joylashgan asosiy uchta tugmasi yordamida biz oynaning umumiy ko'rinishini o'zgartirishimiz mumkin. Oyna 3 xil ko'rinishda bo'lishi mumkin: kattalash-

tartiblash.

ОБНОВИТЬ - oynadagi ma'lumotlarni va o'zgarishlarni yangilash.

НАСТРОИТЬ ВИД ПАПКИ - oynaning tashqi ko'rinishini (orka rangni, izoxni, matn to'rini, uning rangini va ishlash holatlarini) sozlash.

ВСТАВИТЬ - xotirada joylashgan ob'yektni Shu oynaga qo'yish.

ВСТАВИТЬ ЯРЛЫК-xotirada joylashgan ob'yektgacha YORLIQni Shu oynaga qo'yish.


ОТМЭНИТЬ - oxirgi harakatni bekor qilish.

СОЗДАТЬ - Shu oynada yangi papka, YORLIQ yoki har hil yangi faylni yaratish.

СВОЙСТВА - tanlangan disk, papka, fayl yoki YoRLIQning xususiyatlarini ko'rish.

5.3-§. WINDOWS dasturning ishchi stoli ПУСК menyusi. ПРОГРАММЫ bo'limining СТАНДАРТНЫЕ guruxi dasturlari.

Kompyuterda Windows operatsion tizim ustidan va uning yordamida kompyuter va uning qurilmalar ustidan biror bir ammal bajarmoqchi bo'lsangiz, siz ПУСК menyusidan foydalanishingiz mumkin. ПУСК tugmasini sichqonchaning chap tugmasi bilan bossangiz WINDOWS ning menyusi ochiladi.



5.2-rasm. Windows OT asossiy menyusi (windows 7 va windows 11 - Start)

4. ЖУРНАЛ - ish sohani chap tamondagi qismda oxirgi ochilgan va kurilgan internet saxifalar ro'yxatini ko'rsatish yoki ko'rsatmaslik

5. УДАЛИТЬ - tanlangan ob'yektni o'chirish

МОЙ КОМПЮТЕР Windowsning maxsus pakalaridan asosiy bo'lib u yordamida biz Xohlagan diskda joylashgan papka va fayllar bilan ishlashimiz mumkin. Ushbu papkani ochganimizdan keyin biz uning oynasida quyidagi belgilarni ko'rishingiz mumkin. Bulardan



- qattiq disklar. Ushbu belgi yordamida biz qattiq diskdagi (vinchesterlardagi) ma'lumotlarni ko'rishimiz va ularni o'qishimiz mumkin. Ushbu disklar kompyuterning ichida joylashadi va ular doimiy xotira ham deb nomlanadi.



- kompakt disklar. Ushbu belgi yordamida biz kompakt (lazerli) diskdagi ma'lumotlarni ko'rishimiz va ularni o'qishimiz mumkin.



- papkalar (kataloglar). Ushbu belgi yordamida biz yumshoq, qattiq yoki kompakt diskdagi ma'lumotlarni saralaymiz. Har bir papka ichida boshqa papkalar yoki fayllar joylanishi mumkin. Papkani ochib ularni ko'rishimiz va o'qishimiz mumkin.



- belgilari bilan esa har hil fayllar belgilanadi.

МОЙ КОМПЮТЕР ning ish sohasiga sichqoncha bilan ko'rsatib bir marta o'ng tugma bilan bosganimizda kontekst menyu hosil qilinadi.

Shu kontekst menyu orqali biz quyidagi amallarni bajarishimiz mumkin.

ВИД - oynadagi belgilar ko'rinishini o'zgartirish (kata belgilar, kichik belgilar, ro'yxat ko'rinishida, jadval ko'rinishida yoki eskiz ko'rinishida)

УПОРЯДОЧИТЬ ЗНАЧКИ - oynadagi belgilarni saralash (nomi bo'yicha, turi bo'yicha, xajmi bo'yicha, yaratilgan kuni bo'yicha yoki avtomatik ravishda)

ВЫСТРОИТЬ ЗНАЧКИ - oynadagi belgilarni ekranda

tirilgan, normallashtirilgan va kichinalashtirilgan. Tugmalar esa 4 hil ko'rinishida bo'lishi mumkin.



1 - Kichiklashtirish (Свернуть) - Oynaga mos tugma vazifalar satrida qoldirib, ekrandan olib tashlash. Shu tugmaga bosganimizda oyna yana o'zining oldingi holatga o'tadi.

2 - Kattalashtirish (Развернуть) - Oynani butun ekran hajmdagi holatga o'tkazish.

2 - Normallashtirish (Нормализовать) - Oynani o'rtacha hajmdagi holatga o'tkazish

3 - Berkitish (Заккрыть) - Oynani berkitish, vazifalar satri va ekrandan olib tashlash.

Windows da matn kiritishdan tashqari qolgan amallarni barchasini sichqoncha yordamida bajarishimiz mumkin. Sichoncha yordamida bajariladigan harakatlar:

Bittali bosish yoki tanlash - sichqonchani chap tugmasini bir marta bosib qo'yib yuborish.

Ikkitali bosish yoki ochish - sichqonchani chap tugmasini ikki marta tez ravishda bosib qo'yib yuborish.

Kontekst (yordamchi) menyusini chiqarish - sichqonchani o'ng tugmasini bir marta bosib qo'yib yuborish.

Ko'chirib olish yoki siljitish - sichqonchani chap tugmasini bosib qo'yib yubormasdan joyidan qo'zg'altirish.

Yordamchi qurollar tugmalaridan tashqari Windows ning sichqoncha bilan ishlash uchun mujallangan o'zinig oyna muloqot elementlari ham mavjud.

Oynalarning muloqot elementlari:



- Hamma o'zgartirilishni saqlab oynani berkitish tugmasi.




- Hamma o'zgartirishlarni bekor qilib oynani berkitish tugmalari.



- Hamma o'zgarishlarni saqlab oynani berkitmaslik tugmasi.




- Oynani berkitish tugmasi




- Berk ro'yxat. O'ng tomondagi strelkachani sichqoncha yordamida bosganimizda Shu ro'yxat sohasi ochiladi. Agar ro'yxat ochilgan sohaga sig'masa, u holda uni to'liq ko'rib chiqish uchun o'ng tomondagi ko'rib chiqish ko'rsatkichlardan foydalanamiz.




- Ochiq ro'yxat. Agar ro'yxat sohaga sigmagan bo'lsa, u holda uni to'liq ko'rib chiqish uchun o'ng tomondagi ko'rib chiqish ko'rsatkichlardan foydalanamiz.



- Bayroqchalar. Yumaloq bayroqchalar yordamida bir vaqt o'zida faqat bittasini tanlashimiz mumkin bo'lsa, to'rtburchak bayroqchalar yordamida esa bir vaqt ichida bir nechtasini ham tanlashimiz mumkin.



- Kiritish sohasi. Bu sohaga ma'lumotlarni kiritish uchun sichqonchaning chap tugmasi bilan Shu sohaga bir marta bosamiz.



- Schetchik. Bu sohadagi ma'lumotlarni o'zgartirish uchun schetchik chap tomondagi yuqoridagi yoki pasdagi strelkachalarni sichqonchaning chap tugmasi bilan bosamiz.



- Begunok. Bu element yordamida biz har hil qurilmalar xususiyatlarini o'zgartirishimiz mumkin. Buning uchun sichqonchan.

WINDOWS dasturning maxsus papkalar bilan tanishish.

МОЙ Компьютер papkasi.

WINDOWS ish stolida papka YORLIQLar va har hil maxsus belgilar joylashadi. PAPKA -bu so'z bilan nomlangan diskdagi ma'lumotlar sohasi, uning ichida boshqa papka va fayllar joylanishi mumkin. Bu sohada fayl va boshqa papkalar saqlanishi mumkin. YORLIQ - bu diskda joylashgan fayl yoki dasturgacha yo'llanma. Bu yo'llanmaga sichqoncha bilan ikkitali bosish

yordamida kirsak, kompyuter yo‘llanmaga mos fayl yoki dasturni ochib beradi. Bitta fayl yoki dastur bir nechta YORLIQLarga ega bo‘lishi mumkin. Maxsus yoki ish stolning asosiy papkalari - bu Windows dastur ustidan har hil amallarni bajaruvchi maxsus dasturlarga yo‘llanma. Ular quyidagicha:

	МОЙ КОМПЬЮТЕР - maxsus papka yordamida sizning kompyuterin-gizda joylashgan disklar, papkalar va ular ichidagi fayllarni ko‘rish va ular bilan ishlash (har hil amallar bajarish) imkoniyat yaratadi.
	СЕТЕВОЕ ОКРУЖЕНИЕ - maxsus papka yordamida sizning kompyuterinizga tarmoqqa ulangan kompyuterlardagi fayl, papka va disklar bilan ishlash imkoniyat yaratadi.
	КОРЗИНА - maxsus papkada siz tomoningizdan yaqinda o‘chirilgan fayl va papkalarni ro‘yxati joylashadi. Bu belgi yordamida esa Shu papkaga tezkor o‘tishingiz va ro‘yxat yordamida ularni qayta joyiga tiklashingiz mumkin bo‘ladi.

Windowsning maxsus papkalar quyidagi qismlardan iborat: Nom satri, Menyu satri, Yordamchi qurollar tugmalari satri, Ish soha, Ma’lumotlar satri, Oyna chegaralari va ko‘rib chiqish chizg‘ichlari. Ushbu qismlar bilan biz o‘tgan mavzuda tanishganmiz. Ushbu papkalarining hammasida yordamchi qurollar (asboblari) tugmalari satri bir hil bo‘lib ular yordamida biz eng asosiy amallar va harakatlarni bajarishimiz mumkin. Shu tugmalar bilan yaqinroq tanishaylik.



1. НАЗАД - oynaning oldingi ko‘rinishiga o‘tish,
2. ВПЕРЕД - oynaning keyingi ko‘rinishiga o‘tish,
3. ПОИСК - fayl, papka, kompyuterni, Internet saxifani qidirish

bo‘linishiga aytiladi. Odatda tomalar katta xajmdagi arxivni bir necha disklarda saqlash uchun qo‘llaniladi. Bu holda birinchi tom odatdagidek .rar kengaytmali bo‘ladi, qolganlari esa mos ravishda .r00, .r01, .r02 va xokazo. Tomlar xam o‘zuluksiz va xam o‘zini-o‘zi ochadigan ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Yaratilgan tomlarni o‘zgartirish, ya’ni unga biror faylni qo‘shish, yangilash yoki undan biror faylni o‘chirish mumkin emas.

Fayl va papkalarni o‘zuluksiz arxivlash deganda, ularni faqat RAR formatida, maxsus usulda bitta ma’lumotlar ketma-ketligi sifatida qaralib zichlashtirishga aytiladi. Bu bilan zichlash samaradorligi ancha yuqori bo‘lishiga erishiladi. Ammo bunday arxivlashning kamchiliklari xam bor, masalan:

- ularni yangilash, yahni orasidagi biror faylni yangisi bilan almashtirish, oddiy arxivlashdan ko‘ra sekinroq amalga oshiriladi;
- biror faylni arxivdan chiqarish uchun barcha oldinroqda turganlari tekshirib chiqiladi, agar ulardan birortasi bo‘zilgan bo‘lsa, u holda arxivdan umuman chiqarib bo‘lmaydi;

Bunday arxivlash usulidan quyidagi xollarda foydalangan maqsadga muvofiq:

- arxivni kamdan-kam yangilansa;
- arxivdagi fayllardan bir yoki bir nechtasini tez-tez chiqarib turish zarurati bo‘lmasa;
- zichlash samaradorligi zichlash tezligidan muhimroq bo‘lsa.

Bu arxivlovchi dastur xar ikkala formatda ham, kompyuterda WinRAR arxivatori bo‘lmasa xam o‘zini-o‘zi ocha oladigan SFX ko‘rinishidagi .exe kengaytmali arxiv fayllari yaratish imkonini beradi. Shuning uchun uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga tushirish orqali ochish mumkin. Bu holda barcha fayllar arxivdan chiqadi. Bundan tashqari arxivlangan fayllarni parolg‘ bilan himoyalab qo‘yish, fizik bo‘zilgan fayllarni qayta tiklash va boshqa ko‘pgina amallarni bajarish imkonini yaratib beradi. WinRAR ni ishga tushirish uchun bir necha usullar mavjud bo‘lib, ulardan biri bosh menyu orqali

takrorlash

Вырезать -Cut (Ctrl + X) - Tanlangan rasm qismini xotiraga kirkib olish

Копировать - Copy (Ctrl + C) - Tanlangan rasm qismini xotiraga nusxasini olish

Вставить - Paste (Ctrl + V) - Kursor turgan joyga xotiradagi rasm qismini qo'yish

Очистить vsyo (Del) - Tanlangan sohani tozalalsh (o'chirish)

Выделить vsyo (Ctrl + A) - Butun rasmni guruxga olish

Копировать v - Copy to - Tanlangan soha nusxasini boshqa faylga ko'chirish

Вставить из - Paste from - Boshqa fayldan rasm qismini ko'chirish

ВИД MENYu GURUXI

Инструменты-Tools and Lines (Ctrl+T)-Yordamchi qurollar qismini ekranga chiqarish

Палитра (Ctrl+L) - Ranglar qismini ekranga chiqarish

Строка состояния - Ma'lumotlar satrini ekranga chiqarish

Панель атрибутов текста - Matn xususiyatlari qismini ekranga chiqarish

Масштаб - Rasmni ko'rish masshtabin o'zgartirish

Просмотреть рисунок (Ctrl+F) - Rasmni tayyor holatini ko'rish

РИСУНОК MENYu GURUXI

Отразить / Повернуть (Ctrl+R) – Aylantirish

Растянуть / Наклонить (Ctrl+W) – Qiyshaylantirish

Обратить тсвета (Ctrl+I) - Ranglarni o'zgartirish

Атрибуты (Ctrl+E) - Fayl xususiyatlarini o'zgartirish

Очистить (Ctrl+Shift+N) - Fayl rasmini tozalash

Непрозрачный фон - Rangsiz fon


ПАЛИТРА MENYu GURUXI

Изменить палитру - Asosiy ranglar tarkibini o'zgartirish

WORD PAD dasturi. STANDART dasturlarning boshqasi bu - WORD PAD dasturi. Uning yordamida esa murakkabroq (doc txt

wri rtf kengeytmali) matnli fayllarni yaratishimiz mumkin. Bu dasturda matn har hil harflar shrifti (shakli), har hil razmerida (kattalikda) va har hil ko'rinishida yoziladi, rasmlar bilan ishlash imkoniyat bor. Leykin jadvallar bilan ishlash imkoniyati yo'q.

Bu dasturni ishga tushirish uchun biz sichqoncha yordamida ПУСК tugmasini bosamiz, keyin ПРОГРАММЫ bo'limini tanlaymiz. Shu bo'limdagi СТАНДАРТНЫЕ guruxini topib ichidagi WORD PAD nomli dasturni ishga tushiramiz. Programma ishga tushgach ekranda standart dastur oynasini ko'ramiz. Dastur oynasi quyidagi qismlardan iborat: NOM SATRI (dastur belgisi, fayl nomi, dastur nomi va oynaning uchta asosiy tugmalarini ko'rsatadi), menyu satri (dasturning asosiy buyruqlar joylashgan menyu), Yordamchi qurollar Tugmalari satri (yordamchi qurollar tugmalari joylashgan), Ish sohasi (oq varaq), Ma'lumotlar satri (qo'shimcha ma'lumotlar).



5.6-rasm. WordPad matn muhariri dasturi.

Bu dasturda ishlash uchun biz yordamchi qurollar bilan yaqinroq tanishimiz kerak. Ular ishlash holatlari bo'yicha guruxlarga bo'lingan.

Standart dastirlar bo'limi (СТАНДАРТНАЯ)



Создать - New (Ctrl+N) - Yangi matnli faylni yaratish




Открыть - Open (Ctrl+O) - Eski faylni taxrirlash

- arxivning to'liqligini tekshirishda ishlatiladigan har bir faylning tsiklik tekshirish kodi.

Arxiv fayllari oddiy fayllar kabi nomlanadi. quyida biz Windows muhitida fayllarni arxivlash uchun yaratgan WinRAR dasturi bilan tanishib chiqamiz.

WinRAR arxivlash dasturi. WINRAR ni grafik qobiqli rejimda foydalanish WINRAR belgisi ustida sichqoncha tugmasini ikki marta bosish bilan yoki ПУСК\ПРОГРАММЫ\ WINRAR buyruqlari ketma ketligida bo'lishi mumkin. Shundan keyin biz WINRAR ish stolini ko'rishimiz mumkin uning asboblari paneli tugmalari va menyularidan foydalanib fayllarni arxivlashimiz yoki arxiv fayllarni ochishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda menyular yordamida fayl va kataloglar ustida turli xil ishlarni olib borishimiz xam mumkin bo'ladi .



5.13-rasm. WinRAR dasruti.

WinRAR arxivlovchi dasturi RAR formatidagi arxiv fayllari hosil qiladi. RAR formatidagi arxivning ustunlik tomonlari bir nechta bo'lib, ular birinchidan zichlash samaradorligi ancha yuqori, ikkinchidan ko'p tomli va o'zuluksiz arxivlar hosil qila oladi, uchinchidan 8 Eksobaytgacha hajmli fayllarni xam arxivlash imkonini beradi.

Tom deb arxivning bir necha qismdan iborat bo'laklarga

yoki faylning tasodifan o'chirilishi sodir bo'lgan hollarda joriy faylni qayta tiklash uchun yordam beruvchi vosita sifatida ham qo'llaniladi. Umuman arxivlash - bu o'zoq muddat saqlanuvchi fayllar, kam qo'llaniladigan, eski hujjatlar, har xil materiallar, adabiy va ilmiy maqolalar, rasm va boshqalarni saqlash uchun qo'llaniladi. Arxiv bir qancha qismlardan iborat bo'lishi va unda har bir fayl alohida ko'rinishda saqlanishi mumkin. Bunday arxiv fayllari ko'p tomli deb ataladi. Shunday arxivlardan katta hajmli ma'lumotlarini qismlarga bo'lib disketalarga sig'adigan, qulay ko'rinishga keltirish uchun foydalanish mumkin. Bunda har bir qism fayl ham arxiv fayli deb ataladi.

Arxiv hosil qilish jarayoni arxivlash (arxivatsiya) deyiladi. Siqilgan faylni eski holiga qaytarish arxivlarni ochish (razarxivatsiya) deyiladi. Arxivlashni fayllar guruhi, to'liq fayllar strukturasi bo'yicha yoki papkalar bo'yicha ham qilish mumkin. Arxivlanuvchi fayllarda papkalar ko'p bo'lsa, ularni oldin bitta papkaga yig'ib olish ishini osonlashtiradi. Elektron pochta va Internet muhitida arxivlangan holdagi ma'lumotlarni almashish bir qator qulayliklar yaratadi. Arxivlash jarayonida ayrim fayllar juda yaxshi ixchamlanishi, bahzi hollarda arxivlash natijasida boshlang'ich fayl 10-20 baravar siqilishi ham mumkin. Masalan, dastur fayllariga nisbatan tekst va rasm fayllari ancha yaxshi ixchamlanadi.

Hozirgi kunda har xil arxivatorlar bir-biridan siqish darajasi, tezligi, foydalanishda qulayliklari, imkoniyat darajasi bo'yicha farq qiladi. Foydalanuvchi har xil turdagi arxiv fayllarini kengaytmasi bo'yicha farqlaydi. Siqish turi Shu arxivning formati deyiladi. Arxivlangan fayl arxivda qaysi fayllar borligini bildiruvchi sarlavhaga ega bo'ladi. Arxiv sarlavhasida unda saqlanuvchi har bir fayl uchun quyidagi ma'lumotlar saqlanadi:

- fayl nomi;
- fayl saqlanuvchi katalog haqida ma'lumot;
- faylning oxirgi marta qayta ishlangan sanasi va vaqti;
- faylning diskdagi va arxivdagi o'lchami;

(o'zgartirish) uchun ochish



Сохранить - Save (Ctrl+S) - Faylni qilingan o'zgarishlar bilan saqlash



Печатать - Print (Ctrl+P) - Mantli faylni pechatlash (bosmaga chiqarish)



Вырезать - Cut (Ctrl+X) - Tanlangan matn qismini xotiraga qirqib olish



Копировать - Copy (Ctrl+C) - Tanlangan matn qismini xotiraga nusxasini olish



Вставить - Paste (Ctrl+V) - Kursor turgan joyga xotiradagi matn qismini qo'yish

Отмена - Undo (Ctrl+Z) - Oxirgi harakatni bekor qilish



Дата и время - Date - Matn ichiga vaqt va kun haqida ma'lumotni qo'shish.

Formatlash bo'limi (ФОРМАТИРОВАНИЕ)



Шрифт - Font - Harflar shaklini (shriftini) o'zgartirish



Размер - Size - Harflar kattaligini o'zgartirish



Жирный - Bold (Ctrl+B) - Kalin (yo'g'on) harflar holatiga o'tish



Курсив - Italik (Ctrl+I) - Qiyshiq (yotik) harflar holatiga o'tish



Подчеркнутый - Underline (Ctrl+U) - Tagi chiziqli harflar holatiga o'tish



Центрировать слева - To left (Ctrl+L) - Matnni varagning chap tomoni bo'yicha to'g'irlash



Центрировать по центру - To center (Ctrl+E) - Matnni varag'ning o'rtasi bo'yicha to'g'irlash



Центрировать справа - To right (Ctrl+R) - Matnni varaqaning o'ng tomoni bo'yicha to'g'irlash



Цвет - Color - Harflar rangini o'zgartirish

Bu dastur imkoniyatlaridan to'liq foydalanmokchi bo'lsangiz u holda dasturning menyusi bilan tanishimiz kerak. Menyudagi buyruqlar ham tugmalarga o'xshab saralanib guruxlarga bo'lingan.

Файл bo'limi (ФАЙЛ)

Создать - New (Ctrl + N) - Yangi matnli faylni yaratish

Открыть - Open (Ctrl + O) - Eski faylni taxrirlash (o'zgartirish) uchun ochish

Сохранить - Save (Ctrl + S) - Faylni qilingan o'zgarishlar bilan saqlash

Сохранить как-Save as-Faylni qilingan o'zgarishlar bilan yangi nom ostida saqlash Печать -Print (Ctrl + P) - Matnli faylni pechatlash (bosmaga chiqarish)

Предварительный просмотр - View - Fayl tayyor holatini ko'rish.

Макет страницы - Page setup - Varaqa xususiyatlarini (razmeri, matn chegaralarini qolontitullarini va xokazo) ko'rish va o'zgartirish

ПРАВКА MENYu GURUXI

Отмена - Undo (Ctrl + Z) - Oxirgi harakatni bekor qilish

Вырезать -Cut (Ctrl + X) - Tanlangan matn qismini xotiraga kirkib olish

Копировать - Copy (Ctrl + C) - Tanlangan matn qismini xotiraga nusxasini olish

Вставить - Paste (Ctrl + V) - Kursor turgan joyga xotiradagi matn qismini qo'yish

Специальная вставка - Xotiradagi ma'lumotlarni biz tanlagan holatda qo'yish.

Очистить (Del) - Tanlangan sohani tozalalsh (o'chirish)

Выделить все (Ctrl + A) - Butun mantni guruxga olish

Найти - Find (Ctrl + F) - Butun matnda matn qismni qidirish

Найти далее (F3) - Keyingini qidirish

Заменить (Ctrl + H) - Matn bir qismini boshqasi bilan

Kelinglar shu kontekst menyu bilan yaqinroq tanishaylik.

- Упорядочить значки - Ekrandagi papka, yorliq va har hil boshqa belgilarni saralash (nom, turi, xajmi, yaratilgan kuni bo'yicha)

- Обновить - ekran tashqi ko'rinishini yangilash (tarkibi va xususiyatlarini qayta o'qish)

- Вставить - хотiraga quyilgan ob'yektni ekranga qo'yish.

- Вставить ярлык - хотiraga quyilgan ob'yektga yorliqni (ob'yektgacha to'liq yo'lni ko'rsatuvchi belgini) ekranga qo'yish.

- Отменить удаление - oxirgi harakatni bekor qilish.

- Создать - ekranda yangi papka, yorliq, yoki yangi har hil standart faylni (rasm, matnli fayl, arxiv, ofis dasturlar fayllarini) yaratish.

Yorliqni xajmi 1 Kb ga teng bo'lib uning ichida faqat sizning kompyuteringizda joylashgan faylgacha to'liq yo'l saqlanadi. Shuning uchun YoRLIQni boshqa joyga ko'chirib olsangiz u holda u yordamida fayl ochib olmaysiz, chunki to'liq yo'l o'zgaradi.

Ekranda joylashgan hamma narsalar diskning Windows papkasini РАБОЧИЙ СТОЛ papkasi ichida joylashadi. Bo'lardan МОЙ КОМПЬЮТЕР, КОРЗИНА, МОИ ДОКУМЕНТЫ, СЕТЕВОЕ ОКРУЖЕНИЕ va ИНТЕРНЕТ ЭКСПЛОРЕР bu standart maxsus papka va yorliqlar. Qolgan belgilar bu biz yaratgan papka fayl va yorliqlar.

5.5-§. Fayllarni arxivlash va WinRar dasturi.

Arxivlangan fayl-bu faylning ixchamlangan, siqilgan holati. Amalda fayllar bilan ishlashda, yahni fayllarni bir kompyuterdan ikkinchi kompyuterga ko'chirishda, diskka joylashda, saqlab qo'yishda, elektron pochta orqali axborot yuborishda bunday fayllar bilan ishlash zarurati tug'iladi. Fayllarni arxivlash - fayllarni arxivlash jarayoni orqali siqilgan, ixchamlangan holatda diskda saqlash demakdir. Arxivlash qattiq disk ishdan chiqishi


kompyterga kirshimiz (Сменить пользователя) mumkin.



5.11-rasm. Foydalanuvchi auto idintefikatsiya qilish.

Ish stol bu ekranning bo'sh sohasi, uning ichida har hil dasturlar o'zining oynasida bajariladi. Ish stolni sozlash uchun biz

Boshqarish paneli (Панель Управления)  Экран buyrug'idan foydalanishimiz yoki ish stolni bu srohasiga ko'rsatib sichqonchanning o'ng tugmasini bosami. Paydo bo'lgan kontekst menyuning pastida joylashgan СВОЙСТВА buyrug'i ham aynan Shu amalni bajaradi.



5.12-rasm. Kontekisli (sichqoncha o'ng tugmasi bosishda paydo bo'luvchi) meny.

almashtirish

Свойства объекта (Alt+Enter) - Tanlangan ob'yekt xususiyatlarini ko'rish va o'zgartirish

Dastur tashqi ko'rinishi menyusi (ВИД)

Панель инструментов - Asosiy yordamchi qurollar satrini ekranga chiqarish

Панель форматирования - Mant ustidan amallar bajaruvchi yordamchi qurollar satrini ekranga chiqarish

Линейка - Ekranda chizg'ich ko'rinishini taminlash

Панель состояния - Ma'lumotlar satrini ko'rinishini taminlash

Параметры - Matn saqlash xususiyatlarini o'zgartirish

Qo'yish bo'limi (ВСТАВКА)

Дата и время - Matnga vaqt va kun haqida ma'lumotlarni qo'shish

Объект - Matnga har hil ob'yektlarni qo'shish

Format bo'limi (ФОРМАТ)


Шрифт - Harflar xususiyatlarini o'zgartirish

Маркер - Ro'yxat xususiyatlarini o'zgartirish

Абзац - Abzats xususiyatlarini o'zgartirish

Табуляция - Tab tugma xususiyatlarini o'zgartirish

Kalkulyator dasturi. Standart dasturlarning yana biri - КАЛЬКУЛЯТОР. Bu dasturlarni ishga tushirish uchun biz sichqoncha yordamida ПУСК tugmasini bosamiz, keyin ПРОГРАММЫ bo'limini tanlaymiz. Shu bo'limdagi СТАНДАРТНЫЕ guruxini topib ichidagi КАЛЬКУЛЯТОР dastur nomini sichqoncha bilan tanlaymiz. Programma ishga tushgach ekranda standart dastur oynasini ko'ramiz.



5.7-rasm. Kalkulyator dasrturi interfeysi.

Калькулятор yordamida siz kichik hisob kitob amallarni bajarishingiz mumkin. Калькулятор 2 hil bo'lishi mumkin: oddiy (обычный) va injenerlar uchun (инженерный). Калькулятор to'rini o'zgartirish uchun ВИД menyusiga kirib kerakli buyruqni tanlaymiz.

Standart dasturlarning yana biri - ЛАЗЕРНЫЙ ПРОИГРЫВАТЕЛЬ. Bu dasturlarni ishga tushirish uchun biz sichqoncha yordamida ПУСК tugmasini bosamiz, keyin ПРОГРАММЫ bo'limini tanlaymiz. Shu bo'limdagi СТАНДАРТНЫЕ guruxini topib ichidagi РАЗВЛЕЧЕНИЯ guruxidagi ЛАЗЕРНЫЙ ПРОИГРЫВАТЕЛЬ dastur nomini sichqoncha bilan tanlaymiz. Programma ishga tushgach ekranda standart dastur oynasini ko'ramiz.



5.8-rasm. ЛАЗЕРНЫЙ ПРОИГРЫВАТЕЛЬ Video audio Fayllarini ko'rish dasturi.

Лазерный проигрыватель dasturi yordamida esa kompakt disklardagi musikalarni eshitishingiz mumkin. Ushbu dastur tezkor tugmalari bilan yaqinroq tanishaylik:

 Disk vam musiqa haqidagi ma'lumotlarni o'zgartirish

Bu oynaning chap tomondagi "Искать имена файлов и папок" satrida biz qidirilayotgan fayllar va papkalar nomini yoki uning qismini kiritishimiz kerak. Qidirilayotgan fayl va papka nomi qismini ko'rsatganimizda * va ? - bilan noa'nik qismini belgilashimiz mumkin. Shunda * - bir nechta noa'nik belgilar uchun, ? - esa bita noa'nik belgilar uchun qo'llaniladi.

Masalan: *jon.doc - manosi nomi JON-ga tugagan ma'lumotlar turi doc (matnli) bo'lgan hamma fayllarni qidirish.

Bu tomondagi "Искать текст" satrida esa biz qidirilayotgan fayllar va papkalar ichidagi matn qismini (birinchi satrdagi !!) ko'rsatamiz. "Где искать" ro'yxati yordamida esa biz fayl yoki papka qaysi disklarda qidirishni ko'rsatamiz. Pastdagi "Пааметры поиска" qismi yordamida esa kirish jarayonini aniqlashtirishimiz mumkin. Buning uchun qidirilayotgan fayl yoki papkani yaratilgan, ochib ko'rib chiqilgan va o'zgartirilgan kunini, uning ichidagi ma'lumotlar to'rini, xajmini ko'rsatishimiz mumkin.

Ushbu yuqorida ko'rsatilgan harakatlarimizdan keyin "НАЙТИ" tugmani bosamiz va natijada kompyuter bizga biz ko'rsatgan buyruqga asosan qidirilayotgan faylga o'xshash fayllar va pakalar ro'yxatini asosiy o'ng tomonda joylashgan oynada ko'rsatadi.


Пыск menyusining bo'limi yordamida biz kompyuterimizda yoki tarmoqqa ulangan boshqa kompyuterlarda jyolashga programma fayllarni ishga tushirishimiz mumkin. Buning uchun biz yoki u programmaga to'liq yo'lni ochilgan oynada yozishimiz kerak yoki u programani X tugmasi yordamida topishimiz kerak.

Yorda tizimi. Пыск menyusining СПРАВКА bo'limi yordamida biz kompyuterda WINDOWS dasturi xaqida va Ushbu operatsion tizimda ishlash xaqida umumiy ma'lumotlar (yordamlar) topishimiz mumkin. Пыск menyusining ЗАВЕРШЕНИЕ РАБОТЫ bo'limi yordamida biz kompyuterimizni o'chirishimiz (Завершениэ работы) yoki o'chirib qayta ishga tushirishimiz (Перезагружить) va boshqa foydalanuvchi bo'lib qayta

 Учетные записи пользователей	Bu bo'lim yordamida kompyuter foydalanuvchilar ro'yxatini ko'rish, ularda o'chirish va ularga yangi foydalanuvchi xaqida ma'lumotlarni kiritish.
 Шрифты	Bu bo'lim yordamida kompyuterga o'rnatilgan shriftlarni ro'yxatini, ulardagi harflarni ko'rishimiz va ularga yangisini qo'shishimiz mumkin.
 Устройства и принтеры	Bu bo'lim yordamida kompyuterga o'rnatilgan printerlar ro'yxatini ko'rishimiz, ularni sozlashimiz va ularga yangisini qo'shishimiz mumkin.
 Программы и компоненты	Bu bo'lim yordamida kompyuterga o'rnatilgan dasturlarni ro'yxatini ko'rib ulardan bir hillarini o'chirishimiz yoki yangisini o'rnatishimiz mumkin, WINDOWS tarkibidagi dasturlarni qo'shish yoki o'chirishimiz va kutkaruv disketani yaratishimiz mumkin.

5.4-§.WINDOWS Ish stoli elementlari ular ustida amalar bajarish.

Qidirish. Пуск menyusining ПОИСК bo'limi yordamida biz kompyuterimizda yoki tarmoqqa ulangan boshqa kompyuterlarda fayllar yoki papkalarni izlab topishimiz mumkin.



5.10-rasm. Qidirsh oynasi.

 Musiqa o'ynash tartibi (ixtiyoriy ketma ketlik, to'g'ri ketma ketlik, har bir musikadan birinchi 10 minutdan)



Tanlangan musikani uynash



Musiqani to'xtatib turish



Musiqani o'chirish



Oldingi yoki keyingi musiqaga o'tish



Musiqani oldinga yoki orkaga o'tkazish



dan farqli tomoni Shundaki, XML da dasturchi o'zining shaxsiy teglarini yaratadi va ular orasiga ma'lumotlarjoylashtiradi. XML-teglar harflar katta kichikligini farqlaydi. HTML teglari hujjatni ekranda ko'rinishini ifodalaydi. XML teglari hujjatdagi ma'lumot tavsiflash uchun ishlatiladi. Undan tashqari XML yordamida yangi teglarni yaratish mumkin. XMLda ma'lumotlarto'zilmaviy holda saqlanadi. XML asosan ma'lumotlaralmashinuvida ko'p ishlatiladi, chunki XML platformadan mustaqil bo'lib, HTTP orqali ishlashi juda qulay.

XHTML

XHTML tili HTML va XML tillarining birlashmasini tashkil etadi. XHTML tilida yozilgan hujjatning tashqi ko'rinishi platformaga bog'liq (Windows, Mac yoki Unix) ravishda o'zgarib ketmaydi. Shunga qaramay XHTML tarkibida HTML diskriptorlardan foydalaniladi. Bugungi kunda mobil aloqa vositalaridan foydalanuvchilar uchun yangi til ishlab chiqilgan bo'lib, u WML (Wireless Markup Language) deb ataladi; CDF (Channel Definition Format) - Microsoft ishlab chiqqan brao'zerlarda push-kanal hosil qilishda qo'llaniladi.

CMS haqida

Har qanday sayt HTML (HyperText Markup Language), JavaScript, PHP kabi bir talay tillarga oid kodlardan tashkil topgan sahifalar yig'indisidan iborat bo'ladi. HTML – bu sayt sahifalarini tashkil etishda ishlatiladigan eng asosiy va eng kerakli til hisoblanadi.

Internet tarmog'i endigina rivojlana boshlagan va ilk saytlar yaratila boshlanga vaqtlarda barcha web saytlar to'liq HTML kodlar asosida yaratilgan. Bunday saytlar sahifalarida ko'rish orqali ma'lumotga ega bo'lishdan boshqa hech qanday amaliyot bajarishning imkoni bo'lmagan. Shuning uchun to'liq HTML yordamida tashkil etilgan saytlar foydalanuvchilarga faqat ma'lumot berish, ya'ni ma'lumotko'rsatib berish imkoniyati bilan cheklangan.

Bugungi kunda saytlar orqali faqat ma'lumotolish bilan

(3) ning adresi : "Tovar2.HTML"

Bir papkadagi veb-saxifalardan bir-biriga murojaat :
"fayl_nomi.HTML" ko'rinishda beriladi

Internet xizmatlarining ko'pchiligiga dostup (ruxsat, yo'l) adresastiya sxemasi (URL) yordamida qiziqtirilgan ixtiyoriy hujjatni topish imkoniyatini beradi. Har bir tur boshqasidan farq qiluvchi o'zining format adresiga ega. URL dan foydalanib, Web-brao'zerlar yordamida ixtiyoriy hujjat va xizmatlarga dostup olish mumkin. URL quyidagi tartibda yoziladi:

Protokol://internet_adres /yo'l /fayl_nomi.kengaytma yoki
Protokol://internet_adres

URL

ga

misol:http://www.microsoft.com/windows/index.html

Bu erda:http://-protokol;

www.microsoft.com – internet_adres (Microsoft kompaniyasining Web- serverining nomi)/

windows/ - yo'l

Index - fayl_nomi

Html - kengaytma

11.1-jadval. URL da qo'llaniladigan protokollar ro'yxati.

Protokol nomi	Protokol nimaga dostup berishi mumkinligi
----------------------	--

http://	HTTP (veb) serverlariga
https://	Shifrlangan ba'zi bir HTTP (Web) serverlarga
file://	Foydalanuvchi <u>qattiq diskidagi fayllarga</u>
ftp://	FTP server fayllariga
gopher://	Gopher menyu va fayllariga
news://	Usenet yangiliklar serverlari gruppasiga
news:	Aniq Usenet yangiliklar gruppasiga
mailto:	Aniq elektron pochta adresiga
telnet:	Telnet udalen serveriga

XML (eXtensible Markup Language).

XML tili ham HTML tiliga o'xshash til hisoblanadi. HTML

Server: bu boshqa kompyuter yoki programmalarga xizmat ko'rsatadigan kompyuter yoki programmadir. Ya'niboshqa kompyuterlarga o'zining fayllaridan foydalanishga ruxsat beruvchi kompyuter Server hisoblanadi. Bitta kompyuterda bir nechta server ishlashi mumkin. Masalan, FTP, WWW, elektron pochta serverlari.

Mijoz: Server resurslaridan va xizmatidan foydalanuvchi kompyuter yoki programmadir. Xuddi Server kabi, bitta kompyuterda birdaniga bir nechta mijoz ishlashi mumkin. Masalan, kompyuter fayl serverning mijoz bo'lishi mumkin (serverda joylashgan fayllardan foydalanishi), Shu bilan bir vaqtda elektron pochta programmasida ishlashi mumkin. Ya'nibir necha serverning mijoz bo'lishi mumkin.

Marshrutlashtiruvchi: (Router). Marshrutlashtiruvchi Internetda ma'lumotlar oqimini qulay va yaqin yo'l bilan manzilga etkazishni rejalashtiruvchi va amalga oshiruvchi programmlar majmuidir.

Shlyo'z: (Gateway) ma'lumot o'zlashning turli kaydnomalarini Internet foydalanadigan elektron pochta o'zlashining oddiy kaydnomasi SMTP ga (Simple Mail Transfer Protocol-elektron pochta o'zlashining oddiy kaydnomasi) aylantiradigan kompyuter. Aslida shlyo'z bu programmlar majmuidir. Bunda shlyo'z maqsadida foydalanadigan kompyuterga katta talablar kuyilmaydi. Buning uchun unda shlyo'z vazifasini utaydigan programmlar bilan ishlash imkoni bo'lsa, bo'ldi xolos. Demak, ilgari o'z lokal kompyuter tarmog'ingizda biror sistema bilan ishlab kelayotgan bo'lsangiz, uni Internetga ulamokchi bo'lsangiz ana Shunday shlyo'z programmani o'rnatib qo'yish yetarli

Proxy: bir necha kompyuterning Internetga ulanishini ta'minlovchidir. Proxy server odatda ko'p ishlatiladigan resurslarni saqlash imkoniyatiga ega. Internet da ba'zi bir MA'LUMOTLARGA ko'pchilik murojaat qilgani uchun bu MA'LUMOTLARGA oid serverga ulanish (navbat katta bo'lgani uchun) sekin bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'pchilik murojaat qila-

digan serverlar nusxalari boshqa serverlarda xam saqlanadi. Bunday serverlar Proxy serverlar deyiladi. Proxy serverdan foydalanish imkoniyati odatda programmalarni o'rnatishda e'tiborga olinishi zarur. Hozirda ko'p Internet ma'lumotko'rish uchun MS Internet Explorerdan foydalanganda, unda Proxy programmasi orqali foydalanish nazarda tutiladi.

URL: (Uniform Resource Locator) Internetra murojaat qilishning eng oddiy va qulay usuli bo'lib, u manzilni ifodalaydi. URL adresidan ixtiyoriy foydalanuvchi foydalanishi mumkin. Ya'nibu adresdagi ma'lumotdan barcha foydalanuvchilar bir paytning o'zida foydalanishi mumkin. URL quyidagi formatga ega

<bog'lanish sxemasi>:<bog'lanish sxemasiga bog'lik ma'lumot>

<bog'lanish sxemasi> bu HTTP, FTP va Gopher lardir.

<Kirish sxemasiga bog'lik Axborot> faylning o'zokdagi kompyuter fayl sistemasidagi to'liq manzilini aniqlaydi.

Bu sxemaning ko'plab foydalanuvchilarga tanish bo'lgan boshqacha tasviri Shunday ko'rinishga ega.

Bog'lanish sxemasi: //mashina nomi/domen nomi/faylning to'liq nomi. Bog'lanish sxemasi nomi Internet kompyuter adresi bilan ikkita qiya chiziq bilan chegaralanadi, u esa bitta qiya chiziq bilan faylning to'liq nomi bilan ajratiladi. Ko'pchilik xollarda URL HTTP, FTP va Gopheraap ko'rsatgan ko'rinishga ega. URL ni batafsilrok tuShunish uchun real misoldan foydalanamiz

HTTP:// www.youthcenter.com /index.html

Bu URL adres tarkibiy qismlarini ko'rib chikaylik: HTTP resursdan foydalanishda gipertekst (HyperText Transfer Protocol) protokoli ishlatilyapti.


www.youthcenter. Com

Ushbu ma'lumotjoylashgan Internet saxifa nomi index.html faylning kompyuterdagi tula nomi. Ko'pchilik WWW saxifalar nomlanishi Shu sxemaga mos keladi. E'tibor bergan bo'lsangiz, ba'zan HTTP, FTP yoki gopher tipidagi resurslarga murojaat qilinganda, faylning to'liq nomi bitta kiyshik chiziq bilan

yordamchi programmani ishga tuShuruvchi URL bilan bog'langan adresga «tushib» qoladi. Ba'zan gipermurojaat natijasi e-mail yoki FTP serverga yo'llanma beruvchi yangi Web-saxifani ochilishiga olib keladi.Foydalanuvchi murojaatni tanlab olishi uchun Web-dizayner uni yaratishi kerak.

Gipermurojaat yaratish uchun (anchor, yakor) elementidan foydalaniladi. U o'zida yo'llanma beruvchi URL adresni ko'rsatuvchi href atributi bilan to'ldiriladi. Shuning uchun gipermurojaatni yaratish uchun URL adresni aniqlab olish kerak. Gipermurojaat yaratish uchun (anchor, yakor) elementidan foydalaniladi. U o'zida yo'llanma beruvchi URL adresni ko'rsatuvchi href atributi bilan to'ldiriladi. Shuning uchun gipermurojaatni yaratish uchun URL adresni aniqlab olish kerak.

Gipermurojaatni yaratishda agar Internetdagi xizmat yoki adresdan foydalanmoqchi bo'lsak albatta uning to'liq adresini ko'rsatish shart. Agar o'zimizda bor bo'lgan Web-saxifalardan gipermurojatlar yaratmoqchi bo'lsak ba'zi bir ishni osonlashtiruvchi xolatlar mavjud.



(6-rasm)

(1) ning adresi : "Service/service.HTML"

Asosiy papkadan ixtiyoriy ichki papkadagi veb-saxifaga murojaat : "Papka_nomi/fayl_nomi.HTML" ko'rinishda beriladi.

(2) ning adresi : "../index.HTML"

Ixtiyoriy ichki papkadan asosiy papkadagi asosiy Web-saxifaga murojaat: "../asosiy_fayl.HTML" ko'rinishda beriladi.

XI BOB. WEB SAYTLAR YARATISHGA YO‘NALTIRILGAN DASTURIY TA‘MINOTLAR.

11.1-§. HTML (HyperText Markup Language).

HTML (HyperText Markup Language) maxsus til mavjud bo‘lib, bu til yordamida matnlar, grafik ma‘lumotlar Web-sahifa hujjatga joylashtiriladi va bu hujjatni barcha kompyuterda ko‘rish imkoniyati mavjuddir. Bunday maxsus tillar razmetkali tillar deb ataladi. Ularning asosiy vazifasi - Web-sahifaga “ma‘lumot joylashtirish” va ular orasidagi aloqani (gipersaloqalar) ta‘minlashdan iborat. Dastlab World Wide Web tizimi matnli ma‘lumot va HTML hujjatlarni ko‘rishga mo‘ljallangan, matnni taxirlovchi tilga o‘xshash tizim bo‘lgan. Ayni damda HTML tili WWW daga eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. HTML tilida yozilgan ma‘lumotlar o‘z ichiga matn fayllar, grafik ma‘lumotlar va boshqalarni oladi.

Hujjatlar orasidagi aloqani ta‘minlash va ma‘lumot formatlash vositalari teg (tag) deb ataluvchi vosita orqali amalga oshiriladi. Web-sahifaning matn va teglari aralash ravishda HTML-hujjat deb ataluvchi faylining ichiga joylashtiriladi. Qanday tegni qo‘llaganingizga qarab brao‘zer oynasida ma‘lumotlarturlicha ko‘rinadi. HTML hujjatga ma‘lumot joylashtirish va tahrirlash uchun yo‘zlab teglar mavjud. Butunjaxon o‘rgimchak to‘rining asosiy va HTML ning tarkibiy qismini gipermatnlar va gipermurojaatlar tashkil etadi. Maxsus komandalar yordamida matnning ma‘lum qismi Shunday ajratiladiki, natijada o‘sha matn ustiga sichqon tugmasi bosilsa boshqa matn yoki saxifa ochiladi. Bundan tashqari multimediya vositalarining ishlab ketishi yoki bo‘lmasa, ma‘lumotni diskda saqlash taklifi ham berilishi mumkin.

Har bir Web-saxifa o‘zida bir nechta gipermatn yoki gipermurojaatlarni mujassam etishi mumkin. Gipermurojaatlar Web-saytlar bo‘ylab harakatning asosi hisoblanadi. Murojaatni tanlaganda foydalanuvchi brao‘zer oynasiga yuklanuvchi yoki

tugallanadi. Bu aniq faylga emas, balki belgilangan katalog ostiga murojaat etilganda sodir bo‘ladi. Bu adresga murojaat qilinganda, kompyuter mazkur katalog va faylga mos standart indeksli faylni beradi. HTTP ningstandart indeksli fayli odatda index.html (yoki index. htm) deb ataladi. Shu bilan birga u yana home.html, homepage.html, welcome.html yoki deaulthtml deb atalishi mumkin. 1997 yildan boshlab O‘zbekistonda Internet Provayderlar xizmat ko‘rsata boshladi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 40 dan ziyod Internet provayderlar ishlamoqda. Ba‘zi provayderlarning nomi va saxifa manzilini kuyida keltiramiz.

Provayder: Internetga bog‘lanishni, o‘zatilgan elektron pochta ni etkazishni va saqlashni ta‘minlaydi. Bog‘lanish uchun zarur narsalar bilan ta‘minlashi, sistemani sozlash bilan bog‘liq to‘liq ko‘rsatmalar berishi shart. Internetga bog‘lanish uchun oldin serverga so‘ngra butun dunyoga bog‘lanish mumkin Internet Provayderni tanlash bo‘yicha maslaxatlar Internet tezligi va sifati Provayderga bog‘lik. Shuning uchun Provayderni ganlashda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofik.

- Qaysi tarmoqlar bilan ma‘lumotalmashadi, tarmog‘ning ma‘lumotni utkaza olish kobiliyati.
- FTP imkoniyatining berilishi.
- Aloqa tezligi va sifati, modemga telefon qila olish kobiliyati, provayder modemi turi (bir xil korxona modamlari muntazam aloqani o‘rnatadi).
- Texnik xizmat ko‘rsatilishi.

Modem: Internetda yaxshi ishlash uchun modem (modulyator-demodulyator) ning tezligi katta bo‘lishi kerak. Eng kaimda ma‘lumoto‘zatis va qabo‘l qilish tezligi 28,8 Kb/sek. bo‘lishi shart. Modem ishlab chiqaruvchi firmalar ichida eng ommabopi bu US Robotis bo‘lib ikki xil: Sportster-havaskorlar uchun va Courier-professionallar uchun modamlarini ishlab chiqadi. Modamlar ikki tipda ichki va tashqi bo‘ladi. Tashqi modem SOM porti orqali ulanadi.

Trafik: Internet aloqa kanallari orqali o‘zatilgan

ma'lumotlar oqimi hajmi.

DNS server: DNS (Domain Name Service - domen nomlar xizmati) - IP manzillar va kompyuterlar domen nomlarini aniqlovchi server. IP manzil va kompyuterlarning domen ko'rinishidagi nomlari bilan ishlashni tashkil qilish uchun programma joylashtirilgan kompyuterining IP manzili ko'rsatiladi. U yoki bu serverning vaqtincha ishlamay kolishini yoki ular bilan bog'lanish qiyin bo'lishini nazarda tutib, (sabablar turli bo'lishi mumkin) bir qancha DNS serverlarini ko'rsatish mumkin.

Akslantiruvchi serverlar (Mirror): Ko'pchilikni qiziqitiruvchi serverlar odatda boshqa mamlakatlar serverlariga xam joylashtiriladi. Bu esa mamlakatlarga yuboriladigan so'roqlarning hajmini kamaytirishga va tegishli ma'lumot (Internet sahifalarini) tez topishga imkon tug'diradi. Odatda akslantiruvchi serverining borligi home page (uy sahifalarida) da o'z aksini topgan bo'ladi va unga qarab qaysi server bilan ishlash qulayligi (tezligi) aniqlanadi va u tanlanadi.

Yuqori tezlikka ega bo'lgan o'zlash kanallari: Internet ning muhim ko'rsatkichlaridan biri u orqali istalgan hajmdagi ma'lumot tez o'zlashdir. Shuning uchun Internet telefon orqali ishlaydi. Internet ajratilgan ijaraga olingan telefon yo'llari orqali o'rnatilgan bo'lsa, unda ishlash tezligi yuqori bo'ladi. Hozirgi kunda turli tezliklar bilan ishlovchi T1, T2, T3 tez ishlovchi yuqori tezlikli kanallar sistemasi mavjud.

Drayver - tarmoq adaptori bilan bevosita bir xil arakat qiluvchi dastur.

Modul - Drayver, tarmoqdagi qo'llanish dasturlari va boshqa modullar bilan bir xil arakat qiladigan dastur.

Tarmoq interfeysi - kompyuterni tarmoqqa ulovchi fizik qurilma - Ethernet kartasi.

IP - paket - IP modulini tarmoq interfeysi bilan almashadigan ma'lumotlar bloki.

UDP - deyatagramma - IP moduli UDP moduli bilan almashinadigan ma'lumotlar bloki. TCP - IP moduli bilan TCP

moduli almashinadigan ma'lumotlarbloki.

Nazorat savollari:

1. Kompyuter tarmoqlari haqida ma'lumot bering.
2. Lokal tarmoq deb nimaga aytiladi?
3. Kompyuter tarmoqlari arxitekturasini?
4. Kompyuter tarmoqlarining asosiy tushuncha va atamalari?
5. Simli va simsiz tarmoqlar (WiFi, WiMAX).
6. Global kompyuter tarmoqlari deb nimaga aytiladi?
7. Ishchi stantsiya deganda nima tushuniladi?
8. Internet xalqaro tarmog'i haqida ma'lumot bering?
9. Internetga qanday ulanish usullari mavjud?
10. Internetda adres tushunchasi va uning turlari?
11. Internetga ishlash qanday amalga oshiriladi?

jarayonida o'chirilgan holda ko'rinadi, `<ins>` elementi esa o'chirilgan matn o'rniga qo'yiladigan matn uchun ishlatiladi.

Masalan:

```
<del title="O'chiriladigan matn">O'chirish </del>  
<ins>Bu qo'yiladigan matn </ins>
```



9 – rasm. 8.html fayli.


Ro'yxatlar.

Ro'yxatni to'zishda odatda quyidagi format qo'llaniladi:

```
<ro'yxat turi >  
<li>Birinchi bo'lim</li>  
<li>Ikkinchi bo'lim </li>  
<li>Uchinchi bo'lim </li>  
</ro'yxat turi >
```

Ro'yxat turi nomerlangan ro'yxat va chiziqli ro'yxat bo'lishi mumkin. Nomerlangan ro'yxat `<ol>`, chiziqli ro'yxat esa `<ul>` elementi bilan beriladi. Ularning har biri `<li>` elementi bilan ifodalangan bo'ladi.

```
<ol>  
<li>Birinchi punkt</li>  
<li>Ikkinchi punkt</li>  
<li>Uchinchi punkt </li>  
</ol>  
<ul>  
<li>Birinchi punkt</li>  
<li>Ikkinchi punkt</li>  
<li>Uchinchi punkt</li>  
</ul>
```



(10-rasm).

Web-tehnologiyani asosini quyidagi ikkita tushuncha tashkil qiladi:

1. Axborotni statik tasvirlash;
2. Interfaol o'zaro aloqa.

Axborotni statik tasvirlash. Ma'lumotlarsegmentida joylashgan ma'lumotlarstatik ma'lumotlardeb ataladi. Bunga asosiy sabab, ular uchun xotira ishlash jarayoni davomida ajratib qo'yiladi. Ishlash davomida esa bu xotira o'zgarmay qoladi. To'plamdagi xotira esa ishlash davomida to'ldirib boriladi va zarur bo'lgan paytda bu xotira bo'shatib qo'yilishi mumkin.

Razmetkali tillar. Bu til yordamida matnlar, grafik ma'lumotlarWeb-sahifa hujjatga joylashtiriladi va bu hujjatni barcha kompyuterda ko'rish imkoniyati mavjuddir. Bunday maxsus tillar razmetkali tillar deb ataladi. Ularning asosiy vazifasi - Web-sahifaga "ma'lumotjoylashtirish" va ular orasidagi aloqani (gipersaloqalar) ta'minlashdan iborat. Web-dasturlash texnologiyalarini, dasturlarini, interfaol o'zaro aloqa qismini ham asosan ikkita qismga ajratish mumkin:

1. klient tomonidagi dasturlarlash (client-side);
2. server tomonidagi (server-side).

Klient tomonidagi ssenariylar foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumot to'g'riligini serverga murojaat qilmasdan tekshiradi. Ko'p hollarda bu ssenariylar JavaScript va VBScript

tillarida yoziladi.

Server tomonida bajarilishi kerak bo'lgan ssenariylar odatda sayt papkasining ichidagi maxsus papkaga joylashtiriladi.

Ssenariyli tillar. "Klient-server" texnologiyasi

Hozirda Web-sahifaning rivojlanishi yanada interaktiv pog'onasiga chiqqan. Web-saytlar asta sekinlik bilan ilovalar interfeysiga o'xshab bormoqda. Bularning barchasi zamonaviy Web-dasturlash texnologiyasi yordamida amalga oshmoqda. Web-dasturlash texnologiyalarini, dasturlarini asosan ikkita qismga ajratish mumkin: klient tomonidagi dasturlarlash (client-side) va server tomonidagi (server-side). Ushbu texnologiyalarni tuShunish uchun avvalo bevosita "klient-server" texnologiyasini tuShunish kerak.

Web-sahifaning interaktiv dasturi senariy deb ataladi.

Bunday atama dasturning natijasiga bog'liq holda vujudga kelgan. Uning asosiy vazifasi Web-sahifasida foydalanuvchi holatiga, harakatiga «reaksiya» berishdir. Shu tariqa ssenariylar klient tomonida bajariluvchi va server tomonida bajariluvchi ssenariylarga bo'linadi. Klient tomonida bajariluvchi ssenariylar brao'zer yordamida bajariladi. Server tomonida bajariluvchi ssenariylar esa Web-server yordamida bajariladi.

Klient tomonidagi ssenariylar.

Klient tomonidagi ssenariylar foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumot to'g'riligini serverga murojaat qilmasdan tekshiradi. Ko'p hollarda bu ssenariylar JavaScript va VBScript tillarida yoziladi.

JavaScript

JavaScript - bu til Netscape va Sun Microsystems tomonidan yaratilgan bo'lib, Web-sahifaning funksional imkoniyatlarini orttirish maqsadida qo'llaniladi.

JavaScript yordamida odatda ma'lumotli va muloqot oynalarini chiqarish, animatsiyalarni ko'rsatish kabi vazifalarni bajarish mumkin. Bundan tashqari, JavaScript-ssenariy ba'zan o'zi ishlab turgan brao'zer va platforma tipini aniqlash mumkin. JavaScript-

Natijani brao‘zer oynasida o‘zingiz ko‘rib olasiz.

<blockquote> ishlatilganda matn oddiy shriftda oldingi stildagidek ifodalanadi. U ham <p> elementi kabi ortiqcha probellar va qatorlarni yo‘q qiladi.

<address> elementi sahifa avtori haqidagi ma‘lumotni o‘zida mujassamlashtirgan matnni yaratish uchun ishlatiladi. Aksariyat brao‘zerlarda bu matn qo‘lyozma (курсив) holda ko‘rinishga ega bo‘ladi. Odatda bu element web-sahifaning oxirida ishlatilib, o‘zida quyidagi ma‘lumotaks ettiradi:

- sahifa qachon oxirgi marta yangilangan;
- bu sahifa bilan bog‘liq savollarni kim bilan muhokama qilish mumkinligi (odatda web ustasining e-mail keltiriladi);
- sahifaning URL adresi;
- kompaniya yoki tashkilotning adresi, telefon nomeri.

Masalan,

<address>


*Oxirgi yangilanish: 25.08.2009
*

*web master: snazokat72@mail.ru
*

Buxoro shahri, Q.Murtazoyev shox ko‘chasi Tel:223-88-

10

</address>



8 – rasm. 7.html fayli.

<ins> va elementlari biznes va ta'limga bag‘ishlangan ofitsial proektlar(alohida loyihalar) tayyorlovchilarda ayniqsa qiziqish uyg‘otadi.

 elementi Shunday matn uchun ishlatiladiki, u ko‘rish

<pre>

Kursguruh talaba soni


1 a 21

1 b 20

1 c 24

1 d 23

</pre>



6 – rasm. 5.html fayli.


<blockquote>, <address>, <ins>, elementlari.

<blockquote> elementi fizik atributlar qatoriga kiradi. Bu element abzatsni vizual holda oddiy matndan ajralib turishini ta'minlaydi. Masalan:

<blockquote>

Falastin yetakchisi Yosir Arofat hayotdan ko'z yumdi. Uning o'limi sabablari hozircha oshkor etilmayapti. Falastin muxtoriyati aholisi uning o'limi sabablarini Ommaga oshkor qilishlarini talab qilayapti. Frantsiya hukumati hozircha bu haqda hech narsa deganicha yo'q. Ma'lumki, Yosir Arofat Frantsiya harbiy gospitalaridan biriga kasalligi tufayli hayotdan ko'z yumdi. O'limi sabablari keltirilgan hujjatlar Yosir Arofatning oilasiga taqdim etildi.

</blockquote>



7 – rasm. 6.html fayli.

sstenariylar foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotot'g'riligini tekshirishda ham qulay hisoblanadi.

VBScript

VBScript tili Microsoft korporastiyasi tomonidan yaratilgan bo'lib, , Visual Basic tilining bir qismi hisoblanadi. VBScript tili Internet Explorer va Microsoft Internet Information Server (IIS) lar bilan ishlashga mo'ljallangan tildir. VBScript tilining JavaScript tili bilan umumiy qismlari bir nechta, jumladan u aynan Microsoft Internet Explorer bilan ishlash va uning qo'llanish sohasini cheklay olish imkoniyatiga ega. VBScript interpretatorli til hisoblanib, Microsoft ning Web-texnologiyalari bilan hamkorlikda ishlay oladi, masalan ASP (Active Server Page) bilan. Shunga qaramay VBScript klient tomonida ishlovchi sstenariy hisoblanadi, ASP esa server tomonida ishlaydi.

Server tomonidagi sstenariylar.

Server tomonida bajarilishi kerak bo'lgan sstenariylar odatda sayt papkasining ichidagi maxsus papkaga joylashtiriladi. Foydalanuvchi so'roviga asosan server bu sstenariyni bajaradi. Bajarilgan sstenariy natijasi Web-serverga o'zatiladi va undan so'ng klientga o'zatiladi. Server tomonidagi sstenariylarni tashkil etish uchun odatda Perl, ASP, PHP, JSP va SSI kabi til va texnologiyalardan foydalaniladi.

Perl

Perl tili Web-ilovalar yaratishda eng ommabop tillardan biri hisoblanadi. Matnlarni qidirish va taxrirlash, fayllar bilan qulay ishlay olish qoidalari bilan Perl tili Internet ning asosiy tillaridan biri bo'lib qoldi. Perl - interpretatorli til hisoblanadi, Shu bois unda yaratilgan sstenariylar ishlashi uchun server kompyuterda Perl-interpretator o'rnatilgan bo'lishi kerak. Bevosita Perl-kodning interpretastiya qilinish jarayoni uning samaradorligini pasaytiradi. Bugungi kunda Perl ning asosiy yutuqlaridan, uning barcha platformalar uchun ishlay olishi va uning barcha resurslari bepul tarqatilayotganligidir. Ko'pgina Web-serverlar UNIX da ishlaydi, Perl interpretator esa bu operastion tizimning bir qismi


hisoblanadi.

ASP (Active Server Pages)

ASP-ma'lumotlarbazalari tashkil etish va ular bilan ishlash vazifalarini bajarishda juda moslaShuvchan, qulay vositadir. ASP vositalari server tomonida ishlaydi va HTML-kod va ssenariylar kabi fayllarni qayta ishlaydi. ASP texnologiyasi VBScript, Java va JavaScript tillarini qo'llab quvvatlaydi. ASP-kod ixtiyoriy HTML-hujjatdan, Shu bilan birga boshqa ASP-hujjatdan chaqirilishi mumkin. ASP-kod joylashtirilgan Web-sahifalar fayllari kengaytmasi ASP bo'ladi. ASP texnologiya Windows NT va Microsoft IIS Web-serveriga mo'ljallangan hisoblanib, imkoniyatlari va samaradorligi yuqori bo'lganligi bois ko'pgina kompaniyalar o'z vositalariga ASP ni qo'llab quvvatlash imkoniyatlarini kiritmoqdalar. ASP-vositalarini ishlab chiqish bo'yicha yirik kompaniya Chillsoft Lider sredi nezavisimyykh proizvoditeley ASP-sredstv - kompaniya Chillsoft UNIX ning bir qancha turi va turli Web-serverlarda ASP ni qo'llash imkoniyatini kiritgan. Ko'pgina HTML-muharrirlar, masalan Adobe GoLive ham ASP ni qo'llab quvvatlaydi. ASP texnologiyasi bir nechta qulayliklarni o'zida jamlagan: HTML-hujjatni dinamik generastilaydi, formalarni qo'llab quvvatlaydi, ma'lumotlarbazasiga ruxsatni tashkil etadi va u bilan ishlay oladi. ASP - dasturlash tili ham, ilova ham emas, u interaktiv Web-sahifa hosil qilish texnologiyasi.

PHP

PHP - bu serverda qayta ishlanuvchi ssenariylar tilidir. ASP kabi PHP kodlar ham bevosita HTML-hujjatni tarkibiga qo'shiladi. Ushbu tilning nomi Personal Home Page Tools so'zlarining qisqartmasidan olingan. PHP da S va Perl tillarida uchragan bir qator muammolar hal etilgan, bundan tashqari, PHP ma'lumotlarbazasi bilan ishlash uchun juda qulay vositadir. Umuman olganda Perl, PHP - ochiq tizimli tillar hisoblanadi va ularni dasturchilar modernizastiyalashtira oladi.



5 – rasm. 4.html fayli.

Mantiqiy stillar:

Element	Vazifasi
, 	<i> tegiga analog teg.
, 	 tegiga analog teg.
<cite>, </cite>	Mazkur hujjatga tsitata keltirish.
<dfn>, </dfn>	Dastur kodi
<samp>, </samp>	Dasturning ishlashiga misol. Oldingisi kabi ishlaydi.
<kbd>, </kbd>	Klaviaturadan kiritiladigan matn
<var>, </var>	O'zgaruvchi yoki miqdor
<abbr>, </abbr>	Abbreviatura
<acronym>, </acronym>	Akronim

Mantiqiy stillar brao‘zerga matnni qay tartibda ekranga chop etish kerakligini bildiradi. Mantiiy stillar fizik stillar ishlamay qoladigan holatlar uchun ham o‘rinli bo‘lishi mumkin: uyali telefon internetga ulanganda tegi orqali qalinlashtirilgan matn uchrab qolsa, uni o‘qiy olmaydi. Bu holatda elementi kerakli natijani bera oladi.

Abzats stillari elementlari.

<pre>, </pre> teglari formatlangan, tayyor holga keltirilgan matndir. Uning <p> dan farqi Shundaki, <pre> elementi hamma bo‘sh joy va qator tashlashlarni «tuShunadi». Ya'ni bu elementlar o‘rtasiga matn qanday joylashtirilsa, Shu holatda brao‘zer oynasida ko‘rinadi.

<pre> elementidan jadvallar yozishda ham foydalanish mumkin:

yordamida bir nechta yangi elementlar keltiriladi. Stillar ikki xil bo‘ladi: fizik stillar va mantiqiy stillar.

Fizik stillar elementlari. Mantiqiy stillar elementlari.

Matn muharrirlari bilan ishlash jarayonidan bilamizki, matnlarni har xil ko‘rinishda ifodalanishi mumkin: qalinlashtirilgan (полужирный), qo‘lyozma shaklida (курсив), tagi chizilgan (подчеркнутый) ... Bu elementlarni ixtiyoriy grafik brao‘zerlar bir xil ko‘rinishda ifodalaydilar. Ba’zi bir fizik stillar:

| Element | Vazifasi |
|-------------------|-------------------------------------|
| , | Qalinlashtirilgan matn (полужирный) |
| <i>, </i> | Qo‘lyozma shaklidagi matn (курсив) |
| <tt>, </tt> | Harflar oralig‘ini kengaytirish |
| <u>, </u> | Tagi chizilgan matn (подчеркнутый) |
| <big>, </big> | Kattalashtirilgan matn |
| <small>, </small> | Kichiklashtirilgan matn |
| _, | Pastki indeks |
| [,] | Yuqori indeks |

Fizik stillarni ishlatish qoidasi:

1. Matnni kiriting.
2. Matn oldiga kursorni olib kelib kerakli tegni ochuvchisini yozing.
3. Matn oxiriga kursorni olib keling.
4. Yopuvchi tegni yozing.

 Qalinlashtirilgan matn (полужирный)

<i> Qo‘lyozma shaklidagi matn (курсив) </i>

<tt> Harflar oralig‘ini kengaytirish </tt>

<u> Tagi chizilgan matn (подчеркнутый) </u>

<big> KATTALASHTIRILGAN MATN</big>

<small> kichiklashtirilgan matn</small>

C_n

ax²+bx+c=0

JSP

JSP (JavaServerPage) texnologiyasi o'zining funksional imkoniyatlariga ko'ra ASP ga o'xshashdir. Asosiy farqi Shundaki, bunda VBScript va JavaScript bilan birga Java tili ham qo'llanila oladi. Shunga qaramay JSP Java dan oldinroq qo'llanilgan va ushbu texnologiya mukammal Web-ilovalar yaratish uchun etarli imkoniyatga ega.

SSI

SSI (Server Side Include) vositasi dastlab HTML-faylni dastlab serverda qayta ishlaydi va undan so'ng uni klientga o'zatadi. Dastlabki qayta ishlash vaqtida hujjatga dinamik generastiya qilingan ma'lumotlarqo'shiladi, masalan joriy vaqt haqidagi ma'lumot. Umuman olganda SSI texnologiyasi HTML-faylning tarkibiga qo'shimcha qo'llanmalar qo'shishga mo'ljallangan, HTMLning qismi hisoblanadi.

11.3-§. HTML muharrirlari.

Windows muhitidagi matn muharrirlari: Notepad, TextPad, UltraEdit, EdutPlus. Ko'rsatilgan hamma matn muharrirlari yordamida HTML kodlarni yozishda qo'llash mumkin.

Ko'pgina matn muharrirlarida HTML kodlarni hatto dasturlashtirish tillarida kodlarni yozish juda qulay. Ba'zilari avtomatik ravishda operatorlar, funksiyalarni tanish va ularni har xil ranglarda tasvirlash imkoniyatiga ega. Ba'zi matn muharrirlarida HTML hujjatni web brao'zerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

HTML hujjatni yaratishga mo'ljallangan maxsus dasturlar (HTML muharrirlar) ham mavjud: FrontPage, Adobe GoLive, Macromedia Dreamweaver, Nestcape Composer. Muharrirlar 2 turga bo'linadi:

- kod muharrirlari;
- WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get – nimani ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharrirlar. Bu muharrirlar yordamida foydalanuvchi HTML

komandasi va elementlarini yozmaydi, oddiy matn muharrirlaridek matn yozadi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtiradi, formatni o'zgartiradi va h.k. xolos.

Animatsiyalar yaratish. Multimedia elementlari.


Web animatsiyalar turlicha bo'ladi. Masalan *GIF Animator* dan foydalanib, tasvirlarni «Jonlantirish» mumkin. Bu web reklamalarda ko'p qo'llaniladi.

GIF animatsiyalarni Ulead GIF Animator (<http://www.ulead.com>) va Animagic GIF Animator (<http://www.rtlsoft.com/animagic/index.html>) dasturlari yordamida hosil qilish mumkin. GIF tasvirlardan yuqoriroq o'rinda Macromedia Flash yordamida yaratilgan animatsiyalar turadi. Bu animatsiyalar interaktiv bo'lganligi sababli Flash texnologiyalar ommalashib borayapti. Bu texnologiyani ayniqsa avtomobil ishlab chiqaruvchilar, web-bizneschilar, umuman, multimedia-prezentatsiya yaratmoqchi bo'lganlar keng qo'llaydilar.

Macromedia (<http://www.macromedia.com/flash/>) dan tashqari CoffeeCup Firestarter (<http://www.coffeecup.com>) dan foydalanib animatsiyalar yaratish mumkin.

Agar foydalanuvchi multimedia sahifasina yatarmoqchi bo'lsa, qo'shimcha instrumentlardan foydalanishiga to'g'ri keladi, masalan, Quick Time, Windows Media yoki boshqa multimedia programmalari.

Microsoft kompaniyasi Windows ME va undan keyingi chiqargan OT larida Windows Movie Maker dasturini qo'shib chiqarayapti. Bu dastur yordamida video roliklarni tahrirlash mumkin bo'ladi. Yana Sound Forge XP (<http://www.soniefoundry.com>) dasturidan tovushlarni tahrirlash va konvertatsiya qilishda foydalanish mumkin.



4 – rasm. 3.html fayli.

Har xil ajratuvchi gorizontal chiziqlar `<hr />` tegi yordamida qo'yiladi. Bu chiziq abzatslar oralig'ida joylashib, brao'zer oynasining eni bo'ylab chiziladi. Agar foydalanuvchi brao'zer oynasini o'lchamlarini o'zgartirsa, chiziq ham mos ravishdi o'zgaradi.

`<hr />` tegi `<br />` tegi kabi ochiq teg hisoblanadi, ya'ni bu teglarni yopuvchi tegi bo'lishi talab qilinmaydi.


HR – “horizontal rule” (gorizontal chiziq) dir. `<hr />` tegining atributlari:

| Atribut nomi | Vazifasi |
|--------------|---|
| Size | Gorizontal chiziqning qalinligi. Eng katta o'lcham 5 pikselni qo'llash tavsiya etiladi. |
| Width | Chiziqning enini belgilaydi, foizlarda beriladi. |
| Align | Chiziqning joylashishi: brao'zer oynasining chap tomonida, o'ng tomonida, o'rtasida. |
| Noshade | Chiziqning tashqi ko'rinishini belgilaydi. |

Masalan:

```
<hr      size="4"      align="center"      width="50%"
noshade="noshade" />
```

Endi matn stilizatsiyasi haqida. Teglar texnologiyasi



3 – rasm. 2.html fayli.

Saqlash va sinab ko‘rish.

Web sahifani yaratishda hamma fayllarni to‘g‘ri saqlash kerak. Keyin sayt yaratuvchisi o‘zi xohlagan natijaga erishganligini tekshirib ko‘rishi kerak.

Saqlash va sinab ko‘rish ketma-ketligi:

1. File -> Save File hamma o‘zgarishlarni saqlash.
2. Brao‘zerda Shu faylni ochish kerak. Open -> File.
3. Natijani ko‘rish.
4. Agar biror joyi to‘g‘ri ishlamasa, matn muharririga qaytib xatolarni to‘g‘rilash kerak.
5. Agar sahifa Web brao‘zerda ochiq holda turgan bo‘lsa Obnovitʹ tugmasini bosib o‘zgarishlarni tekshirish kerak.

Sarlavhalar <p> tegi kabi alohida abzats ko‘rinishida ifodalanadi. Sarlavhalarning 1-dan 6-gacha pog‘onalari mavjud.

<h1 align="center">Eng katta sarlavha</h1>

<h2>2-darajali kattalikdagi sarlavha</h2>

<h3>3-darajali kattalikdagi sarlavha</h3>

<p>Bu oddiy matn</p>

<h4>4-darajali kattalikdagi sarlavha</h4>

<h5>5-darajali kattalikdagi sarlavha</h5>

<h6>Eng kichik sarlavha </h6>

Fayllarni joylashtirish usullari. Fayllarni qanday nomlash kerak?

Web sahifalar yaratishda fayllarni joylashtirishning quyidagi usullari mavjud:

–**Hamma fayllar bitta papkada.** Bir nechta HTML sahifali va bir nechta tasvirlarga ega kichik saytlarni yaratishda hamma fayllarni bitta papkada joylashtirish mumkin. Bu usulning qulayligi Shundaki, o‘zaro murojaatlarda hech qanaqa yo‘l ko‘rsatish shart emas. Yomon tomoni esa, sayt rivojlanib, kengayib borsa, fayllar ko‘payib, hammasi aralashib ketadi.

–**Funksional papkalar.** Murakkab saytlarni yaratishning bir usulidir. Har bir papkada tizimning bitta funksiyali qismi joylashtiriladi. Eng yuqorida boshlangich fayl – index.htm, va unga tegishli tasvirlar bo‘ladi. Papkalar nomlari taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Firma_haqida”, “Aloqalar”, “Mahsulotlar”. Har bir papkada tegishli HTML fayllari va tasvirlar saqlanadi.

–**Fayl turlari bo‘yicha papkalar.** Bu usulda har bir papkada bir xil turdagi fayllar saqlanadi. Bu yerdagi fayllar qaysi funksiyani bajarishi muhim emas. Yuqori papkada faqat index.htm fayli joylashadi. Papkalar nomlari taxminan quyidagicha bo‘lishi mumkin: “Images”, “Products”, “Downloads”,...

Ixtiyoriy faylning kengaytmasi uning muhim qismidir. Chunki brao‘zer fayllarni uning kengaytmasiga qarab “taniydi”.

Odatda birinchi sahifa har doim index.htm, index.html kabi saqlanadi. Ko‘pchilik brao‘zerlar agar URL aniq ko‘rsatilmasa bu fayllarni avtomatik yuklashga harakat qiladi. Masalan, brao‘zerning adreslar paneliga <http://www.microsoft.com> deb yozilsa <http://www.microsoft.com/index.htm> faylini yuklaydi.

Faylni saqlashga unga mantiqiy nom tanlash kerak bo‘ladi. Fayl nomidan uni boshqa fayllardan oson ajrata olish kerak. Masalan, about_univer.htm, fiz_mat.htm, rector.jpg kabi nom qo‘yish maqsadga muvofiq.

11.4-§. HTML sahifalar yaratish.

Notepad ni ochamiz. HTML faylni yaratishni boshlaymiz. Sarlavha yozish uchun:

`<head>`

`</head>`

teglari yoziladi.

Brao'zer bu teglar o'rtasidagi matnni sarlavha deb tuShunadi va Brao'zerning eng tepa qismiga Shu matnni yozadi. Endi sahifaning tanasini hosil qilamiz:

`<body>`

`</body>`

Bu teglar o'rtasiga hamma matn va tasvirlarni joylashtirish kerak. HTML shablon bo'lishi uchun HTML sahifaning sarlavha va tanasini o'z ichiga olgan quyidagi zarur teglar yetishmayapti:

`<html>`

`</html>`

Demak, HTML shablon quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

`<html>`

`<head>`

`</head>`

`<body>`

`</body>`

`</html>`

`<head>` va `</head>` teglari o'rtasiga quyidagi teglarni joylashtirish mumkin:

`<title>`, `</title>` – hujjat nomi. Masalan:


`<title>` Web sahifa `</title>`

`<meta />` – ma'lumotlarhaqidagi ma'lumot. Ya'ni bu yerda asosiy terminlar yoziladi. Qidiruv tizimlari ishlaganda aynan Shu terminlar bo'yicha qidirish ishini olib boradi, saytlarni topadi. Masalan:

`<meta name="keywords" content="Tibbiyot institutitalabasi"/>`

content 50-200 ta soʻzni oʻz ichiga olishi mumkin.

name=(*"keywords"*, *"autor"*, *"copyright"*, *"description"*) – maxfiy qidirishda qoʻllaniladi, HTTP serverga dostup berish uchun http-equiv qoʻllaniladi.



2 – rasm. 1.html fayli.

**Web sahifaning tanasi. Abzatslar.
 tegi.**

<body> va </body> teglari oʻrtasiga sahifaning tanasi joylashtiriladi. Bu sohada Braoʻzer oynasida foydalanuvchi koʻrishi kerak boʻlgan matn, gipermurojaat, tasvirlar, jadvallar, ... ni joylashtirishiriladi.

<p>, </p> teglari ular orasidagi matnni alohida abzats koʻrinishida yozilishini taʼminlaydi. Masalan:

<p> Bu yangi abzats </p>

<p> </p> – boʻsh abzats joyini tashlaydi.

Matn muharrirlari yordamida HTML kodni yozganda boʻsh joy va abzatslar ahamiyatga ega emas. Yaʼni

<p> Bu yangi abzats </p>

bilan

<p> Bu

yangi

abzats </p>

yozuvlari braoʻzer oynasida bir xil koʻrinishga ega boʻladi.


Agar yozuvni yangi abzatsdan emas, yangi qatordan boshlash kerak boʻlsa,
 tegidan foydalanish mumkin. Masalan,

<p> Fargʻona sh.

Yangi Turon koʻchasi

Tel:00-000-00-00


4. HTML tilida formani vazifasini izohlab bering?
5. HTML teglar nimani anglatadi?
6. HTML asosiy teglarini izohlab bering?
7. Terg atributlari nima?
8. Web saxifga rasim joylashda ishlatiladiga teg va uni atributlarini izoxlab bering?
9. Sarlavxalar bilan ishlash teglarini tushuntirib bering?
10. Freymlar qanday ishlaydi?
11. Hujjatda linkni freymga bog'lashni tushuntiring?
12. Ob'ekt nima va qanaqa ob'ektlarni bilasiz?
13. Formaning qaysi nuqtasiga ma'lumot kiritilishini belgilovchi tegni misollar yordamida tushuntiring?
14. Kiritilayotgan matn maydoni parametrlari qanday belgilanadi?
15. Formada harakatlanuvchi ro'yhat qo'llash uchun qanday parametrlar kerak?
16. Freymlar va formalarni qo'llash bilan qanday imkoniyatlarga ega bo'lishimiz mumkin?
17. Frame tegi atributlarini misollar yordamida tushuntiring?




10 – rasm. 9.html fayli.

Ko'pgina grafik brao'zerlarda tartiblangan ro'yxatlarning qo'shimcha atributlarini qo'llash mumkin bo'ladi. Ularning yordamida tartiblashni ko'rinishini tanlash mumkin bo'ladi.


| Teg nomi | Ro'yxat turi |
|---------------------------------------|---|
| <code><ol type="A"></code> | Katta harflardan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ol type="a"></code> | Kichik harflardan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ol type="I"></code> | Rim (Katta) harflaridan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ol type="i"></code> | Rim (Kichik) harflaridan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ol type="1"></code> | Arab raqamlaridan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ul type="disc"></code> | Doiralardan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ul type="square"></code> | Kvadratlardan tuzilgan ro'yxat |
| <code><ul type="circle"></code> | Aylanalardan tuzilgan ro'yxat |




11 – rasm. Katta harflardan tuzilgan ro'yxat (`<ol type="A">`) ning ko'rinishi.




12 – rasm. Kichik harflardan tuzilgan ro‘yxat (<ol type=“a”>) ning ko‘rinishi.



13 – rasm. Rim (Katta) harflaridan tuzilgan ro‘yxat (<ol type=“I”>) ning ko‘rinishi.



14 – rasm. Rim (Kichik) harflaridan tuzilgan ro‘yxat (<ol type=“i”>) ning ko‘rinishi.



15 – rasm. Arab raqamlaridan tuzilgan ro‘yxat (<ol type=“1”>) ning ko‘rinishi.

qo'llanilsa, formadagi hamma o'zgarishlarni tozalash imkoniyati bo'ladi. Ya'ni tugmani bosish natijasida forma avvalgi holatga qaytadi:

```
<input type="reset" value="Formani tozalash " />
```

Kiritilgan ma'lumottasdiqlab serverga jo'natish tugmasini yasash ham mumkin: type="submit". Bu yerda faqat **value** atributi qo'llanilishi yetarli:

```
<input type="submit" value="Tasdiqlash" />
```

Tugmaning ustiga istalgan matnni yozish mumkin. **Ok** har doim ham tuShunarli bo'lavermasligi mumkin.

Agar tasdiqlash tugmasida grafikadan foydalanmoqchi bo'lsak, type="image" ni qo'llash mumkin. Bunda grafik faylning **URL** adresini va alternativ matnni kiritish kerak bo'ladi:

```
<input type="image" src="D:\DocNazokat\Web\Gerb.gif" alt="Tasdiqlash " />
```

Bundan tashqari <button> elementi ham mavjud bo'lib, uning yordamida ixtiyoriy tugmani formaga qo'yish mumkin. Uning **type** atributi mavjud bo'lib, uchta **reset**, **submit**, **image** qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin. U alohida konteynor bo'lganligi sababli ni ham qo'llash mumkin:

```
<button name="submit" type="submit">
```

```
<span style="font-family: Courier New; font-size: 14pt; font-variant: small-caps"> Jo'natish</span>
```

```
</button>
```

yoki

```
<button name="reset" type="reset">
```

```


```

```
</button>
```


Nazorat savollari:

1. Веб-хужжат деганда нима тушунилади?
2. Веб-сервер деганда нима тушунилади?
3. Веб-саҳифаларни сақлаш ва чоп этишни таърифланг.


- `<input type="checkbox" name="web" checked="checked" />`
 Internet qidiruv tizimlaridan
`<input type="checkbox" name="tele" />` Radio yoki
 televidenie reklamalaridan
`<input type="checkbox" name="press" />` Gazeta yoki
 jumallardan
- Pereklyuchatel (type="radio"). Foydalanuvchi bir nechta variantlardan faqat bittasini tanlashi mumkin bo‘ladi. Bu flajok elementiga o‘xshaydi biroq bu yerdagi MA’LUMOTLARdan faqat bittasini tanlash mumkin. Har qaysi pereklyuchatel **value** atributiga ega bo‘lishi shart. Oldindan biror variantni belgilab qo‘yish ham mumkinki, foydalanuvchi ulardan birortasini belgilashni uno‘tgan holda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xatolikning oldini olish mumkin:
 Saytni qanday topdingiz: `<br />`
`<input type="radio" name="where" value="web" checked="checked" />` Internet qidiruv tizimlaridan
`<input type="radio" name="where" value="tele" />` Radio yoki televidenie reklamalaridan
`<input type="radio" name="where" value="press" />` Gazeta yoki jumallardan
 - Yopiq maydon (type="hidden"). Bu kiritish maydonining ko‘rinmas holati bo‘lib, undagi ma‘lumotni o‘zgartirish mumkin emas. Bu elementning ma‘lumotlarkiritilishiga umuman aloqasi yo‘q. Uning qiladigan vazifasi biror qiymatni serverga jo‘natishdir. Masalan, bir nechta formalarni qayta ishlash uchun aynan bitta skript ishlatilsa, qaysi formadaga ma‘lumotlarishlanayotganligini bildirish uchun forma nomini kiritib qo‘yish mumkin:
`<input type="hidden" name="forma_nomi" value=form2" />`
 - Boshqarish tugmasi (type="button", type="reset", type="submit"). O‘zgarishlarni tasdiqlash yoki ularni bekor qilish tugmalari. Tugmalardan foydalanishda type="reset"



16 – rasm. Doiralardan tuzilgan ro‘yxat (<ul type=”disc”>) ning ko‘rinishi.




17 – rasm. Kvadratlardan tuzilgan ro‘yxat (<ul type=”square”>) ning ko‘rinishi.




18 – rasm. Aylanalardan tuzilgan ro‘yxat (<ul type=”circle”>) ning ko‘rinishi.

Bundan tashqari tartiblashni ixtiyoriy start atributi yordamida nomerlangan ro‘yxatni boshlang‘ich qiymatni tanlash mumkin bo‘ladi. Masalan, ro‘yxat 5 nomeridan boshlanishi kerak bo‘lsa, <ol start= “5”> deb yozish kerak bo‘ladi.



19 – rasm. ro‘yxat 5 nomeridan boshlanishi (<ol start=“5”>) ning ko‘rinishi.

value atributi ro‘yxat ichida boshqatdan ro‘yxat qilish imkoniyatini beradi.



20 – rasm. ro‘yxat ichida boshqatdan ro‘yxat qilish (<li value=“100”>) ning ko‘rinishi.

Stillar jadvali haqida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi va unga professional tashqi ko‘rinish bermoqchi bo‘lsangiz, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolardan holi bo‘lishingiz mumkin.

Agar sizda sayt tayyor bo‘lsa, u holda unga stillar jadvalini qo‘shish mumkin. Agar siz saytingiz uchun yagona stilni yaratgan bo‘lsangiz har safar **** ga o‘xshagan elementlarni ishlatish nima uchun kerak? Undan tashqari saytni tahrirlashga to‘g‘ri kelsa saytning tanasini tashkil qiluvchi o‘nlab web-sahifalarining har birini emas, bitta faylda saqlanuvchi stillar faylini tahrirlash juda ham oson bo‘ladi.

Ishni bazaviy saytni yaratishdan boshlaymiz. Tasavvur

kiritiladigan oynaning qatorlari va ustunlari sonini oʻrnatish mumkin:

```
<textarea name="comments" rows="5" cols="100">
```

Bu yerga elektron pochta adresingizni kiriting

```
</textarea>
```

Bu yerdagi oʻrtadagi matn ekranda hosil boʻladi. Yuqoridagi atributlardan tashqari yana **readonly** atributi ham qoʻllanilishi mumkin (readonly="readonly"). Bu atribut qoʻllanilganda ekranda hosil boʻluvchi matnni oʻzgartirishning iloji yoʻq.

<input> elementi.

Koʻp hollarda foydalanuvchilardan chegaralangan javoblardan birini tanlash talab qilinadi. <input> elementi yordamida bir nechta boshqaruv elementlarini hosil qilish mumkin:

- Kiritish maydoni (type="text"). Bu bizga yuqorida keltirilgan elementni eslatadi. Farqi bunda faqatgina bir qatorli oyna hosil boʻladi. Odatda foydalanuvchi ismi, familiyasiga oʻxshash maʼlumotkiritishi uchun ishlatiladi. **Size** atributi yordamida uning oʻzunligini berish mumkin. **value** atributi yordamida biror matnni kiritish mumkin (po umolchaniyu):

Familiya: <input type= "text" name= "last_name" size= "40" maxlength= "40" value= "Petrov" /> ;

- Parol (type="password"). Bu maxsus maʼlumotkiritish maydoni boʻlib, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan maʼlumotlarekranga oʻqilmaydigan holatda chiqariladi. Bu text turiga oʻxshab ketadi. Uni boʻsh qoldirish mumkin yoki «*» belgisi orqali biror parolni yozish mumkin:

Parolni kiriting: <input type= "password" name= "password1" size= "10" maxlength= "10" />

- Flajok (type="checkbox"). Foydalanuvchi tavsiya etilgan variantlardan bir nechtasini oʻrnatishi yoki bekor qilishi mumkin. Oldindan birortasini belgilab qoʻyish imkoniyati ham bor:

Saytni qanday topdingiz:

dasturlashtirish tillarida toʻzish mumkin. CGI–Common Gateway Interface).

Formalar yaratish. Matnli maydonlar va atributlar.

Formalar boshqa elementlar konteynori boʻlgan maxsus **<form>** elementi yordamida hosil qilinadi. Konteynorni ishlatishning umumiy sxemasi quyidagicha:

```
<form method="get_yoki_post" action= "Ma'lumotlar uchun  
mo'ljallangan URL">
```

```
... forma elementlari...
```

```
</form>
```

<form> elementi ikkita, **method** va **action** atributlariga ega. **Method** atributi ma'lumotserverga jo'natish to'rini aniqlab, **get** yoki **post** qiymatlardan birini qabul qiladi. Odatda **get** metodida **MA'LUMOTLAR**ning hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi (100 simvoldan ko'p bo'lmagan). Umuman agar formada bir nechta element bo'lib, ularni yuqori tezlikda jo'natish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilgani birinchi bo'lib o'zatiladi. Masalan:

```
<form method= "get" action= "/cgi-bin/search">
```

Agar formaga ko'plab ma'lumotlarni joylashtirish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilmasligi kerak. Bunday holatlar uchun ma'lumotlar o'zlashda ularning hajmlariga bogliq bo'lmagan **post** metodi bor:

```
<form method= "get" action= "/cgi-bin/survey.pl">
```

<form> elementining ikkinchi atributi **action** dir. U olingan ma'lumotqayta ishlaydigan skriptning **URL** adresini o'zida saqlashi kerak. Odatda skriptlar serverda **bin/** yoki **cgi-bin/** papkalaridan birida saqlanadi.


Formalar qo'llanilishining eng ko'p tarqalgan usuli bu foydalanuvchidan matnli ma'lumotlar olishga mo'ljallangan. Bu masalan, sayt haqida foydalanuvchining fikri yoki foydalanuvchining elektron adresi yozilishiga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Buning uchun matnli maydon hosil qilinishi kerak. **<textarea>** elementi Shu vazifani bajarishga mo'ljallangan. Ma'lumotlar

qilaylik u yaratilgan. Bizning maqsadimiz uni stillar jadvali yordamida o'zgartirish. Bazaviy saytda biz kelajakda ishlatishimiz mumkin bo'lgan hamma elementlarni ishlatishimiz kerak. Chunki biz yagona stilni yaratishimiz uchun hamma elementlar stilini o'zimiz Xohlagan ko'rinishga keltirishimiz kerak.

Bizning maqsadimiz kam mehnat sarflab bir ko'rinishli sayt yaratishga erishishdir. Keyin, masalan stillar faylidagi birinchi darajali sarlavhani stilini o'zgartirib, butun saytdagi hamma birinchi darajali sarlavhalar o'zgarishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hamma o'zgarishlar avtomatik amalga oshiriladi.

Quyidagi kodni qaraylik:

```
<html>
<head>
<title>9-mavzu</title>
</head>
<body>
<h1> <font face="Arial, Helvetica">9-Ma'ro'za. Sayt
stillari: ishlab chiqish, imkoniyat berish,
globallashtirish.</font></h1>
<h2> <font face="Courier New">A) Sayt stillari. <br />
B) Stillar jadvali va ruxsat.<br />
C) Globallashtirish. </font></h2>
<h1 align="center">.:A.:</h1>
<p><font face="Times, Timew New Roman" size="3pt">
Stillar jadvali haqida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni
oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi va
unga professional tashqi ko'rinish bermoqchi bo'lsangiz,
birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish
kerak bo'ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili
haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin
bo'lgan ko'plab muammolardan holi bo'lishingiz mumkin.
</p>
</body>
</html>
```



56 – rasm. 41.html fayli.

Koʻrinib turgandagidek **HTML** kodni naʼmunali deb boʻlmaydi. Albatta, brovzer oynasida bu narsa bilinmaydi. Birinchidan, biz qiladigan vazifa hamma sahifalarda bir xil elementlar uchun takrorlanadigan va oʻzun kodlarni yozmaslik, ya'ni stillar jadvalidan foydalanish maqsadimiz ham Shundan iborat.

Web-sahifalar uchun stillar jadvalini yatarish – elementlarning qaysi koʻrinishi yaxshiroq va ularga qanday koʻrinish chiroyliroq chiqishini tasavvur qilib unga kod yozishdir. Har bir element uchun bir nechtdan stillar yaratish mumkin. Masalan, **<p>** elementining oʻziga 5-6 xil stillar berish va undan web-sahifalarda foydalanish mumkin. Agar biz web-sahifalarning sodda boʻlishini istasak, u holda stillar jadvali oʻz-oʻzidan murakkablashadi.

Endi yuqoridagi misolning stillarini stillar javdali orqali yozamiz:

```
hr {width: 75%}
h1 {font-family: Arial, Helvetica}
h2 {font-family: Courier New}
p {font-family: Times, Times New Roman;
font-size: 12pt;}
```

Koʻrinib turibdiki, stillarni oʻqish va tuShunish osonroq. Stillar jadvalini saqlab (file_name.css) web sahifa bilan bogʻlagandan soʻng web-sahifaning kodi quyidagi koʻrinishga keldi:

bo'lishi mumkin. Masalan, foydalanuvchi **onlayn** holatida **Internet** dasturlari bilan ishlashi mumkin (kasalxona sayti orqali vrach chaqirishi yoki ishxonasining sayti yordamida avtomobilni prokatga olishi mumkin).

Elektron formalarni yaratishni maqsadi quyidagicha: u foydalanuvchidan axborot so'rashi va undan axborot olishi mumkin. Bunday holatlarda MA'LUMOTLARning bir qismini foydalanuvchi o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotni tanlashi mumkin bo'lgan tayyor menyular tashkil etishi mumkin. So'rovlar quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- Javoblari maxsus matnli sohalarga terilishi kerak bo'lgan savollar (masalan, ismi, familiyasi, elektron adresi, ...).
- Javoblari maxsus menyulardagi yoki ro'yxatdagi javoblardan birini tanlashi kerak bo'lgan savollar (masalan, qaysi davlatga tegishli ekanligi, qaysi mavzular qiziqtirishi, ...).
- Pereklyuchatellar orqali javoblardan yagonasini tanlashga mo'ljallangan savollar (masalan, erkak/ayol, ha/yo'q...).

Formalar HTML tilining kiritish oynasi, tugma, pereklyuchatel kabi elementlar naborlaridan foydalangan holda yaratiladi. Foydalanuvchi tomonidan yaratilayotgan har bir element o'zining nomiga ega bo'lib, keyinchalik oldindan aniqlangan biror o'zgaruvchiga beriladi. Masalan, matn kiritish maydoniga shahar nomni berilsa va foydalanuvchi maydonni Buxoro deb to'ldirsa Shuni bildiradiki, shahar o'zgaruvchisiga Buxoro qiymati berildi.

O'zgaruvchilar va ularning qiymatlari serverlarga o'zatiladi va o'z navbatida server «skriptlar» deb ataluvchi kichik dasturlarga murojaat qiladi. Skriptlar olingan ma'lumotqabul qilib oladi va ularni qayta ishlaydi. Natijada web-sahifada foydalanuvchining ma'lumoti qabul qilinganligi to'g'risida oddiygina ma'lumot (masalan, rahmat) chiqarib qo'yish mumkin.

HTML formalari bilan ishlash uchun skriptlar bilan ishlay olishi kerak (ular CGI skriptlar deyiladi va ularni turli

Shunisi qiziqki, bularning ko'pchiligi bizga odatdagi elementlar xususiyatlarini eslatadi. Masalan, **voice-family** – **font-family** ning analogidir. Shriftlar kabi tovushlar (maxsus formatda) kompyuterda bo'lishi kerak.

Globalashtirish.

Saytni rejalashtirishdagi yana bir kerakli qadamlardan biri sayt qaysi millat tillarini «podderjka» qilishini aniqlashdir. Buning uchun **lang** atributi va **<q>** elementidan foydalansa bo'ladi.

lang atributi ko'pgina elementlarda qo'llanilishi mumkin. Bu ularning milliy tilini aniqlaydi. Masalan:

`<p lang="ru"> Etot abzats napsan po-russki </p>`

lang atributi brao'zerga elementni qanday ifodalash kerakligi (agar brao'zer tovushli bo'lsa) yoki qidiruv tizimlariga saytlarni klassifikatsiyaga ajratishga yordam beradi. **lang** atributining qabul qilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir qiymatlari: ar–arab, de–nemis, es–ispan, fr–frantso'z, he–ivrit (), hi–xind, it–italyan, ja–yapon, nl–golland, pt–portugal, ru–rus, sa–sansrit, ch–xitoy tillari.

Yana bir qiziq fakt, boshqa matn muharrirlari kabi bunda ham jadvallar ichida kerakli joyda matn yo'nalishini berish mumkin. Buning uchun **dir** atributi qo'llaniladi.

`<p dir="rtl"> Chapdan o'ngga qarab emas, o'ngdan chapga qarab yozish </p>`

Bu atribut odatda o'ngdan chap tomonga qarab yoziladigan shriftlar uchun mo'ljallangan.

dir atributi **<tr>** yoki **<td>** elementlari ichida qo'llab, matn yo'nalishini tanlash mumkin bo'ladi. Aytish mumkinki, bu atribut qiymatlari har xil brao'zerlarda har xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

HTML formalarini qo'shish.

HTML tili web-sahifalar tarkibiga matnli sohalar, menyular, tugmalar kabi interfeys elementlar qo'yish imkoniyatini beradi. Bu ma'lumotlarjuda oddiy (elektron adres) yoki yetarlicha murakkab

```

<html>
<head>
<title>9-mavzu</title>
<link rel="stylesheet" href="d:/1.css" />
</head>
<body>
<hr />
<h1> 9-Ma'ro'za. Sayt stillari: ishlab chiqish, imkoniyat
berish, globallashtirish.</h1>
<h2> A) Sayt stillari.<br />
B) Stillar jadvali va ruxsat.<br />
C) Globallashtirish.</h2>
<hr />
<h1 align="center">.:A.:</h1>
<p> Stillar jadvali haqida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin
uni oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi
va unga professional tashqi ko'rinish bermoqchi bo'lsangiz,
birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish
kerak bo'ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili
haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin
bo'lgan ko'plab muammolardar holi bo'lishingiz
mumkin.</p>
</body>
</html>

```



57 – rasm. 42.html fayli.

Natija birinchi variantdagi kabi bo'lib, hech narsa o'zgarmaganligini ko'ramiz. Faqatgina yozgan kod toza bo'ldi xolos. Stillar jadvalining afzalligi Shundaki, yuqoridagi stil butun web-sahifaga qo'llanilishi mumkin.

Stillar jadvali va ruxsat.

CSS2 standatining ba'zi bir elementlari:

Xususiyati	Qiymati	Vazifasi
Azimuth	Left, center-left, center, center-right, right yoki burchak (-360^0 dan to 360^0)	Tinglovchi joylashgan joyga nisbatan burchakni ifodalaydi.
Cue-after	url	Matn o'qilganidan keyin berilgan URL adresdagi tovushli faylni ishga tushiradi
Cue before	url	Matn o'qilganiga qadar berilgan URL adresdagi tovushli faylni ishga tushiradi
Elevation	Below, level, above, yoki burchak (-360^0 dan to 360^0)	Tovush chiqaruvchi qurilma joylashgan vertikal burchakni ifodalaydi
Pause-after	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirib» bo'lgandan keyingi pao'za
Pause-before	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirguncha» bo'lgan pao'za
Pause	Sekundlar yoki millisekundlar	Element «gapirguncha» va «gapirib» bo'lgandan keyingi pao'za
Pitch	Low, medium, high	Tovush chiqish balandligi

	yoki chastota (Gts)	
Pitch-range	0, 50 yoki boshqa sonli qiymat	Chastota kattaligi: 0–monoton, 50 – normal
Play-do‘ring	Url	Fonda yangrovchi tovush adresi
Speak	None, normal, spell-out	Gapirish turi
Speak-numeral	Digits, continuous	Sonlarni aytish turi: ketma ket sifrlar yoki hamma sonlar birdaniga
Speak-punctuation	None, code	“code” Shuni bildiradiki, hamma tinish belgilarini aytish kerak (nuqta, vergul, ...)
Speak-rate	Slow, medium, fast, bir minutdagi so‘zlar soni	Gapirish tezligi
Voice-family	Male, female, Zervox, Princess, child	«Kimning» ovozi bilan gapirish (bu holatda shriftlar kabi tovushlar ham kompyuterga o‘rnatilgan bo‘lishi kerak.)
Volume	Silent, soft, medium, loud	Tovush balandligi

Bu xususiyatlar boshqalari kabi stillar aniqlanadigan joyda ifodalanishi mumkin. Masalan:

h1 {volume: loud; voice-family: Princess; pause: 1; speak-numerals: digits}

p {volume: loud; voice-family: male; speak-punctuation: none}

maqsadlarga mo'ljallangan bo'lsa, Shunday maqsadlarga mo'ljallangan, lekin bunda videoapparatura qo'llaniladi. Videokonferensiya – bu Shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi. Videokonferensiyaning o'tkazish kompyuter va monitorlar bo'lishini talab etadi.

Masofadan turib muloqotning videokonferensiya shakli 1964 yilda AT&T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Videophone (real vaqtda ovoz va tasvirni almashish) qurilmasidan boshlanadi. Bu qurilma yordamida ishtirokchilarning masofadan bir- birlariniy real vaqtda ko'rib turgan holda muloqotlarini tashkil qilingan.

Videokonferensiya jarayonida bir-biridan ancha o'zoq masofada bo'lgan uning ishtirokchilari ekranda o'zlarini va boshqa ishtirokchilarni ko'rib turadilar. Televizion tasvir bilan bir vaqtda ovoz ham eshitisiladi turadi. Masofadan videokonferensiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Shunisi bilan videokonferensiya shaklida masofadan turib interfaol o'qitish tizimi Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan hamda radio yoki televidenie orqali ma'ro'za o'qishdan farq qiladi. Videokonferensiyada tashqi elektron doskadan foydalanilganda o'qituvchi doskaga yozadi va uni videokonferensiya aloqasi ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi.

Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ham ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ro'za o'qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Videokonferensiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

- a. videokonferensiyaning amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari;
- b. videokonferensiyaning o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

XII BOB. -TIBBIYOTDA ELEKTRON VA MASOFAVIY O‘QITISH.

12.1-§. Masofaviy o‘qitish

Masofaviy ta’lim (lotincha “distanstiya” – masofadan foydalanish) o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shaxsiy aloqasiz “masofadan o‘qitish” imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot va telekommunikastion texnologiyalardan foydalanish bo‘lib, unga ko‘ra ta’lim jarayoni yangi axborot texnologiyalari, multimedia tizimi yordamida tashkil etiladi. U O‘quv fanlari bo‘yicha o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash, idrok etish qobiliyatini rivojlantirish kabi imkoniyatlarga ega. Hozirgi zamon ta’lim jarayoniga ananaviy tushunchalar qatorida yangi-yangi tushunchalar kirib kelmoqda. Quyida Shu tushunchalardan asosiylari keltirilib, ularga ta’riflar berib o‘tilgan.

Masofaviy o‘qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va formalarini o‘z ichiga olgan sirtqi va kundo‘zgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda Shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almaShuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim kompleksidir.

Demak masofaviy o‘qitish masofaviy ta’lim kompleksidagi jarayon ekan. Masofaviy o‘qitishning va masofaviy ta’limning

o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik tizimi, zarurligi va maqsadi mavjud.

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turidan quyidagi xarakterli xususiyatlari bilan farqlanadi.

Moslashuvchanlik – Ta'lim oluvchiga o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda ta'lim olish imkoniyati mavjudligi.

Modullilik – Bir biriga bog'liq bo'lmagan mustaqil o'quv kurslari to'plamidan - modullardan individual yoki guruh talabiga mos o'quv rejasini to'zish imkoniyati mavjudligi.

Parallellilik – O'quv faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati mavjudligi.

Keng qamrovlilik – Ko'p sonli o'quvchilarning bir vaqtning o'zida katta o'quv (elektron kutubxona, ma'lumotlar va bilimlar bazasi va boshqalar) zahiralarga murojaat qila olishi. Bu ko'p sonli o'quvchilarning kommunikatsiya vositalari yordamida o'zaro va o'qituvchi bilan muloqotda bo'lish imkoniyati.

Iqtisodiy tejamkorlik – O'quv maydonlari, texnika vositalari, transport vositalari va o'quv materiallaridan samarali foydalanish, o'quv materiallarini bir joyga yig'ish, ularni tartiblangan ko'rinishga keltirish va bu ma'lumotlarga ko'p sonli murojaatni tashkil qilib bera olish mutaxassislarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni kamaytiradi.

Ijtimoiy teng huquqlilik – Ta'lim oluvchining yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli ta'lim olish imkoniyati.

Internatsionallilik – Ta'lim sohasida erishilgan jahon standartlariga javob beradigan yutuqlarni import va eksport qilish imkoniyati.

O'qituvchining yangi roli – Masofaviy o'qitish o'qituvchining o'qitish jarayonidagi rolini yanada kengaytiradi va yangilaydi. Endi o'qituvchi o'zlashtirish jarayonini muvofiqlashtirishi, yangiliklar va innovatsiyalarga mos ravishda berayotgan fanini muntazam mukammallashtirishi, saviya va ijodiy

sohasiga tegishli ko'plab foydali va qiziqarli veb saytlar yaratilmoqda, (<http://www.bilim.o'z>, <http://www.bilimdon.o'z>, <http://www.ilm.o'z>, <http://www.student.o'z>, <http://www.study.o'z> va boshqalar). Eng quvonarlisi esa internetda nafaqat universitet, institut, kollej va akademik litseylar balki maktablar ham o'zlarining veb sahifalariga ega bo'lishmoqdalar.

12.3-§. Masofadan o'qitish modellari.

Kompyuter ta'limi masofaviy ta'limning o'ziga xos turi sanaladi. Masofaviy ta'lim metodi o'z tarkibiga birqancha ta'lim shakllarini oladi. Ulardan ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Internet konferenstiyalar – bu muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining Internet tarmog'i orqali konferenst aloqasi yordamida o'zaro axborot almashinishi jarayonidir. Tabiiyki, bu texnologiyadan foydalanish huquqiga shaxslar doirasi cheklangan bo'ladi. Adabiyotlarda telekonferenstiya atamasini ko'p uchratish mumkin. Telekonferenstiya o'z ichiga konferenstiyalarning uch to'rini: audio, video va kompyuter konferenstiyalarini oladi. Kompyuter konferenstiyasi ishtirokchilari soni audio va videokonferensiyalar ishtirokchilari sonidan ancha ko'p bo'lishi mumkin.

Audiokonferensiyalar - ular tashkilot yoki firmaning hududiy jihatdan o'zoqda joylashgan xodimlari yoki bo'linmalari o'rtasida kommunikatsiyalarini saqlab turish uchun audioaloqadan foydalanadi. Ikkitadan ko'p ishtirokchi so'zlashuvda qatnashishini ta'minlaydigan qo'shimcha qurilmalar bilan jihozlangan telefon aloqasi tizimi audiokonferensiyalarni o'tkazish uchun qo'llaniladigan eng oddiy texnika vositasi hisoblanadi. Audiokonferensiyalarni tashkil etish kompyuter bo'lishini talab etmaydi, faqatgina uning ishtirokchilari o'rtasida ikki tomonlama audioaloqadan foydalanishni ko'zda tutadi. Audiokonferensiyalardan foydalanish qarorlar qabul qilish jarayonini engillashtiradi, u arzon ham qulay.

Videokonferensiyalar - ham audiokonferensiyalar qanday

muassasalari tomonidan ko'plab ta'lim sohasiga tegishli yangi dasturlar va elektron kitoblar yaratilmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimizda 2000-yildan o'z ishini olib borgan, **AQSH** Davlat Departamentining Ta'lim va Ma'daniyat masalalari bo'yicha byurosi (**ECA**) va Xalqaro Ilmiy Tadqiqotlar va Olimlarni Ayirboshlash Kengashi (**IREX**) tomonidan tashkil qilingan "Internetdan foydalanish va o'qitish programmasi" (<http://www.iatp.o'z>) va "O'zbekiston maktablarida Internet" (<http://www.connect.o'z>) programmalarini ham aytish lozim.

Shu programmalarining asosiy vazifasi - bizning Respublikamizda Internet va uning xizmatlarini rivojlantirishda aholi ichida keng tadbiq qilish. Ushbu programmalar natijasi deb hozirgi kunda Respublikamizning 16-ta shahrida aholiga beminnat xizmat ko'rsatgan "Internetdan bepul foydalanish" markazlari hamda Respublikamizning 6-ta viloyatining 60 maktablarida tashkil qilingan Internet markazlarini aytish mumkin.

Shu bilan birga O'zbek tilidagi Internetni rivojlanishi va undagi ta'lim sohasiga tegishli maxsus saytlarini paydo bo'lishini ham aytish lozim deb hisoblaymiz. **2004 yilning birinchi kvartalining o'zida Internet** foydalanuvchilar soni taxminan **511 000** ga etdi (2003 yil boshida 275 000 ta). Shu bilan birga 2003 yil boshiga nisbatdan internet provayder va operatorlar soni 263 (o'sish 94,8%), O'Z zonadagi veb saytlar soni esa 2600 dan oshdi (o'sish 188,4%), Internetga bog'langan davlat korxonalar soni 470 (o'sish 63,6%), hujalik sub'ektlar soni 8600 (o'sish 68,9%), internetdan ommaviy foydalanish punktlar soni 228 (o'sish 115,1%) ga teng bo'ldi.

IATP programmasining internet grantlari natijasida tashkil qilingan va **2002 yildan faoliyat ko'rsatib kelgan "Masofaviy ta'lim portali"** (<http://dl.freenet.o'z>) yoki ko'plab Respublikamiz Universitet va Institutlari tomonidan o'zlarining veb sahifalarida tashkil qilingan "Masofaviy ta'lim kurslari"ni ham alohida aytishimiz zarur (masalan <http://nuu.o'z> O'zbekiston Milliy Universiteti saytida tashkil qilingan kurslar). Ta'lim

faoliyatini yanada chuqurlashtirishi talab etiladi.

Sifat – Masofaviy o‘qitish usuli ta’lim berish sifati bo‘yicha kunduzgi ta’lim turidan qolishmaydi. Balki, mahalliy va chet ellik dars beruvchi kadrlarni jalb qilib, eng yaxshi o‘quv-metodik darsliklar va nazorat qiluvchi testlardan foydalangan holda o‘quv jarayonini tashkil etish sifatini oshirishi mumkin.

Zamonaviy texnologiyalar masofaviy oliy pedagogik ta’limni yangicha tashkil qilinishiga asos yaratadi. Bunday ta’limda pedagoglar, kompyuter dasturchilari va mutaxassisleri yordamida yangi o‘qitish kurslarini yaratishlari lozim bo‘ladi. Masofaviy o‘qitish kurslarini yaratishda dastlab:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo‘llari;
- o‘quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o‘qitish metodlari;
- o‘quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo‘llari;
- o‘zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlash lozim.

Bularning barchasi kurslarni yaratuvchi - o‘qituvchilar (kurslar dizayneri) va texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi.

O‘quvchi va o‘qituvchining o‘rtasidagi kommunikatsiya turiga ko‘ra masofaviy o‘qitish metodlarini quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- mustaqil o‘qish usullari;
- «birga-bir» pedagogik usuli;
- «birga-ko‘pchilik» o‘qitish;
- kommunikatsiya asosida «ko‘pchilik-ko‘pchilik» ta’limi.

12.2-§. Masofadan o‘qitish tizimlari.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y berayotganligi kun sayin yaqqol ko'rinib bormoqda. Turli ta'lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o'qitish (MO') keng qo'llanilayotgatliligi ham quvonchli hol. Ko'pchilik Internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, informatsiya qidirish, elektron pochtdan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya'ni Internet turli sohalarga tadbiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o'qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqalar. Quyida bu texnologiyalarning qisqacha, lekin asosiy tavsiflarini keltiramiz. Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarmiqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo'miqda. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. Informatsiya oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limotni takomillashtirishda yangi informatsiya texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi qonuni ham zimmamizga Shu ma'suliyatni yuklaydi.

Va'holanki ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermiqda. Ta'lim tizimida masofadan o'qitish uslubi shakllari qo'llanilmiqda. Masofadan o'qitish uslubi bu sirtqi o'qishning yangi

va usullarini aniqlash kerak.

O'quv materialga metodik talablarini ishlab chiqarish. Yangi bilimlarni berish usullarini va hajmlarni aniqlash kerak.

Darslar jadvalini ishlab chiqarish. Butun kursni bir nechta modullarga bo'lish, har bitta modul tugallashidan keyin o'quvchi tomonidan qanaqa bilimlarga ega bo'lishini aniqlash kerak.

O'quv jarayonini monitoringni tashkil qilish.

Tekshiruv jarayonlarni rejalashtirish.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini rejalashtirish.

O'quv jarayoni natijalarini prognozlashtirish.

Natijalarni aniqlash va tahlil qilish.

O'zbekistonda masofaviy ta'limni rivojlanishi. O'zbekiston boshqa mustaqil davlat hamdo'stligi mamlakatlariga o'xshab o'zining ta'lim sohasini jahon standartlariga olib kelishda ko'p harakatlar qilmoqda. Mamlakatimizning maydoni kattaligi va markazdan geografik o'zoqlashgan regionlar mavjudligi elektron ta'limni rivojlanishiga asosiy sabab bo'lib, unga katta ahamiyat berilishiga olib kelmoqda. Hozirgi moliyaviy tanqislik davrida, ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim. Mazkur ta'lim to'rini joriy qilish bilan bog'liq ayrim muammolarning kelib chiqishi tabiiy. Bular asosan mablag'lar, texnika ta'minoti va Shu sohada malakali muhandis hamda pedagog kadrlar etishmovchiligi, lekin biz Shu muammolarni imkoniyat darajasida hal qilishimiz zarur chunki, O'zbekiston sharoitida masofaviy ta'limni tashkil qilinish katta samara berishi aniq. Hozirgi kunda ta'lim va ishlab chiqarish sohasini kompterslashtirish va Shu sohalarda informatsion texnologiyalarni rivojlantirish haqida ko'plab prezidentimiz farmonlari va Oliy majlis qarorlari chiqarilgan. Natijada oxirgi besh yil ichida Respublikasizda ko'plab ibratli ishlar qilindi. Masalan 2002 yilda Toshkent axborot texnologiyalar universiteti tashkil qilinib, Shu yildan boshlab bu universitet kompyuter va kommunikatsiyalar, radiotelefon va axborot tarmoqlari, dasturiy ta'minot va elektron kommertsiya sohasiga zarur bo'lgan mutaxasislarni tayyorlamoqda. Ushbu va boshqa oliy ta'lim

bo'yicha o'rtacha 774 veb saxifa). Undan keyingi o'rinlarda Singapur, Germaniya, Yaponiya va Kanada mamlakatlari turishadi. AQSH esa 7 o'rinda.

2005 yilga Internet foydalanuvchilar soni 1 milliardga teng bo'lishi kutilmoqda. 135 million AQSH fuqorolari Internet xizmatlaridan doimiy foydalanmoqda bo'lib, 2002 yildagi har bir ishlatilgan dollarning yarimi Internet orqali ishlatilgan. Masofaviy ta'limni jarayonida quyidagilar qatnashishi shart, bular-masofaviy kurs avtor, metodist, o'qituvchi (tyutor, koordinator), ruxshunos, administrator, dokumentovod, telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi hamda o'quvchilar.

- **Avtor** - masofaviy kursni yaratuvchi, uni yangilatuvchi va taxrirllovchi shaxs.

- **Metodist** - masofaviy kurs avtoriga konsultatsiyalar beruvchi va kursni taxrirllovchi shaxs.

- **O'qituvchi** - o'quvchilar bilan o'qish jarayonida muloqotda bo'luvchi va ularga yordam beruvchi hamda ularning bilimlarini tekshiruvchi shaxs.

- **Ruxshunos** - o'qish jarayonining psixologik monitoringni tashkil qiluvchi shaxs.

- **Administrator** - o'quvchilarni qabul qilish va o'qishdan chetlash masalalarini echuvchi va malakali o'qituvchilarni jalb qiluvchi shaxs.

- **Dokumentovod** - hujjatlar bilan ishlovchi shaxs.

- **Telekommunikatsiya va dasturiy ta'minot gruppasi** - dasturlar va telekommunikatsiya resurslar ishini ta'minlovchi shaxslar.

- **O'quvchilar** - o'quv jarayonida qatnashuvchi shaxs.

O'quv jarayoninin tashkil qilishda esa albatta quyidagi qadamlarni bajarishimiz zarur bo'ladi:

Kurs maqsadlarini aniqlash. Qaysi bilimlarni (mavzular, fan va ...) va kimlar uchun o'qitish kerak.

O'qish metodlarini tanlash. O'quv jarayoni davomida bilimlar va kunikmalar darajasini diagnostika hamda tekshirish manbalarini

shaklidir. Masofadan o'qitish bu mustaqil o'qishdir. Mustaqil o'qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masofadan o'qitishning yana bir afzalligi Shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin. Aynan Shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. K'ypgina yirik korxonalar mutaxassislari malakasini oshirish yoki o'zgartirish uchun Shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqdalar.

Masofadan o'qitishning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, Shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Programmani o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

Ushbu uslubning ko'plab afzallik tomonlari borligi ko'pchilikka ayon. Barcha oliy o'quv yurtlarida masofadan o'qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi masofadan o'qitishni tashkil etishga yangicha yondaShuvni taqozo etadi. Masofadan o'qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarning asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi.

MO' asosida ta'lim berish uchun o'qish istagida bo'lgan aholining muayyan qismini ta'lim muassasasi joylashgan yerga yig'ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki o'quvchi tomondan ortiqcha sarf - xarajat qilish zarurati bo'lmaydi. Uchinchidan, bu ta'lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. MO' ga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlariga mansub bo'lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

- ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot olish, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar;

- mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari;
- an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma'lumot olaolmagan yoshlar;
- o'z ma'lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish istagida bo'lgan firma va korxonalar xodimlari;
- ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan tinglovchilar;
- markazdan o'zoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi;
- erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar;
- jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar;
- harbiy xizmatda bo'lgan shaxslar va boshqalar.

O'zbekiston sharoitida MO'ni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta'limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim.

Masofaviy ta'lim modellari. Masofaviy ta'lim (MT) - bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, informatsion texnologiyalardan fodalanilgan ta'lim turi. Bu ta'lim to'rini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta'lim tashkil qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik o'zoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lim uchun mo'taxasislar mavjudligi, ta'lim sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta'lim sohasidagi odatlari.

Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o'qituvchiga birlashtirilgan bo'lishadi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo'limlar bo'lishi shart. Shunday o'quv kurslarda o'qituvchi va o'quvchilarga o'quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi (<http://www.ou.uk>) ta'limni olish mumkin.

Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kundo'zgi

xizmatlaridan foydalanib, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida xatlar orqali muloqot o'rnatib ta'lim olish yo'li. U yordamida har xil test, vazifa, savol-javob va ko'rsatmalarni (matn, grafika, multimediya, dasturlar va boshqa ko'rinishida) jo'natib qabul qilishimiz mumkin.

O'zoqdan boshqarish sistemalar - murakkab dastur, sistema va uskunalarini real holatda boshqarish va ularda ishlash imkoniyatlarini yaratuvchi maxsus sistemalar yordamida bilim olish yo'li. O'zoqdan boshqarish sistemalarning asosiy vazifasi o'quvchiga faqatgina amaliy bilimlarni berish.

Simulyator, elektron darsliklar va o'quv dasturlar - bu asosan nazariy va amaliy bilimlarni kompyuter dasturlari orqali o'quvchilarga off-layn holatida olish yo'li. Simulyator va elektron darsliklar hozirgi kunda ta'lim sohasida juda keng qo'llanilyapti.

Test topshirish sistemalar - bu maxsus dasturlar yordamida o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarni tekshirish uning asosiy vazifasi bu talabalar bilimlarini tekshirib ularni baholash.

Internetning masofaviy ta'lim portal - bu maxsus Internet saytlar (onlayn resurslar). Ushbu saytlarning asosiy vazifasi - ta'lim jarayonini tashkil qilish, yoki boshqa so'zlar bilan o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida elektron onlayn muloqotni o'rnatish, o'qituvchilarga o'quv materiallarni joylashtirish va o'quvchilarga Shu ma'lumotlar bilan ishlashga hamda boshqa masofaviy ta'lim servislardan foydalanishga imkoniyat yaratish.

IDC (<http://www.idc.com>) kompaniyaning ilmiy izlanish natijalari bo'yicha, global onlayn-ta'lim bozori 2000 yilda 2,2 milliard AQSH \$ ga teng bo'lsa, 2005 yilga kelib jahonda ta'lim sohasiga tegishli internet-dasturlar 18.5 milliard AQSH \$ ga teng sotilishi kutilmoqda. Nielsen-NetRatings kompaniyaning izlanishlari natijasida, 2000 yil mart oyida Internet foydalanuvchilar soni 379 mln. ga teng bo'lgan bo'lsa ulardan 211 mln. internetning aktiv foydalanuvchilari. Ushbu kompaniya ma'lumotlariga ko'ra eng aktiv foydalanuvchilar Janubiy Koreyada joylashadilar - bir oyda 2164 veb saxifani ko'rib chiqishadi (dunyo

davlat nusxasidagi diplom berilmasligi. Shu sababdan ko'pgina masofaviy ta'lim kurslari bitiruvchilariga faqat ushbu kursni bitirganligi haqida sertifikat yoki guvoxnomalar berishadi.

Virtual muhit va texnika ta'minot bilan bog'liqligi. Masofaviy ta'lim internet borligi, undan foydalanish narxi, tezligi va servislar mavjudligiga, maxsus kommunikatsion texnikalar mavjudligi va ular ishlashiga taalluqli.

Masofaviy ta'limning texnologiyalari va unda qatnaShuvchilari.

Masofaviy ta'limning asosiy texnologiyalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

INTERAKTIV texnologiyalar:

- Internet masofaviy ta'lim portali.
- Video va audio konferentsiyalar.
- Elektron pochta orqali ta'lim.
- Internet orqali mustaqil ta'lim olish.
- O'zoqdan boshqarish sistemalar.
- Onlayn simulyator va o'quv dasturlar.
- Test topshirish sistemalari.

INTERAKTIV bo'lmagan texnologiyalar:

- Video, audio va bosmaga chiqarilgan materiallar.
- Televizion va radio ko'rsatuvlar.
- Disklarda joylashgan dasturlar.

Video va audio konferentsiyalar - bu Internet va boshqa telekommunikatsion aloqa kanallari yordamida ikkita, o'zoqlashgan auditoriyalarni telekommunikatsion holatda bir biri bilan bog'lab ta'lim olish yo'li. Video va audio konferentsiyalar uchun katta hajmda maxsus texnika, yuqori tezlikga ega bo'lgan aloqa kanali va o'qitishni tashkil qilish uchun xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni jalb etish kerak bo'ladi.

Internet orqali mustaqil ta'lim olish - bu Internetda joylashgan ko'pgina saytlarda joylashgan katta hajmdagi ma'lumotlar ustidan mustaqil ravishda ishlash va yangi bilimlar olish yo'li.

Elektron pochta orqali ta'lim esa eng ommaviy Internet

ta'lim o'quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o'quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud. Shunday o'quv muassasalarda kundo'zgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko'p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo'nalishlarni izlanishlarida qullaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya Universitetidagi (<http://www.une.edu.au>) ta'limni olish mumkin.

Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kundo'zgi ta'lim turlarini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. O'quvchilar o'quv kursning bir qismini kundo'zgi, boshqa qismini esa masofadan o'qiydi. Shu bilan birga bu ta'lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiyalar o'tkazish ham kiradi. Bu modelga misol qilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi (<http://www.massey.ac.nz>) ta'limni olish mumkin.

Konsortsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o'quv kurslarni tashkil qilib ishini ta'minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o'quvchilarni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas, balki bitta kafedra yoki markazi yoki universitet o'rnida ta'lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o'quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xuquqlarini tekshirish zarur bo'ladi. Bu modelga misol qilib Kanadadagi Ochiq O'quv Agentligidagi (<http://www.ola.bc.ca>) ta'limni olish mumkin.

Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir biri bilan o'zlari yaratgan o'quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta'lim sohasida etakchi bo'lgan o'quv muassasa bu sohada ilk qadam qo'yadigan muassasaga o'zining o'quv kurslarni takdim qiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa o'quvchilari bir xil ta'lim va diplomlar olishadi. Bu modelga misol qilib Ochiq Universitet Biznes maktabi va Sharqiy Evropa Universitetlari bilan bo'lgan hamkorligi bo'lishi mumkin.

Validatsiya. Ushbu model universitet va uning filiallari bilan

bo'lgan munosabatlariga o'xshash. Bu modelda bitta universitet o'quv kurs, diplomlarni kafolatlasa, qolgan bir nechta universitetlar o'quvchilarni ta'minlaydi.

O'zoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta o'quv muassasada bo'lib o'tgan o'quv kurslar videokonferentsiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekomunikatsion kanallar orqali sinxron teleko'rsatuvlar ko'rinishida boshqa auditoriyalarga o'zatiladi. Aralashgan model bilan farqi Shundaki, bu modelda o'quvchilar kundo'zgi ta'limda qatnashmaydi. Bu modelga misol qilib AQSHning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning markaziy radio va televidenie Universitetidagi ta'limni olish mumkin.

Proektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta'lim mutaxassislari va pedagoglar to'plangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar aholining katta qismiga namoyish qilinib o'z vazifasini bajar-gandan keyin to'xtatiladi. Bu modelga misol qilib Afrika, Osiyo va Lotin Amerikadagi rivojlanmagan mamlakatlarida o'tkazilgan qishloq xujaligi, soliqlar va ekologiya haqidagi o'tkazilgan har xil kurslar bo'lishi mumkin.

Masofaviy ta'limning yutuqlari va kamchiliklari.

Masofaviy ta'limning metodik, iqtisodiy, sotsial yutuqlar va afzalliklari, hamda kamchilik va salbiy tomonlari mavjud.

Metodik yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Dars jadvalni qulayligi. O'quvchi o'ziga ma'qul bo'lgan vaqtda o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
- Qulay foydalanish manzillari. O'quvchi internet kafe, uy, mexmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
- Qulay o'qish tempi. Ta'lim, o'quvchilar yangi bilimlarni tuShunish tempida o'tkaziladi.

- Qulay o'quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lim talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin.
- Ma'lumotlar bazasini to'planishi. Oldingi o'qigan talabalar bilimlarini to'plash va undan foydalanish imkoniyati.
- Kurgazmali qulayliklari. Multimediya imkoniyatlaridan to'lik foydalanish imkoniyati.
- Malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lim jarayoniga jalb qilish.

Iqtisodiy yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Cheksiz masofaga ta'lim berish. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi masofa hech qanday ahamiyatga ega emas. Ish jarayoniga xalaqit bermasligi. O'quvchi ishdan ajralmas holatda ta'lim oladi. O'quvchilar sonini oshirilishi. Masofaviy ta'lim texnologiyalarni to'lik qullagan o'quv muassasa talabalar soni 2-3 barobar oshishi mumkin. Narxi. Masofaviy ta'lim kurslari 2 va 3 barobar oddiy kurslarga qaraganda arzon.

Sotsial yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Ijtimoiy guruhlariga ajratish yo'qligi. Masofaviy ta'lim kursida ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ma'lumot oluvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar; ikkinchi paralel ma'lumot olishni xohlagan talabalar; markazdan o'zoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisi; jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar; armiya xizmatida bo'lgan shaxslar; erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar; va boshqalar qatnashishi mumkin. Yosh cheklanishlari yo'qligi. O'qishga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilinadi.

Ammo masofaviy ta'limda salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Elektron holatdagi ta'lim va muloqot jarayonlarga ishonchsizlik. Ushbu sababdan talabalar asosan virtual holatdagi ta'lim turida emas, balki oddiy (kundo'zgi va sirtqi) ta'lim turlarida o'qish istagida bo'lishadi.

Davlat masofaviy ta'lim standartlari yo'qligi va natijada

Afzalliklari:

- bepul dasturiy ta'minot;
- cheksiz foydalanuvchilar;
- 100 dan ortiq tilni qo'llab-quvvatlaydi;
- доступ с мобильного приложения Moodle Mobile mobil ilovasidan foydalanish Mobile;
- testlar, ma'ro'zalar, so'rovlar yaratish uchun qulay muharrir;
- xususiylashtirish imkoniyati mavjud.

Kamchiliklari:

- murakkab interfeys.

Talent LMS



Talent LMS-oddiy interfeys bilan kurslarni yaratish uchun ingliz tilidagi platforma. Ushbu turdagi xizmatlar uchun barcha kerakli funksiyalar mavjud. Mos kelmaydigan kurslar va aralash ta'lim uchun javob beradi (*rasmiy veb sahifasi: <https://www.talentlms.com/>*).

Afzalliklari:

- sinov muddati bor;
- sertifikatlar berilishi mumkin;
- PayPal orqali kurslarni sotish Paypalmumkin;
- tizim Scorm va TinCan bilan mos keladi.

Kamchiliklari:

- rus tilini qo'llab-quvvatlamaydi.

Videokonferensiyalar transport va xizmat safari harajatlarini ancha qisqartirish imkonini beradi. Bunda o'zoqda joylashgan ta'lim oluvchilarda ta'limni o'zlashtirish samaradorligi oshadi.

12.4-§. Forumlar – ta'lim metodi.

Forum tushunchasi. Internet tarmog'ida forumlar veb-sayt ko'rinishida bo'ladi va Veb-forum deb ataladi. Veb-forum – veb--sayt tashrif buyuruvchilarining o'zaro muloqotini tashkil etish uchun mo'ljallangan veb-sayt sahifalari va uskunalari majmui. Qisqacha aytganda, forum bu veb-saytning tashrif buyuruvchilari muloqot o'rnatadigan maydonchasi. Bunda ixtiyoriy foydalanuvchi forum veb-saytiga tashrif buyurib, o'zini qiziqtirgan mavzuni o'rta tashlashi va veb-saytning boshqa tashrif buyuruvchilari bilan muhokama qilishlari mumkin. Forum muloqotning yana bir oddiy turi bo'lib, bu muloqotda ixtiyoriy vaqtda ixtiyoriy joydan qatnashish ham mumkin. Forumni o'tkazishda biror mavzu tanlanadi va u muhokamaga qo'yiladi. Qatnashuvchilar mo'zokara jarayoni bilan tanishib, o'z fikrlarini jo'natishlari mumkin. Bu usulda siz muhokamada qatnashayotganlarni ko'rmaysiz, faqatgina ularning fikrlari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. Forumda turli-tuman mavzular muhokama qilinadi. Bunda siz biror mavzuni tanlab, ularning muhokamasida ishtirok etishingiz mumkin.

Milliy va xalqaro internet forumlari. Internet forumlari alohida yo'nalishlarga ixtisoslashgan yoki umumiy bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan Internet forumlariga meditsina, dasturlash texnologiyalari, dizayn va moda, kompyuter o'yinlari va transport vositalariga bag'ishlangan forumlar misol bo'ladi. Ixtisoslashgan forumlarda faqatgina mo'ljallangan sohaga oid mavzular muhokama qilinadi, umumiy forumlarda esa, ixtiyoriy mavzuni o'rta tashlash mumkin.

Xalqaro forumlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- **Medicinform.ru** forumi — ushbu forum tibbiyot sohasiga ixtisoslashgan bo‘lib, u orqali kasalliklar va ularni davolash, dori vositalari va ularni to‘g‘ri qo‘llash hamda tibbiyot bo‘yicha yuridik maslahat olish mumkin.
- **Progz.ru** forumi – ushbu forum dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, kompyuter dasturiy vositalarini ishlab chiqish va dasturlash bilan bog‘liq yo‘zaga kelgan muammolarni muhokama qilishga mo‘ljallangan.
- **Avtomobili.ru** forumi – ushbu forum avtomobil ishqibozlari forumi bo‘lib, unda avtomobillar brendlari, markalari va turlari hamda ularni ta‘mirlash va xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish mumkin.
- **Stopforum.ru** forumi – bu kompyuter o‘yinlari forumidir. Bunda o‘yinlarning turlari, ularni o‘ynash sirlari va yo‘zaga kelgan muammolar muhokama qilinadi.
- **WildDesign.ru** forumi — bu forumda dizayn, moda va tasviriy san‘at ixlosmandlari va ijodkorlari fikr almashishadi. Bundan tashqari ijodkorlar asarlaridan baxramand bo‘lish mumkin.
- **Uforum.o‘z** – milliy forumi. Uforum.o‘z milliy forum hisoblanib, u Respublikamizning axborot texnologiyalari, ta‘lim, madaniyat, moliya, sog‘liqni saqlash sohalarida hamda davlat sektori va elektron hukumat to‘zilmasida ro‘y berayotgan masalalar muhokamasini o‘z ichiga oladi.

Vebinar metodi – zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (kompyuter, monitor, multimedia va Shu kabi vositalar) yordamida turli joylardagi ishtirokchilar bilan masofadan turib o‘tkaziladigan interfaol mashg‘ulot turi. Vebinar metodi yoki “Webinar” texnologiya tushunchasi muloqotga 1998 - yilda kirib keldi. Vebinar metodida dars masofaviy seminar yoki konferentsiya shaklida Internet orqali bir vaqtda hozir bo‘lgan talabalar bilan masofaviy ta‘lim tizimida qo‘llanayotgan ko‘plab interfaol audio video aloqa vositalari yordamida jonli olib boriladi. Bu darslarni kelgusida kerak darajada foydalanish uchun yozib olish mumkin. Bu metodda olib boriladigan butun o‘quv yoki kurs

Moodle ta'lim muassasalarida tez-tez ishlatiladigan kuchli platformadir. Bugungi kunda u dunyoning 200 mamlakatlaridan ko'proq talabga ega va masofaviy ta'lim uchun eng mashhur tizimdir. Bugungi kunda Moodle 100 dan ortiq tillarga tarjima qilingan va 1500 dan ortiq plaginlarni qo'llab-quvvatlaydi. Moodle universitetlarda va o'quv markazlarida, Shuningdek korporativ ta'lim uchun ta'limni tashkil qilish uchun javob beradi. Moodle savdo platformalaridan ko'ra sozlash uchun nisbatan murakkab. Ammo uning ma'muriyati *привлечения* uchinchi tomon mutaxassislarini jalb qilish va o'z serverining mazmuni tufayli qimmatroq bo'lishi mumkin (*rasmiy veb sahifasi: <https://moodle.org/>*).

Moodle Xususiyatlari

- **Pluginlar orqali platformani sozlash.** Moodle funksionalligi va dizayni Moodleinternetdan bepul yuklab olish yoki o'zinzizni yaratishingiz mumkin bo'lgan pluginlar yordamida o'zgaradi.
- **Ochiq kodli tizim.** Rivojlanish har kimga olib kelishi mumkin. Odatda, pluginlar foydalanuvchilarning o'zlari tomonidan ishlab chiqiladi va keyin ularni almashish uchun internetga joylashtiradi.

- **Boshqa xizmatlar bilan integratsiya.** Moodle WordPress yoki Zoom Webinar kabi boshqa platformalar bilan birlashtirish oson.

- **Kontentni qo'llab-quvvatlash:** Moodle elektron ta'limning eng mashhur standartlarini qo'llab-quvvatlaydi: IMS, AICC va SCORM. Qo'llab-quvvatlash Xapi (Tin-jon) plugin Logstore API orqali yoqilgan. Bundan tashqari, Moodle-da prezentatsiyalar, rasmlar, videolar, audio va matnli fayllarni yuklab olishingiz mumkin.

Kontent yaratish: B Moodle-da matnli ma'ro'zalar va so'rovlar yaratishingiz mumkin. Agar siz Interaktiv kontent h5p pluginiga ulansangiz, h5p bilan ta'lim mazmunini qo'shishingiz mumkin: interaktiv o'quv materiallarini yaratish uchun veb-xizmat.


Afzalliklari:

- sinov muddati bor;
- kurs muharriri;
- mobil qurilmalarda qo'llab-quvvatlanadi.

Kamchiliklari:

- analoglarga nisbatan ancha yuqori narx.

ZenClass



Onlayn maktabini tez va arzon narxlarda yaratishni istaganlar uchun ajoyib imkoniyat. ZenClass-da ZenClasssiz darslarni yaratishingiz, ularni vazifalar bilan to'ldirishingiz va umumiy o'quv rejasiga muvofiq bosqichlarga bo'lishingiz mumkin (*rasmiy veb sahifasi: <https://zenclass.ru/>*).

Afzalliklari:

- juda oddiy interfeys;
- cheksiz sonli o'quvchilarni qo'shishingiz mumkin.

Kamchiliklari:

- oflayn versiyasi yo'q;
- mobil versiya yo'q.

Moodle




jarayonidagi darslar yagona o'quv dasturidagi izchillikda o'zaro o'zviy bog'lanmaydi, ular alohida-alohida bir martalik darslardan iborat bo'ladi.

12.5-§. Ta'limni boshqarish tizimi (LMS)

Ta'limni boshqarish tizimi - bu ma'muriy hujjatlarni rasmiylashtirish, hujjatlashtirish, ko'zatib borish hisobot berish, o'quv kurslarini, o'quv dasturlarini yoki o'quv va rivojlanish dasturlarini avtomatlashtirish va yetkazib berish uchun dasturiy ta'minot. Ta'limni boshqarish tizimi kontseptsiyasi to'g'ridan-to'g'ri elektron ta'limdan paydo bo'ldi.

LMS tizimlari zamonaviy axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim tizimini tashkil etishi mumkin bo'lgan zamonaviy texnologiyalaridan biridir. Yangi texnologiyalar negizida (masalan, "Moodle" tizimida) individuallashtirilgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish, talabaning bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish hamda egallagan bilim darajasini aniqlash kabi vazifalar hal qilinadi. Ta'lim jarayonida masofali o'qitish texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmuni, shakllari va usullarining ijobiy o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi So'nggi yillarda G'arbda ta'lim tizimini boshqarishda qo'llanib kelinayotgan Internet yoki Intranet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turi Elearning (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi. Elektron ta'lim -axborotkommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. Elektron ta'limni tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin: Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools), Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems), Ichki kontentni boshqaruvchi tizimlari CMS (Content Management Systems).



12.1-rasm. Elektron ta'limni tashkillashtirishda ishlatiladigan dasturiy ta'minotlar strukturasi

